

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



BIZNES VA FAN UNIVERSITETI
UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE



University of
Business and Science

ILMIY AXBOROTNOMA

2024

UBS ILMIY AXBOROTNOMASI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК UBS
UBS SCIENTIFIC BULLETIN

4

www.ubsu.uz



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



BIZNES VA FAN UNIVERSITE
UNIVERSITY OF BUSINESS AND
SCIENCE

ILMIY AXBOROTNOMA 2024



*UBS Ilmiy Axborotnomasi
*Научный Вестник UBS
*UBS Scientific Bulletin

Bosh muharrir: University of Business and Science rektori, geografiya fanlari doktori, professor K.M. Boymirzayev

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD) dotsent A.R.Nurmatov

Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, N.X.Abdullayev.

TAHRIR HAY'ATI

Fizika-matematika va texnika fanlari – f-m.f.d., prof. M.M.Rahmatullayev, f-m.f.d., prof. R.M.Xakimov, f-m.f.d., prof. G'.Jorayev.

Biologiya fanlari – b.f.d., akademik K.Sh.Tojiboyev, b.f.d., dotsent. A.Batoshev, b.f.d., dots. D.B.Dexqanov.

Tarix fanlari – tar.f.d., prof. A.N.Rasulov, tar.f.d., prof. F.A.Maqsudov, tar.f.d. dotsent. B.A.Usmonov.

Iqtisodiyot fanlari – i.f.d., prof. Qodirova H.T, i.f.d., dots. M.X.G'aniyev, i.f.d., dots. N.Sotboldiyev.

Falsafa fanlari – s.f.d., prof. T.Fayzullayev, f.f.d., prof. A.M.Mirzahmedov, s.f.d., prof. N.B.Dexqanov.

Filologiya fanlari – fil.f.d., prof. Z.Ya.Sodiqov, fil.f.d., prof. N.Ulukov, fil.f.d., prof. X.Sh.Usmonova.

Geografiya fanlari – g.f.d., prof. S.B.Abbasov, g.f.d. dots. Sh.Jumaxanov, g.f.d. dots. O.T.Mirzamahmudov.

Pedagogika va psixologiya fanlari – p.f.d. prof. M.Sobirova, p.f.d., prof. M.R.Qodirova, p.f.d. prof. Sh.K.Xo'jamberdiyeva.

Texnik muharrir: U.M.Madamimov.

Tahririyat manzili:
Namangan shaxri, Beshkapa ko'chasi, 111-uy.

Tel: (78) 113-26-26, (90) 789-42-42 **e-mail:** uzinfo@ubsu.uz

journal.ubsu.uz/index.php/main/index

© UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE 2024

07.00.00

TARIX FANLARI**OʻRTA ASRLAR TARIXINI DAVRLASHTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR (Osiyo va Afrika mamlakatlari misolida).**

*Sarimsokov Abdilatip Abdiraximovich,
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
University of Business and Science,
abdulsarimsokov@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon tarixining oʻrta asrlar qismini davrlashtirish masalasi, Osiyo va Afrika mamlakatlarining oʻrta asrlardagi davlatlari, ulardagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga doir qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Tayanch so'zlar: davrlashtirish, oʻrta asrlar, Osiyo, Afrika, siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, me'morchilik.

ПЕРИОДИКАЦИЯ СРЕДНЕВЕКОВОЙ ИСТОРИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ (на примере стран Азии и Африки).

Аннотация: В статье представлены краткие сведения о периодизации средневековой части всемирной истории, средневековых государствах Азии и Африки, их политической, социальной, экономической и культурной жизни.

Ключевые слова: Периодизация, средневековье, Азия, Африка, политика, экономика, культура, архитектура.

PERIODICATION OF MEDIEVAL HISTORY: PROBLEMS AND SOLUTIONS (in the case of Asian and African countries).

Annotation: The article provides brief information about the periodization of the medieval part of world history, the medieval states of Asia and Africa, their political, social, economic and cultural life.

Keywords: Periodization, Middle Ages, Asia, Africa, politics, economy, culture, architecture.

Kirish.

Antik davr, oʻrta asrlar va yangi davr tushunchalari dastlab Gʻarbiy Yevropa tarix fanida paydo boʻlib, ushbu mintaqadagi tarixiy jarayonni tartibga solishga qaratilgan. Bunday qarash keyinchalik boshqa qitʼalar tarixini oʻrganishda ham kuzatila boshlagan. Biroq, mazkur belgilarni Yaqin Sharq, Hindiston, Xitoy singari hududlar tarixidagi bosqichlarga nisbatan qoʻllash bir qator qiyinchiliklarga olib kelgan. Ayniqsa jahon tarixining ajralmas qismi boʻlgan Osiyo va Afrika mamlakatlarining oʻrta asrlar tarixini oʻrganishda yuqoridagi muammolar yaqqol namoyon boʻladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oʻrta asrlar tarixi boʻyicha yaqin davrlargacha asosan V. P. Semyonovning sobiq ittifoq davrida chop etilgan “Oʻrta asrlar tarixi” kitobidan asosiy adabiyot sifatida foydalanib kelingan. Biroq, undagi ma'lumotlarda mafkuraviy ta'sirni sezilib turgan.

Shuningdek, Osiyo va Afrika mamlakatlaridan ayrimlari yoritilgan xolos. R. R. Kurbongaliyevaning “O‘rta asrlar tarixi” nomli o‘quv metodik qo‘llanmasida ham umumiy ma‘lumotlar qisqacha berilgan. T. O‘. Salimov muallifligidagi

«Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V – XV asrlarda)» nomli darslik 2014 yilda nashr etilgan bo‘lib, unda Yevropa mamlakatlarining o‘rta asrlar tarixi yoritilgan. O. F. Akimushkin, L. B. Alayev, Xani Goro, Andrew Marsham, Burjor Avari, V. Beck Roger singari xorijlik tarixchilar ham o‘rta asrlar tarixini Osiyo va Afrikaning turli davlatlari misolida tadqiq etganlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, unda jahon tarixining o‘rta asrlar qismini davrlashtirish masalasi, Osiyo va Afrika mamlakatlarining o‘rta asrlardagi davlatlari, ulardagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga doir ma‘lumotlar aks etgan.

Tahlil va natijalar. Dunyoning barcha mamlakatlarida asrlar davomida rivojlanib, hukmron tuzumga aylangan feodal munosabatlar Osiyo va Afrikada Yevropaga nisbatan ancha mustahkamroq bo‘lgan hamda uzoqroq davom etgan.

Feodal formatsiyaning umumiy qonuniyatlari har bir mamlakatda turli shakl va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu munosabatlar alohida xalqlar o‘rtasida turli davrlarda va har xil sharoitlarda vujudga kelgan, rivojlangan va ayrim hollarda rivojlanish sur‘atlari notekis kechganligi bilan ajralib turadi. Lekin, shunga qaramay, o‘rta asr xronologiyasi shartli ravishda jahon miqyosida olingan: ilk o‘rta asrlar (III– IX), rivojlangan o‘rta asrlar (IX–XV) va so‘nggi o‘rta asrlar (XV–XVII birinchi yarmi). O‘rta asrlarning davriy chegarasi shartli ravishda belgilangan va ushbu masalada hanuzgacha bahslar davom etmoqda. Ayniqsa, o‘rta asrlar va yangi davr chegarasi masalasi keskin tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda. Ayrim tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra, mazkur davriy chegara Sharqda o‘rta asrlar Buyuk fransuz inqilobi davri (1789), yana boshqalarning fikrlariga ko‘ra esa o‘rta asrlar yakuni Konstantinopolning qulashi (1453) va Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishi (1492) bilan bog‘liq deb qaralmoqda.

Keyingi vaqtlarda jahon tarixining XVI–XVII birinchi yarmi yangi tarix davriga qo‘shib o‘qitilayotgan bo‘lsada, Xitoydan tashqari Osiyo va Afrika mamlakatlari masalasida ushbu davr tushurib qoldirilayotganligini kuzatish mumkin.

Tarixdan ma‘lumki, Osiyo va Afrikaning daryo vodiylari hamda dengiz sohillari qadimdan yuqori darajada rivojlangan ziroatchilik hududlari hisoblangan. Inson kuchi bilan katta va kichik sug‘orish tarmoqlari, suv ombor hamda to‘g‘onlar barpo etilib, sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik taraqqiy etgan. Qadimgi jamiyat metallsozlikda yuqori mahoratga erishgan. Masalan, Uzoq Sharq mamlakatlari ipak to‘qish bilan mashhur bo‘lsa, Yaqin va O‘rta Sharqda esa sifatli paxta matolari tayyorlanib, teriga yuqori darajada ishlov berilgan. Osiyo va Afrika mamlakatlarida me‘morchilik sohasi

mukammal darajada taraqqiy etgan. Qadimgi dunyo ilmiy bilim va san'at sohasidagi katta yutuqlarni meros tariqasida qoldirgan. Matematika, astronomiya va tibbiyotda ko'plab kashfiyotlar qilingan, muhim geografik hamda tarixiy ma'lumotlar to'plangan. Me'moriy obidalar, qadimiy ibodatxonalar qoldiqlari hamda ulardagi haykaltaroshlik va hashamatli bezaklar qadimiy madaniyatdan dalolat beradi. Biroq, Osiyo va Afrika qit'alarining ayrim ulkan hududlari aholisiz qolib, xo'jalik maqsadlarida foydalanilmagan. Ushbu bepoyon dashtliklarda ko'chmanchi qabilalar yaylov chorvachiligi bilan shug'ullangan.

Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda Sharq ilmiy bilim sohasida G'arbdan ancha oldinda bo'lgan. Yangi eraning dastlabki asrlarida Sharqda Xan, Sosoniylar, Vizantiya va Kushon imperiyasi kabi yirik davlatlar mavjud bo'lishi bilan birga, ko'plab Osiyo hamda Afrika xalqlarining ajdodlari ushbu davrda ibtidoiy tuzum darajasida bo'lganlar.

Sharq mamlakatlarida feodal munosabatlarning vujudga kelishi muammosi tarixchilar tomonidan nisbatan kam o'rganilgan. Mintaqalardagi feodal munosabatlarning genezisi muddatiga ko'ra, bir-biridan farq qiladi (Xitoy tarixiga doir munozaralar bunga yaqqol misol bo'ladi). Aksariyat yevropalik tarixchilarning fikriga ko'ra, feodal munosabatlarning shakllanishi Xitoyda milodiy III asr bilan bog'lansa, xitoy tarixchilari esa miloddan avvalgi V va hatto XI asrlarga to'g'ri keladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Yana bir guruh tarixchilarning fikricha, Sharqning ayrim mamlakatlarida o'rta asrlarga xos bo'lgan munosabatlarning shakllanishi G'arb davlatlariga nisbatan xronologik jihatdan oldinroq sodir bo'lgan va kechroq tugagan. Bu esa Osiyo va Afrikaning boshqa mamlakatlarida feodal munosabatlarning kelib chiqishi va rivojlanishi sezilarli darajada farq qilishini istisno etmaydi.

Feodal munosabatlarning ayrim ko'rinishlari quldorlik davrida ham uchraydi. Eron va Xitoydagi quldorlik tizimida yangi yo'nalish paydo bo'lib, u iqtisodiy hamda siyosiy hayotda uzoq davom etgan inqirozni keltirib chiqargan. Shuningdek, ushbu mamlakatlarning ko'plab hududlarida tabaqalashuvga bo'lgan munosabatlar hukmronlik qilgan. Hindistonda quldorlikning yuqori darajada rivojlangan yirik markazlari vujudga kelgan, ammo aholining kattagina qismi tabaqalashuvga bo'lgan jamiyatda yoki patriarxal qullik sharoitida yashagan. Arabiston, Koreya, Yaponiya va Hindixitoy yarim orolida feodal munosabatlar o'troq dehqonlar hamda chorvador qabilalar orasida vujudga kelgan.

Sharq katta yer egaligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning ko'p tartibliligi, patriarxalligi va qulchilik ko'rinishlarining uzoq saqlanganligida namoyon bo'ladi. Qulchilik Xitoyda imperator farmoni bilan 1911- yilda, Efiopiyada 1942- yilda, Saudiya Arabistonida esa 1962- yilda rasman tugatilgan. Ammo, o'z navbatida, mazkur holat ham bahslarga sabab bo'lmoqda. Jumladan, Inoue Kiyoshi va Xani Goro kabi tarixchilar VII–IX asrlarda yapon jamiyatida qul mehnatidan foydalanilgan deb hisoblaydilar.

Xalifalikning shakllanishi davrida arab jamiyatiga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimning mohiyati borasida olimlarning qarashlari bir xil emas. Shuningek, Sahroi Kabirning janubida yashovchi qabilalar va xalqlar tarixida qullar mehnatining o'рни ham kam o'rganilgan mavzular sirasiga kiradi.

Osiyo va Afrika mamlakatlari tarixida o'troq hamda ko'chmanchi qabilalar o'rtasidagi munosabatlar masalasi juda muhim. Chunki, ushbu mamlakatlardagi qadimiy ko'chmanchilar xo'jaligi asrlar davomida o'zgarmagan holda saqlanib kelgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, agar dehqonlar va chorvadorlar o'rtasidagi almashinuv jarayonlari jamiyatning rivojlanishiga turtki bergan bo'lsa, o'troq aholi hududlariga uyushtirilgan ko'chmanchilarning harbiy yurishlari esa aksincha, ishlab chiqaruvchi kuchlarning qirilib ketishi hamda aholining ma'lum bir qismini halokatiga olib kelgan. Ko'chmanchi qabilalarning IV asrda Shimoliy Xitoy, V asrda Hindiston shimolidagi eftallar istilosi qishloq xo'jaligini, qadimiy shaharlardagi ko'plab maktab va kutubxonalarni vayron bo'lishiga olib kelgan. Urush paytida minglab dehqonlar halok bo'lgan yoki qulga aylantirilgan.

Qishloq xo'jaligi o'rta asrlar iqtisodiyotining asosi bo'lganligi sababli ushbu davrda yer-mulk va unda ishlovchi dehqonlarga egalik qilish uchun shiddatli kurash kechgan. Sharq mamlakatlarining aksariyatida ushbu mulk davlat shaklida bo'lgan. Yirik feodal mulk turli yo'llar bilan shakllangan. II–V asrlardagi Hindiston huquqiy hujjatlariga ko'ra, yerdan 20 yil foydalangan kishi uning egasiga aylangan bo'lsa, Arabistonda o'lik yerlarni tiriltirib, unga uch yil ishlov bergan shaxs yerning egasiga aylangan. Xitoy, Yaponiya va Hindistonda dindorlar qo'lida ham ko'plab yerlar mavjud bo'lgan.

Ilk o'rta asrlarda jamoalar parchalanib, dehqonlar yerga bog'lanib qolgan. Feodallar dehqonlarni vaqtincha bo'lsa ham, o'z egalariga qaram sifatida qo'shib berilishini istagan, biroq dehqonlar xo'jalik faoliyatida ma'lum erkinliklarni saqlab qolgan.

Feodal munosabatlarning dastlabki davrida ekspluatatsiyaning asosiy shakli ishlab chiqaruvchilardan olinadigan soliqlardan iborat bo'lgan. Soliqlar ko'pincha mahsulot, ba'zan esa pul ko'rinishida olingan. Soliqlardan tashqari dehqonlar yilning ma'lum davrida davlat, feodal va ibodatxonalar foydasiga tekinga ishlab berishga majbur bo'lgan. Qishloq xo'jaligi sun'iy sug'orishga asoslangan hududlarda dehqonlar kanallar, suv omborlar va to'g'onlar barpo etishda majburiy ravishda ishlab bergan. Ba'zan esa ular yo'llarni ta'mirlab, qal'a, saroy va ibodatxonalar qurganlar, og'ir yuklarni tashib, kema hamda qayiqlar yasagan. Ayrim mamlakatlarda dehqonlarning ishlab berishi majbur bo'lgan kunlar qonun bilan belgilangan.

Qullarni soliq to'lovchi dehqonlar yoki yarim qullar hamda qaram dehqonlarga aylantirish ilk o'rta asrlarda amalga oshirilgan. Jumladan, mazkur davrga oid tarixiy yilnomalarda qullarning yerga egalik qilishi, dehqonlar bilan bir qatorda ularga soliqlarning to'lanishi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud. Qullarning dehqonlar tabaqasiga o'tishiga doir ma'lumotlar V–VII asrlardagi

Xitoy tarixiy manbalarida ham aks etgan.

Uzoq Sharqdagi dehqonlar orasida soliq to'laydigan dehqonlar («yaxshi odamlar») alohida toifa sifatida ajratilgan. Arablar tomonidan bosib olingan mamlakatlarda turli millatlarga mansub bo'lgan dehqonlar va cho'ponlar o'rtasidagi diniy tafovut soliqlarning miqdoriga ham ta'sir ko'rsatgan. Aksincha, ayrim mamlakatlardagi soliq to'lovchilar esa yuqori tabaqaga ko'tarilishlari mumkin bo'lgan.

Shunday bo'lsa-da, Sharq mamlakatlarida ekspluatatsiya qilinadigan aholining aksariyati soliq to'laydigan dehqonlardan iborat bo'lib, ular shaxsan erkin, lekin yerga bog'langan edil. Ilk o'rta asrlarda davlat (Xitoy, Koreya, Yaponiya), jamoa (Hindiston) va feodallar (Eron va Xitoy)ning yerlariga qaram dehqonlar birlashtirilgan. Ko'pgina manbalarda qochoqlarni qo'lga olish, bir joydan ikkinchisiga o'tishini taqiqlash, aholini qat'iy ro'yxatga olish va tug'ilgan joyida ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud.

Sharq mamlakatlari uchun jamiyatning feodallasuvi davlat darajasida bo'lganligi o'ziga xosdir. Bunga misol tariqasida Arab xalifaligi, Xitoy imperiyalari, Koreyadagi Silla kabi davlatlarni keltirish mumkin. Shu bilan birga, Hindiston va Indoneziya, Afrikaning bir qator mintaqalaridagi ilk o'rta asrlar davlatlari beqaror hamda qisqa vaqt mavjud bo'lib, feodal munosabatlarning shakllanishi asosan, shaxsiy mulkchilik yoki knyazliklar doirasida bo'lgan.

O'z o'rnida shuni alohida qayd etish kerakki, o'rta asrlarda din g'oyaviy ta'sir quroli sifatida muhim rol o'ynagan va feodal munosabatlarining mustahkamlanishiga yordam bergan. Masalan, VII–VIII asrlarda Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrikada islom dini tez tarqalgan. Uzoq Sharq hamda Janubi-sharqiy Osiyoda hind missionerlari olib kelgan buddaviylik asosiy dinga aylangan. Shu bilan birgalikda eski animistik dinlar – hinduiylik, sintonizm, totemizm, fetishizm ham saqlanib qolishda davom etgan.

Jamoa yoki mayda mulkdorlarning yerlari tortib olinib, yirik mulkdorlarning yerlariga qo'shilishi, ulardan soliq yoki yig'imlar undirilishi, jamoaning parchalanib, ma'muriy tashkilotga aylanishi, quldorlikni qayta tiklashga bo'lgan urinishlar xalq harakatlarini keltirib chiqargan. Ko'pincha feodallar jabrdiydalarga turli imtiyozlar berishga majbur bo'lgan. Shuning uchun ilk o'rta asrlardagi xalq harakatlari keyingi davrlardagi singari uzoq va ommaviy bo'lmagan.

Dehqonlarga yer ajratib berish va qul mehnatidan foydalanishning keskin qisqarishi qishloq xo'jaligi taraqqiyotiga sabab bo'lgan. Aholi sonining ortishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi turmush tarzi hamda madaniyatning sezilarli darajada o'sishiga sharoit yaratgan. Yovvoyi qabilalar yoki yosh davlatlar qo'shinlarining istilolari qadimiy madaniyatlarni yo'qotib yubora olmagan.

Feodal munosabatlar rivojlangan davrda sug'orish tarmoqlari sezilarli darajada kengayib, suvchiqargichlar ixtiro qilingan, dalalarga ishlov berish

usullari takomillashtirilgan va hosildorlik ortgan. Yangi qishloq xo'jaligi madaniyati yaratilgan. Pillachilik bilan Xitoydan tashqari Hindiston va Yaqin Sharq mamlakatlarida ham shug'ullanila boshlangan. Sabzavot yetishtirishning ayrim turlari O'rta Osiyodan Uzoq Sharqqa ko'chirilgan.

Hunarmandchilik markazlari bo'lgan shaharlarda me'morchilik sezilarli darajada yaxshilangan. Damashq, Bag'dod, Chang'an va Nara kabi shaharlar o'sha davrning eng yirik shaharlari bo'lgan. Ajoyib va muhtasham musulmon masjidleri, ko'p qavatli buddaviylik ibodatxonalari, feodallarning ulug'vor saroylari barpo etilgan. Masalan, VIII asr boshlarida Xitoyda shlyuz tizimiga ega bo'lgan Buyuk kanal qurilishi tugallangan. Astronomiya, matematika, kimyo, tibbiyot, geografiya va tarix kabi fanlar rivojlangan, she'riyat gullab-yashnagan.

O'sha davrda Osiyo mamlakatlarida savodxonlik kengaygan. VII asrda G'arbiy Yevropada ruhoniylarni hisobga olmaganda, ko'pchilik feodallar o'qish va yozishni mutlaqo bilmagan, Uzoq Sharqda esa feodal va amaldorlarning deyarli barchasi savodli bo'lgan. Dehqonlarning turmush darajasi ham qoniqarli darajada bo'lgan, bu esa o'z navbatida iqtisodiyot va madaniyat rivojiga turtki bergan.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosaga kelish mumkin:

Osiyo qit'asida katta yer egaligi Yevropadan oldin boshlangan;

Sharq va G'arb aholisining turmush tarzida o'ziga xosliklar mavjud;

Sharq davlatlarining ko'chmanchi chorvador aholisi migratsiyalari mintaqadagi doimiy taraqqiyotga xalal berib, ba'zan uni orqaga ham surib yuborgan;

Sharq ijtimoiy tizimida harbiy demokratiya va quldorlik elementlari uzoq muddat saqlanib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Акимущин О. Ф. Средневековый Иран: культура, история, филология. – СПб., 2004.
2. Алаев Л.Б. Средневековая Индия. – СПб.: Алетеия, 2003.
3. История Китая. – М.: «Высшая школа», 2002.
4. История средних веков. В 2 т. Т. 1. – М.: Наука, 2005.
5. История стран Азии и Африки в средние века. – М., 1988.
6. Семёнов В. П. Ўрта асрлар тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1973.
7. Хани Горо. История японского народа. – М., 1957.
8. Andrew Marsham. The Caliphate In: The Oxford World History of Empire. – Oxford University Press, 2021.
9. Burjor Avari. India: The Ancient Past: A History of the Indian Sub-Continent from c. 7000 BC to AD 1200. – Routledge, 2007.
10. Roger B. Beck, Linda Black. Larry S. kriegler. Philip C. Naylor. Dahia Ibo Shabaka «World history: patterns of interaction». McDougale Little, USA, 2009.
11. Xan V. S. Koreya tarixi. – Т.: Baktria press, 2013.

YOZMA MANBALARDA SHAYBONIY ABDULAZIZXON FAOLIYATI XUSUSIDA

*Mirzayev Bekzod Nuraliyevich,
University of business and science katta o'qituvchisi,*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mohir siyosatchi va sarkarda, davlat arbobi, ijodkor hamda ilm-fan homiysi bo'lgan Shayboniy Abdulazizxonning ma'rifiy faoliyati tarixiy yozma manbalardagi ma'lumotlar asosida yoritildi.

Kalit so'zlar: Shayboniyxon, Abdulazizxon, Movarounnahr, hadis ilmi, fiqh, safaviylar, tasavvuf, tariqat, she'riyat.

О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШАЙБАНИ АБДУЛАЗИЗХАНА В ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация: В данной статье опираясь на исторические рукописи, освещены политическая, социальная, просветительская деятельность искусного политика, военачальника, государственного деятеля, мецената в области искусства и творчества Шейбани Абдулазизхана.

Ключевые слова: Шайбанийхан, Абдулазизхан, Маварауннахр, изучения хадисов, творческая интеллигенция, сафавийи, поэты, религиозный деятель.

ABOUT THE ACTIVITY OF SHAIIBANI ABDULAZIZKHAN IN THE WRITTEN SOURCE

Annotation: In this article political, social and educational activities of Sheibaniy Abdulazzizkhan, a well-known politician and commander-in-chief, statesman, creator and scholar of science, are based on historical sources.

Keywords: Shaybonikhan, Abdulazzizkhan, Movaraunnahr, learning xadises, creative intellagency, safaviys, sufizm, poets.

O'zbek xalqi davlatchiligi taraqqiyotida shayboniylar sulolasining hukmronligi katta ahamiyat kasb etadi va bu nasl-nasab vakillarining hayoti, tarixi, ular bilan bog'liq turli voqea va jarayonlar ilmiy tadqiqot ishlarida maxsus ravishda, ba'zan esa qisman o'rganilgan. Ammo tor doiradagi ayrim masalalar tarixiy jihatdan tadqiq etilmagan, shu jumladan, shayboniylarning sulolaviy tarixi va uning o'ziga xos tomonlari yoritilmagan va bu tadqiq etilishi lozim bo'lgan masalalardan biri sanaladi. Zero tarixiy shaxslarga xos ularning o'ziga xos siymolarini ochib berish, bu borada tegishli tadqiqotlar olib borish ma'naviy-ma'rifiy jabhada ham muhim o'rin tutadi.

XVI asrning o'rtalarida yashab, Movarounnahr va Xorazm hududlarini yagona davlatga birlashtirishga harakat qilgan Ubaydullohxon Birinchining o'g'li bo'lgan Abdulazizxon siymosining o'rganilishi ham muhim ahamiyatga ega.

Avvalo shuni ta'kidlash joizki, dasti(qo'li)ni dunyoga cho'zib shohlik da'vo qilishning o'zi jur'atu jasoratni, shijoatu uquvni, bir umrlik tashvishi

fidoyilikni talab qiladi. Shayboniyxon va undan keyingi avlodlari ham shunday fazilatlar sohibi sifatida ko'p mashaqqatlar chekib, "... butun Turkiston hududlari miqyosida markazlashgan davlat tuza bilgan". Bu davlat Bizkim, o'zbeklar kitobida, "...Amir Temur saltanatidan keyingi kuchli davlat[1,40]" deb talqin qilingan.

Ubaydullohxon Birinchi va Qozoq xonim (Habiba Xonish sulton)ning o'g'li bo'lgan Abdulazizxon 1511 yil (hijriy 917 yil rajab oyi)da Turkiston viloyatiga qarashli Arquq mavzeyida tug'ildi. Mazkur sulton ham shayboniylardan bo'lib, u to'g'risida manbada "yumshoq tabiat va og'ir-bosiqqliq bilan tavsiflangan shahzoda sifatida e'tirof etiladi[2,150].

Dastlab Abdulazizxon 1538-1539 yillarda Xorazm hokimi sifatida faoliyat yuritgan. Abdulazizxon 1539 yilda otasi Ubaydullohxon Birinchining vafoti va shayboniylar sulolasi vakillari o'rtasida o'zaro nizolar avjiga chiqishi oqibatida aniqrog'i Abdullohxon Birinchining qisqa hukmronligi (1539-1540)dan so'ng, 1540 yil mart oyidan - 1550 yilgacha (hijriy 946 yil zulqa'da oyi) ota yurti hisoblangan Buxoroda davlatni boshqarishga kirishib, Tanishbiy qushchini o'zining otalig'i lavozimiga tayinlaydi[2,150]. Ya'ni, Samarqand xoni bo'lgan Abdullatif uni bosh xon sifatida tan olmaydi, natijada kelishmovchiliklar kelib chiqib, mamlakatda ikki hokimiyatchilik vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bir necha bor Toshkent hokimi Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) va Abdullatifxonlar bilan o'zaro kelishmovchilik va urushlar bo'lib turdi.

Jumladan, ularning qo'shini Abdulazizga qarshi yurish qilgan vaqtda Abdulazizxon Balxga qochadi, biroq Jo'ybor shayxlari Toshkent, Samarqand hokimlarining qo'llab-quvvatlaganlari uchun ittifoqchilar qo'shinlari Buxoroni tashlab chiqib ketishga majbur bo'lishdi. Shundan keyingina u Buxoroda xonlik taxtiga hijriy 951 yili (1544-1545 yy)da o'tirib, o'z nomiga xutba o'qittiradi va tanga zarb qildiradi. Uning hukmronligi davrida davlat va aholi manfaatlariga xizmat qiladigan qator islohotlar o'tkazildi, ayrim soliqlar (tanob puli, tafovut, tavniri va boshqalar)ni bekor qilgan[3,269-270]. Abdulazizxon deyarli qirq bir yil umr ko'rib, 1550 yil 16 may (xijriy 957 yil rabbi'-us-soniy oyining 26-chorshanba kuni)da vafot etadi. Uning qabri otasi Ubaydullohxon Birinchining mozori yonidagi sufada joylashgan[4,47]. Abdulazizxondan deyarli avlod qolmagan.

Abdulazizxon ibn Ubaydullohxonning davrida ham to's-to'polonlar ko'p bo'lganligiga qaramay, u mamlakat obodligi va yurt qurilishlariga ham kirishib, bir qator imoratlar bino etdi. Xususan u Buxoro atrofini yangi mudofaa devori bilan o'rashga kirishgan. Bundan tashqari u Buxoroda madrasa, Bahouddin Naqshband qabristonida xonaqohlar qurdirgan. To'qqiz yuz ellik birinchi hijriy (1544-1545 isoviy) yilida Bahouddin Naqshband sahnining shimol tarafida ikki ashyonlik (qavatlik) xonaqo qurdirdi[5,42].

Abdulazizxonning ulkan bir kitobxonasi bor edi, o'sha paytda bunday kitobxona bo'lganmi, yo'qmi aytish qiyin. "Bu kitobxona" – tarixiy manbalarda yozilishicha ("Nafoisulmaosir"), Xurosonga yurishlaridan birida

Abdulazizxon qo'liga Husayn Boyqaro kitobxonasi tushgan. Mazkur kitobxona esa o'sha kitobxona asosida tashkil etilgan. Bu kitobxonaga o'sha zamon kotiblarining rahnamosi Amir Ali Husayniy mudir edikim, o'z zamonasida tengi yo'q naqqosh va xattot bo'lgan deb hisoblash mumkin[6].

Abdulazizxon ilm va she'riyat homiysi, taqvodor inson sifatida darvishlar muxlisi bo'lib, ularga e'tiqodi baland bo'lgan. Bu borada uning tasavvuf olimi, sidq bilan iroda qaydida yetuk bo'lgan ilk ustoz Shayx Jalol (O'rta Osiyolik tasavvuf olimi, 956 (1549) yili 70 yoshida vafot etgan)ning muridlaridan hisoblanib, keyinchalik uning vafotidan so'ng, diniy ilmlar tahsili va ilmga yaqin masalalar takomilini yetuk olim hazrati Nosiriddin-Oxund (XVI asr Xurosonlik tasavvuf va tabiiy fanlar borasidagi olim) va sayidlar avlodidan hazrat Amir Abulbaqoning xizmatlarida ham qo'lga kiritdi. Va xon o'z davridagi zamon darvishlari tomon doim niyoz eshiklarini ochib qo'yib, ularning fотиha-barokatidan bahramand bo'lardi. Shuningdek, olimlari fozillar va shoirlarning boshini o'zining xayr-sahovati bilan bahramand qilardi. U husniyat sohibi sifatida nasx xatini yaxshi yozardi,

“Aziziy” taxallusi bilan g'azallar bitish bilan ham mashg'ul bo'lib, so'zamollik to'pini notiqliq maydonida olib qochgan[4,44-45]ligi uning mohirona notiq bo'lganligini anglash mumkin.

Zero, shayboniylar davlati asoschisi Muhammad Shayboniyni ilmu urfonga, she'riyatga bo'lgan dastlabki qiziqishini uning bek atkasi (otalig'i) uyg'urlardan sanalgan Boyshayx uyg'otgan[7,-56]ligidan kelib chiqib, sulola vakili Ubaydullohxon Birinchi va Qozoq xonim(Habiba Xonish sulton)ning o'g'li bo'lgan Abdulazizxon ham ilm-fanga, adabiyotga alohida muhabbatli bo'lganini e'tirof etish mumkin.

Umuman olganda, XVI asr o'rtalarida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlaydigan turli savdo rastalari, ariq va kanallar, ko'prik solish ishlari keng quloch yoydi. Nafaqat Buxoro, Samarqand shaharlariga katta e'tibor qilindi, balkim boshqa shaharlarda ham katta – katta binolar qurildi. Xususan, Yassida masjid, Qarshi shahri daryo yonida saroy qurildi. Shuningdek, fan va madaniyatning rivojlanishida mazkur sulola namoyandalarning tutgan o'rni katta bo'lgan. Avvalo, ularning o'zlari nihoyatda o'qimishli shaxslar edilar. Chunonchi, Muhammad Shayboniynon, Ko'chkinchixon, Ubaydulloxon Birinchi, Abdulazizxon kabi shayboniylar turkiy va forsiyda she'r bitganlar. Diniy va dunyoviy ilmlarda yetarli salohiyatga ega bo'lganlar.

Shayboniy Abdulazizxonning shaxsi haqida yozma manbalardagi ma'lumotlarga tayangan holda quyidagicha xulosalar qilish mumkin:

Birinchi, Butun XVI asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy voqealar Abulxayrxon avlodlari bo'lgan shayboniylarning yetuk vakillaridan bo'lgan Abdulazizxon ham Movaronnahrda asosan Buxoroda davlat va aholi manfaatlariga xizmat qiladigan qator islohotlari va mamlakatni obodanlashtirishi bilan o'z mavqeini mustahkamladi.

Ikkinchi, Shayboniy Abdulazizxon maorif va madaniyat bobida o'z

davrining ruhidan to'la xabardor va zamonasidagi tengdosh shoirlarning aksariyatidan ortiq darajada qalam sohibi sifatida namoyon bo'lgan.

Uchinchidan, Shayboniy Abdulazizxonning she'rlari ham xuddi Shayboniyxon, Ubaydullohxon singari dushmanlari fikrining teskarisi o'laroq, buyuk bir iqtidor va go'zal tabiatga molik ekanini, u ham turkiy, ham forsiy tillardan asosli sur'atda voqif ekanini ko'rsatmoqda. Ayni shu ma'noda, Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" asarida aytilganidek, Abdulazizxon ham barcha ilmu fazilatlardan xabardor ekanligi va o'z zamonasidagi olimu fozillar bilan doim hamsuhbat bo'lganligi[4,20-b] ning o'zi ham uning ilm-fan va madaniyat homiysi bo'lganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Иброҳимов А. Бизким, ўзбеклар. Тошкент, "Шарқ", 2011. 40-б.
- 2.Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ул-Билод. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2009. Б. 150.
- 3.Мирзо Салимбек "Кашкули Салимий Таворихи муттакадимин ва муттаахири" (Форс-тожик тилидан ўзбекчага доцент Нарзулло Йўлдошев таржимаси). "Бухоро" нашриёти, 2003. –Б. 269-270.
- 4.Ҳасанхожа Нисорий. Музаққир ахбоб. Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1993. –Б. 47.
- 5.Ўзбекистон ҳукмдорлари. Д.Алимова таҳрири остида. Тошк., 2007. –Б. 42.
- 6.Бу китобхона ҳам китобат санъати билан шуғулланадиган, ҳам китоблар сақланадиган жой бўлган. Проф. Ҳ.Сулаймон ана шу китобхонанинг Англия, Францияда сақланаётган дурдона намуналарини аниқлаган. (Қаранг: А.Навоий асарларига ишланган расмлар. Альбом. (Тузувчилар Ҳ.Сулаймон, Ф.Сулаймонова). ЎзССР. Фан, 1982.).
- 7.Бартольд В.В. Сочинение. В девяти томах. Т.2. Москва, 1963. С. 56.

TARIXIY – NAZARIY MANBALARI, DINIY TA'LIMOTLARIDA NAFS TUSHUNCHASINING O'ZIGA XOS TALQINI

Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
University of Business and Science,

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nafs tushunchasi ko'plab tarixiy-nazariy manbalar, falsafiy maktablar va diniy ta'limotlarda turli xil talqinlarga ega ekanligi hamda Qadimgi sivilizatsiya va madaniyat o'choqlari hisoblangan Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy va Markaziy Osiyoning tarixiy-nazariy manbalarida "Nafs" tushunchasining o'ziga xos ko'rinishlari, uning shaxs va jamiyat munosabatlariga ta'siri izohlab berilgan. Nafni tarbiyalash va uni nazorat qilish orqali inson ma'naviy-axloqiy kamolotga yetishi manbalar va tarixiy adabiyotlarni tahliliy solishtirish orqali tahlil qilingan. Nafsni isloh

qilish orqali inson nafaqat o'zining, balki jamiyatning ham manfaati uchun harakat qiladi. Nafs, adolat va ijtimoiy barqarorlikning kafolatiga aylanishi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Nafs, ruh, insonning ichki energiyasi, ego xohish istaklar, shaxsiy manfaatlar, insonning ichki hissiyoti, ruhlarning ko'chishi.

ИСТОРИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ИСТОЧНИКИ, ЛИЧНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ ДУША В РЕЛИГИОЗНОМ УЧЕНИИ

Аннотация: В данной статье понятие Нафс имеет разные трактовки во многих историко-теоретических источниках, философских школах и религиозных учениях, а также в историко-теоретических источниках Египта, Месопотамии, Индии, Китая и Средней Азии, которые считаются центрами древней цивилизации и культуры объяснены конкретные проявления понятия «самость» и его влияние на отношения личности и общества. Духовно- нравственная зрелость человека через воспитание и контроль над эго анализировалась посредством аналитического сравнения источников и исторической литературы. Преобразуя душу, человек действует не только на свою пользу, но и на пользу общества. Показано, что похоть становится гарантией справедливости и социальной стабильности.

Ключевые слова: Нафс, душа, внутренняя энергия человека, эго-желания, личные интересы, внутреннее чувство человека, переселение душ.

HISTORICAL-THEORETICAL SOURCES, THE PERSONAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF SOUL IN RELIGIOUS TEACHINGS

Abstract: This article explains that the concept of the Self has various interpretations in many historical and theoretical sources, philosophical schools and religious teachings, and the specific manifestations of the concept of "Self" in the historical and theoretical sources of Egypt, Mesopotamia, India, China and Central Asia, which are considered the centers of ancient civilization and culture, and its impact on the relationship between the individual and society are explained. The fact that a person reaches spiritual and moral maturity through the education and control of the Self is analyzed through an analytical comparison of sources and historical literature. By reforming the Self, a person acts not only for his own benefit, but also for the benefit of society. It is shown that the Self becomes a guarantee of justice and social stability.

Keywords: Desire, soul, human inner energy, ego desires, personal interests, human inner feelings, transmigration of souls.

Kirish.

Nafs tushunchasi ko‘plab tarixiy-nazariy manbalar, falsafiy maktablar va diniy ta’limotlarda turli xil talqinlarga ega. Bu tushuncha insonning ichki dunyosini, hirs, xohish va axloqiy qadriyatlarini izohlaydi. Nafs tushunchasi har bir madaniyat va ta’limotda o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lib, inson ruhiyati, axloqiy qarorlari va yashash ma’nosini tushunishda muhim o‘rin tutadi. Uni tarbiyalash va nazorat qilish esa aksariyat maktablar va ta’limotlarda kamolotga erishishning asosiy shartlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

Eng qadimgi madaniyat o‘choqlaridan hisoblangan Qadimgi Misr va Mesopotamiya sivilizatsiyalarida “nafs” tushunchasi aniq ifodalangan bo‘lmasa-da, shu ma’noda qo‘llanilgan qarashlar mavjud bo‘lgan. Ikkala madaniyat ham inson va uning ruhiy qirralarini izohlashga katta e’tibor qaratgan. Ammo bu tushunchalarning mazmuni va tarkibi o‘ziga xos bo‘lgan. Qadimgi Misrning “Marhumlar kitobi” (yoki “Peret Em Heru”) da nafs va axloq masalalarini ko‘rsatuvchi muhim diniy va falsafiy matnlar to‘plami bo‘lib, o‘lgan kishining ruhiy safarini tasvirlaydi va uning axloqiy holatini baholaydi. Misrda “Marhumlar kitobi”da nafs va axloq masalalari ko‘plab hissiyotlar, ijobiy va salbiy sifatlar orqali ifodalangan, chunki Misr diniy qarashlariga ko‘ra, o‘lganlarning ruhiy holati va ularga berilgan hukm ular hayotidagi axloqiy me’yorlarga amal qilishi bilan bog‘liq holat hisoblangan”[1,17]. Qadimgi Misrda nafs tushunchasi ruhning bir nechta komponentlari orqali ifodalangan. Ular insonning faqat hayoti davomida emas, balki o‘limdan keyin ham davom etuvchi ruhiy holatini izohlash uchun ishlatilgan. “Ba” – “ruhning mobil qismini ifodalagan, insonning shaxsiyati va xislatlarini o‘z ichiga olgan”[2]. U tanani tark etib, osmonga ko‘tarila olardi, ammo tananing saqlanishi uning manguligini ta’minlardi. “Ka” – “insonning hayotiy energiyasi yoki quvvatini ifodalagan. Mumiyalashtirish va qurbonliklar orqali Kaning saqlanishi ta’minlangan”[3], chunki Ka o‘limdan keyin yashashda davom etadi deb ishonilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

“Ah” – insonning ideallashtirilgan ruhiy holatini yoki “mangu ruhni” bildirgan. “U o‘limdan keyingi olamdagi ideallashtirilgan holatga aylanishni ifodalagan. Narigi dunyoda inson ruhi “Ah” shaklida yashaydi – tana qobig‘idan xalos bo‘lgan va sehriga ega bo‘lgan sof ruh”[4]. Xudolar bilan birga keyingi hayot va uning quvonchlarini tatib ko‘rish bilan izohlangan. “Shuit” – insonning soyasi sifatida u bilan uzviy bog‘langan, ammo ruhiy kuchga ega bo‘lgan. Ism insonning shaxsiyligini belgilagan va uning mangu hayotini ta’minlagan. Qadimgi Misr «Marhumlar kitobi»da keltirilishicha har bir inson o‘lgandan so‘ng, oxiratda hisob beradi. Avval bosh ma’bud Osiris oldida u o‘zining gunohsizligini isbotlashga urinadi, gunohlarni sanab, gunoh qilmaganligini aytadi. Gunohlarning ko‘pchiligi esa axloqqa borib taqaladi:

- Men yovuzlik qilmadim!
- Men o‘g‘irlik qilmadim!
- Men hech kimga hasad qilmadim!

- Men hech kimni tunamadim!
- Men hech kimni o'ldirmadim!
- Men tarozidan urmadim!
- Men Xudosizlik qilmadim!
- Men munofiqlik qilmadim!
- Men yolg'on gapirmadim!
- Men zino qilmadim!
- Men hech kimga g'azab qilmadim!
- Men hech kimni haqorat qilmadim!
- Men hech kimga qo'pollik qilmadim!
- Men kibrli bo'lmadim!
- Men o'zimni boshqalardan ustun qo'ymadim!..

Marhum o'zini shu tariqa Osiris oldida oqlagan. "Marhumlar kitobi"da Osiris oldida marhumning yuragini tortish sahnasi tasvirlanadi. Adolat tarozisining bir pallasida marhumning yuragi, bir pallasida esa, Maat (Misrliklarning haqiqat va adolat xudosi)ning pati qo'yib tortilgan"[5]. Agar marhumning yuragi og'ir kelsa, marhum hayotligida ko'p yomon amallar bajargan deb hisoblashgan. Agar yurak va pat tarozi pallasida teng kelsa, inson tirikligida yaxshi amallarni bajargan deb baholangan. Misrda axloq va nafs masalalari faqat individual emas, balki jamiyatning ham bir qismi hisoblangan. Odamlar hayotda axloqiy me'yorlarga amal qilishlari, adolatli va to'g'ri bo'lishlari kerak deb hisoblangan. Qadimgi misrliklar nafsni tanadan ajralmas bir qism deb bilishgan, shuning uchun mumiyalashtirish, qurbonliklar va ruhlar dunyosiga ishonish kabi an'analar yuqoridagi qarashlarga asoslangan.

Qadimgi Mesopotamiyada nafs tushunchasi Misrdagiga nisbatan boshqa tarzda shakllangan. "Ular ruhiy hayotni kamroq ideallashtirgan va ko'proq insonning hayotiy quvvatini realistik tarzda ifodalagan. "Etemmu" – ruh yoki soya tushunchasini ifodalagan. U o'limdan keyingi hayotda asosiy rol o'ynagan"[6]. Etemmu odamning soyasi kabi, o'lganidan keyin yerosti olamiga tushardi. "Ziku" – hayot nafasini bildirgan va insonning yashash quvvatini ifoda etgan. Bu tushuncha ruhning materiya bilan bog'lanishini aks ettirgan.

Mesopotamiya manbalarida "nafs" (ya'ni insonning ichidagi egoistik xohishlar) tushunchasi o'zining qadimiy yaratilganlik va diniy shartlar bilan bog'liq. Shuning uchun, nafs haqidagi tushuncha ham diniy, axloqiy va falsafiy tarzda ifodalangan. Masalan, Mesopotamiyaning o'ziga xos yozma manbalarida inson o'z xohishlarini ilohiy buyurishlarga, adolatga, yoki jannatga yoki yomonlikka qarama-qarshi holatlarga moslashtirishi kerak ekanligiga e'tibor qaratilgan. "Epos" yoki "Namroud" kabi adabiyotlarda insonning nafsini erkinlikka olib kelish yoki uning zararli kuchlariga qul qilishi mumkinligi bayon etilgan. Mesopotamiya manbalarida "nafs" (ya'ni insonning ichki xohishlari, ruhiy holatlari yoki egoistik manfaatlari) tushunchasi ko'pincha diniy va axloqiy kontekstda ifodalangan. Mesopotamiyaning qadimiy madaniyatida, ayniqsa shumer va akkad xalqlarida, insonning ichki dunyosi, jumladan, uning xohishlari, his-tuyg'ulari va vafo doirasidagi ijtimoiy

munosabatlari muhim o‘rin tutadi.

Diniy manbalarda Mesopotamiyaning diniy ta’limotlarida nafs ahloqiy tartibni buzish yoki ilohiy qarorlardan chetlashish bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarda aniq ifodalanadi. Masalan, shumer va akkad ibodatlarida insonning nafsining qo‘lga olinishi, ya’ni ichki xohishlarning faqat ilohiy hokimiyatga va adolatga bo‘ysunishga yo‘naltirilishi talab qilingan.

Mesopotamiyaning eposlarida, masalan, “Gilgamesh” eposida, insonning nafsining tabiiy egoistik instinktlari va uning ma’naviy rivojlanishga yo‘nalishdagi muammolari haqida so‘z boradi. Gilgamesh va unga do‘sti Enkiduning harakatlari nafsning o‘zaro munosabatlardagi rolini ko‘rsatadi”[7]. Gilgameshning yashash va abadiylikni izlashda nafs istagi ustunligi va insoniylik o‘rtasidagi o‘zaro kurash nazarda tutiladi. Mesopotamiyada axloqiy me‘yorlar ko‘pincha insonning nafsini to‘g‘ri yo‘naltirish, adolat va rahm-shamofatga asoslangan bo‘lib, ko‘pincha ijtimoiy va diniy tartibni saqlashga e’tibor qaratiladi. Misol uchun, davlat ishi va shaxsning nafsini eng avvalo jamiyatga zarar yetkazmaslik uchun qarorlar qabul qilishda axloqiy mas’uliyat belgilangan. Mesopotamiya manbalarida “nafs” tushunchasi, asosan, insonning ichki xohishlari va ehtiyojlarini ijtimoiy va diniy kontekstda to‘g‘ri yo‘naltirishga, ma’naviy rivojlanishga va jamiyatda adolatni ta’minlashga qaratilgan edi.

Qadimgi Hindiston falsafiy maktablarida nafs (ya’ni, “ruh”, “shaxsiy manfaatlar” yoki “insonning ichki hissiyoti”) tushunchasi turli xil yo‘nalishlarda talqin qilingan. Har bir maktab nafs tushunchasiga o‘z qarashlari va prinsiplari orqali yondashgan. Qadimgi Hindiston diniy ta’limotlarida (hinduizm, sikhizm, va buddizm) “nafs” tushunchasi har bir an‘ananing metafizik, axloqiy va ruhiy dunyoqarashlariga mos ravishda o‘zgacha talqin qilinadi. Bu tushuncha insonning ichki dunyosi, xohishlari va ruhiy holatlariga tegishli bo‘lib, har bir falsafiy maktablar va diniy ta’limotlarda nafsni anglash va boshqarish insonning ezgu hayotga erishishida muhim omil sifatida qaralgan. Chorvaka Lokayata, Sankhya, Nyaya va Vayshisheka maktablarida nafs tushunchasining mohiyati ma’lumotlar aynan nafs tushunchasini to‘liq anglatmagan bo‘lsa-da umumiy ma’nodagi ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Chorvaka Lokayata maktabi, asosan, eramizdan oldingi I asrda tashkil topgan. U Hindistondagi “Lokayata maktabi materialistik dunyoni tushunishga va uning haqiqatlarini ta’riflashga intiladi. Uning asosiy tamoyillari orasida sezgilarga asoslangan bilim va insonning moddiy hayotiga e’tibor berish muhim ahamiyatga ega. Ular nafsni alohida, metafizik birlik sifatida qabul qilmaganlar” [8]. Nafs faqat jismoniy tana va ongning maxsuli deb qaralgan. Ularga ko‘ra, nafs tana va to‘rt unsur (er, suv, olov, havo)ning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi deb hisoblagan. Chorvaka Lokayata nafsning abadiyligi yoki qayta tug‘ilishi konsepsiyasini rad etadi.

Sankhya maktabi – Hind falsafasidagi eng qadimiy va mashhur maktablardan biridir. Ushbu ta’limotning asosiy g‘oyalari orasida insonning ma’naviy taraqqiyoti va uning mantiqiy izchilligi, jumladan nafs tushunchasi,

muhim o‘rin tutadi. Sankhya falsafasida nafs “purusha” deb ataladi, bu esa, tug‘ilish va o‘limdan mustaqil bo‘lgan hayotiy energiya yoki ma’naviy tamoyilni anglatadi. “Purusha” bevosita faqat ilm, aql va ma’naviy komilikning manbai hisoblanadi, va u faqat o‘zining oliy maqsadiga – asliga qaytishga intilgan. “Sankhya maktabining falsafiy qarashlari tabiatan dualistikdir. Bu yaxshilik va yomonlikning dualizmi emas, balki ruh va materiya o‘rtasidagi tub farqdir. Ikkalasi ham abadiyatda mavjud va cheksiz elementlardir. Dunyo materiya evolyusiyasi natijasidir. Biroq, ruh o‘zgarmasdir. Ruh materiya asirligida bo‘lgani uchun azob chekadi, ammo bu illyuziyadir. Ruh o‘zining moddiy dunyoning bir qismi emasligini anglab yetgach, u ozod bo‘ladi. Materiya rivojlanib borar ekan, u o‘limdan omon qoladigan va ko‘chib o‘tadigan aql, shaxsiyat, his- tuyg‘ular, axloqiy xarakter, iroda sifatida rivojlanadi”[9]. Sankhya maktabida nafs va materiya (prakriti) o‘rtasida aniq farq bor. “Materiya (prakriti) har qanday xolatga kelishi mumkin bo‘lgan, o‘zgaruvchan va shakllana oladigan jismlardir. Ruh esa o‘zgarmas, u bu dunyodan mustaqil bo‘lib, hayotning oliy maqsadi unga yetgan kishilarning nafslari dunyo materiyasi ta’sirlaridan ozod bo‘ladi.

Nyaya maktabi – Hind falsafasining yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning asosi diniy va ma’naviy omillardan tashqari, aniq mantiqqa asoslangan. Nyaya maktabi falsafasida nafs tushunchasi aniq va ta’sirchan ravishda talqin qilinadi. “Nyaya falsafasida nafs asosan insonning ma’naviy tabiati va aslini tashkil etuvchi ruhiy o‘zlik sifatida tushuniladi. U bu yerda “atman” yoki “purusha” sifatida ifodalanadi, ammo nafs va uning darajalari insonning ruhiy holati va ma’naviy taraqqiyotiga bog‘liq”[10] – deb hisoblangan. Nyaya maktabida nafs haqidagi tushuncha, ruhiy xosiyatlardan tashqari, hayotiy qarorlar va tafakkurga asoslanadi. Atmanning asosiy maqsadi – bilim va xulosalar orqali o‘zining haqiqiy tabiatiga qaytish va nafsning haqiqiy manbasini anglashdir. Inson nafsni bilmasdan o‘z maqsadiga erisholmaydi. “Nyaya maktabida nafs haqiqiy bilim orqali tushuniladi va bu bilim o‘zgaruvchan dunyo va uning hodisalari bilan bog‘liq bo‘ladi. Nyaya maktabida nafsning haqiqiy tabiati – ilm orqali kashf etiladi”[11]. Nyaya maktabi falsafasida nafs, urushlardan, taxminlardan, xayoliy tushunchalardan tozalangan ruhiy va mantiqiy birlik sifatida qaraladi.

Vaysheshika maktabi Hind falsafasining yirik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u asosan materia va uning turli shakllariga e’tibor qaratadi. Vaysheshika falsafasida nafs tushunchasi boshqa maktablarga nisbatan ancha boshqacha talqin qilingan, chunki bu maktabda asosan materia va uning tuzilishiga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Shuning uchun nafsni ham materia bilan bog‘liq bo‘lgan bir maqsadiga erishish uchun oliy ruhiy maqsad sifatida qarashadi. Vaysheshika maktabida “nafs” (atman) konsepsiyasi ham shu maktabning universal falsafiy munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lib, insonning ma’naviy taraqqiyoti va abadiylikka erishishdir. Bu maktabda nafs – bevosita asl tabiati bilan mustaqil, abadiy va mukammal bir o‘zlik sifatida tasavvur qilinadi”[12]. Vaysheshika maktabida nafs faqat haqiqiy bilim va ma’naviy taraqqiyot orqali

o'ziligini topadi. Nafsning axloqiy salohiyati, uning ob'ektiv mantiqiy bo'lishini belgilaydi. Ya'ni, nafs o'ziga xos abadiylikka va barqarorlikka erishishi uchun axloqiy qoidalarga asoslangan harakatlarni amalga oshiradi.

Qadimgi Hindiston diniy ta'limotlari (hinduizm, buddizm va sikhizm) da "nafs" tushunchasi keng yoritib berilgan bo'lib, har bir an'ananing metafizik, axloqiy va ruhiy dunyoqarashlariga mos ravishda o'zgacha talqin qilinadi. Bu tushuncha insonning ichki dunyosi, xohishlari va ruhiy holatlariga tegishli bo'lib, har bir ta'limotda nafsni anglash va boshqarish insonning ezgu hayotga erishishida muhim omil sifatida qaralgan.

Hinduizmda nafs "atman" tushunchasi orqali talqin qilinadi. Atman – bu insonning ichki, abadiy va haqiqiy "Men"i hisoblanadi. Hinduizmda atman oliy haqiqat (Braxman) bilan bog'liq bo'lib, nafsning asosiy vazifasi – "illyuziyalar ("mayya" – sanskritcha dunyoning asl mohiyatini yashiradigan va uning ko'rinishlarining xilma-xilligini ta'minlovchi energiya)" va xohishlardan ("kamana" – sanskritcha zavq, shahvat va ehtiros)dan ozod bo'lib, o'zining Braxman bilan birligini anglashdir. Shunday qilib, nafsning yuksalishi va kamolotga yetishi ("reinkarnatsiya" [13] – ruhlarning ko'chishi) jarayonida karma qonunlari asosida sodir bo'ladi. Insonning ichki ehtiyojlari va tuyg'ularini, insonning ishtiyoqlarini, xohishlarini va u yoki uning hissiy holatlarini ifodalagan tushuncha hisoblanadi. Nafs odamning aniq maqsadi va orzulari bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha uning illat va yo'ldan adashishini izohlaydi. Hinduizmda nafs tushunchasi, eng avvalo, insonning ichki hayoti va ruhiy taraqqiyotiga ta'sir etuvchi kuch sifatida tushuniladi. U yaxshilik va yomonlik o'ratasidagi kurashda namoyon bo'ladi. Nafsning destruktiv tomoni, ularning o'z xohishlarini tatbiq qilish uchun insoniy insofni yo'qotishga va ego (men) bilan bog'lanishga olib keladi.

Buddizmda nafs tushunchasi an'anaviy ma'noda inkor etiladi. Bu ta'limotda "anatta" (nafsning yo'qligi) tamoyili mavjud bo'lib, unga ko'ra insonning shaxsiyati doimiy va abadiy "Men"ga ega emas. Budda ta'limotida inson beshta "skandxa" – shaxsning o'ziga xosligi ("rupa" – shakl, "vedana" – sof tuyg'ular, "sannya" – hissiy idrok, "sankhara" – iroda, "vinnana" – bilish ong)[14] aynan mana shu beshlik "men"ni ifodalash majmuasi deb hisoblangan. Buddizmda nafsga oid xohishlar, "dukkha" – azob-uqubat manbai deb qaralgan. Nafsni yengish, xohishlarni nazorat qilish va ongni yuksaltirish nirvanaga erishish yo'li sifatida ko'rsatib berilgan.

Nafs tushunchasini, "Anatmavada", "Moksha", "Chetana", "Karma" va "Nirvana" kabi tushunchalar o'zaro dialektik aloqadorlikda rivojlanadi, har biri o'z o'rnida – insonning ichki hotirjamligi, ma'naviy taraqqiyoti va ozodlikka erishishida zinapoya vazifasini bajaradi. Buddizmda "Anatmavada" – bu inson shaxsiyatida, jism, ruh va hislarning tug'ilish va o'lim siklida barqaror va abadiy mavjud emasligini anglatadigan atama hisoblanadi. Buddizm ta'limotida qayta tug'ilish va o'lim siklida ruhning vafotidan keyin har xil qiyofada tug'ilishi tufayli nafsning aniq mohiyati mavjud emas deb hisoblangan. Insonning shaxsiyatini tashkil etuvchi komponentlar (ruh, ong,

iroda va idrok va hokazo)ning bir-biri bilan o‘zaro nisbatli harakat qilishi deb baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Buddizmda “Moksha” – insonning keraksiz xohishlari va ularning aloqalaridan ozod bo‘lgan holati deb baholanadi. Bu holat Nirvanaga erishishning bir shakli bo‘lib, nafsning tasavvuriy, egoistik va doimiylikidan ozod bo‘lish holatidir. Moksha – nafsning yo‘qligiga ishongan holda insonning aniq va haqiqiy ozodlikka intilishining natijasidir. “Chetana” (niyat yoki ixtiyor) – buddizm ta’limotida, insonning harakatlari, amallari, niyatlari va ishtiyoqlarini anglatadi. Chetana insonning ishtiyoqlari, ehtiyojlari va umidlarining yo‘nalishini belgilaydi. Agar insonning niyatlari ijobiy bo‘lsa, ular yaxshi amallar va karmani shakllantiradi, agar yomon bo‘lsa, yomon illatlarning shakllanishiga olib keladi. Nafsning mavjud emasligini anglatadigan Anatta qarama-qarshi shakllangan, buddizmning kategorial tushunchasi sanaladi.

Karma – “insonning harakatlari va amallari, ularning natijalari bilan bog‘liq qonun”[15]. Nafsning aniq o‘zgarishlari va xulq-atvorlari karmani tashkil etadi. Har qanday karma insonning nafs va ehtiyojlaridan kelib chiqadi, va bu nafsni pozitiv yoki destruktiv shaklda taraqqiy etadi. Shuning uchun, buddizmda nafsni yo‘qotish va ruhiy taraqqiyotga erishish uchun ishtiyoqni, karma qonunlari doirasida boshqarish muhim hisoblanadi.

Nirvana – Buddizmda eng oliy maqsad, ya’ni insonning g‘am-anduhlardan ozod bo‘lib, mutlaq osoyishtalikka erishishidir. Nirvanaga erishish nafsning yoki egoning yo‘qligiga, ehtiyojlar va xohishlardan ozod bo‘lishga asoslangan.

Sikxizmda – ““ego” yoki “ahamkar” markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi va insonning ruhiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omil sifatida ko‘riladi”[16]. Nafs bu insonning shaxsiy manfaatlarni boshqalarnikidan ustun qo‘yish va dunyoviy xohishlarga berilish bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchadir. Sikxizm ta’limotida nafsdan qutulish, Xudoga yaqinlashish va ruhiy ozodlikka erishishning muhim sharti hisoblanadi. Har uchala ta’limotda ham nafs insonning ruhiy kamolotga erishishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hinduizmda nafsni anglash, buddizmda nafsni yo‘qotish va sikxizmda egoni yengish orqali inson o‘zini mukammallashtirish va ezgu maqsadlarga yetishi deb qaralgan.

Qadimgi Xitoy falsafasi va diniy qarashlarida nafs tushunchasini insonning ichki va tashqi holatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan. Lao Szi va Konfutsiy ta’limotlarida nafsga munosabat turli jihatlarda namoyon bo‘ladi, ammo ular umumiy ma’noda insonning axloqiy, ruhiy va jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradigan voqeilik sifatida talqin qilgan. Lao Szi –

Daoizmning asoschisi, uning ta’limoti tabiat qonuniyatlari va Dao (yo‘l yoki bosh manba) tushunchasiga asoslanadi. Lao Szi nafsni yengishni va tabiiy holatga yaqinlashishni ta’kidlaydi. “Nafsni qo‘zg‘atuvchi hirs va xohishlarni yengib o‘tish orqali inson Dao bilan uyg‘unlikka erishadi deb hisoblaydi”[17].

Uning fikricha, “Vu vey” (harakatsizlik yoki kuch ishlatmaslik) tamoyillari yordamida nafsni nazorat qilinadi. Inson nafsidan ozod bo‘lganda tabiat qonuniyatlariga muvofiq harakat qiladi va haqiqiy baxtga erishadi.

Tahlil va natijalar. Konfutsiy ta’limoti asosan axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy tartib va odoq-axloq normalariga e’tibor qaratadi. “Konfutsiy inson nafsini axloq-odob orqali nazorat qilishga chaqirgan. Nafsga bo‘ysunmaslik insonning yuksak fazilatlariga ega bo‘lishini ta’minlaydi”[18]. Masalan, “Jen” (insoniylik), “I” (adolat) va “Li” (odob-axloq) kabi tushunchalar nafsni boshqarishning asosiy tamoyillari hisoblanadi. Nafsni nazorat qilish orqali inson o‘zini va jamiyatni takomillashuviga erishadi. Konfutsiyning ta’limotiga ko‘ra, nafsni tarbiyalash orqali inson jamiyatdagi vazifalarini ado etib, uyg‘unlikka erishadi.

Xitoydagi diniy qarashlar (asosan daoizm va buddizm ta’sirida) nafsni insonning ruhiy holati va tabiatga moslashuvi nuqtai nazaridan baholaydi. Xitoydagi buddizm nafsni insonning azoblanish sababi sifatida ko‘radi. Hirs, nafrat va nodonlik nafsning salbiy taraflari sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, ulardan qutulish orqali inson nirvanaga yetadi. Har ikkala dinda ham nafsni tark etish yoki uni yengish orqali inson tabiat va koinot qonuniyatlari bilan uyg‘unlikka erishishi ta’kidlanadi. Lao Szi nafsni tabiat qonuniyatlari bilan uyg‘unlashtirishni, Konfutsiy esa uni ijtimoiy va axloqiy normalar bilan nazorat qilishni tavsiya etadi.

Zardushtiylik dinida “nafs” tushunchasi alohida va o‘ziga xos tarzda talqin etiladi. Bu dinda nafs ma’naviy va axloqiy mazmunga ega bo‘lib, insonning ichki olami, axloqiy tanlovlari bilan chambarchas bog‘liq. Zardushtiylikda nafs asosan ezgulik va yovuzlik kuchlar o‘rtasidagi kurash kontekstida namoyon bo‘ladi. “Zardushtiylik dinida dunyo ikki asosiy kuchga – Axuramazda (ezgulik, nur) va Axriman (yovuzlik, zulmat) kuchlariga bo‘linadi. Inson nafsini ana shu ikki kuch o‘rtasidagi kurashning maydoni deb qaraladi”[19]. Inson o‘ziga berilgan ixtiyor vositasida qaysi tomonni tanlashiga qarab ma’naviy kamolotga yoki tanazzulga yuz tutadi. “Zardushtiylikda nafsning asosiy vazifasi – yaxshilikka intilish. Bu yaxshilikni amalga oshirishda insonning ruhiy barkamolligi, sof qalbliligi va adolatli ishlarda qatnashishi muhim sanaladi. Zardushtiylik odamlarni ezgulikka, yaxshilikka da’vat etuvchi ilohiy imdod, ruhiy ma’naviy chaqiriq sifatida dunyoga yuz tutdi”[20]. Nafsning pokligi va ezgulikka yo‘naltirilishi Axuramazdaning irodasini ro‘yobga chiqarish sifatida qabul qilinadi.

“Inson Zardushtiylik qarashlarining tayanchi hisoblanadi. Ezgulik va yovuzlik muammosi inson fe’l-atvori, qarashlari, xatti-harakatlari doirasidan chiqib, yaxlit jamiyat mohiyatini qamrab oladi. Natijada, ezgulik va yovuzlik kategoriyasi

falsafiy tushunchaga aylanib, ijtimoiy mohiyat kasb etadi. Umuman olganda, «Avesto» falsafasi olamga tub axloqiy kategoriyalar orqali qaraladi va kishilik jamiyatini ana shu o‘lchovlar asosida rivojlantirish g‘oyasini ilgari suradi”[21].

Axriman inson nafsiga yomon xislatlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Hasad, manmanlik, yolg'ochilik kabi xislatlar nafsni zaiflashtirib, insonni ma'naviy inqirozga yetaklaydi. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, inson doimo bu vasvasalarga qarshi kurashishi kerak. Zardushtiylikda inson nafsida yaxshilik va yomonlik o'rtasida tanlov qilish imkoniyati borligi qayd etilgan. Bu tanlov insonning shaxsiy mas'uliyatini belgilaydi. Axloqiy jihatdan to'g'ri tanlovlar nafsning kamolotga erishishiga yordam beradi. Zardushtiylikda nafsni tozalashning uch asosiy yo'li mavjud: ezgu fikr (humata), ezgu so'z (hukta), ezgu amal (hvarshta). Bu uchlik insonning nafsini poklash va uni ma'naviy yuksalishga yetaklashda asosiy qadamlar hisoblanadi. Zardushtiylikda "nafs" ichki ma'naviy kurashning markaziy nuqtasi hisoblanadi.

Markaziy Osiyo o'zining ma'naviy jihatdan rang-barangligi bilan ajralib turadigan jahon madaniyati o'chog'i hisoblanadi. Ushbu madaniyat o'chog'ida Moniylik va Mazdakiylik ta'limotlari ham tarixning ajralmas qismi sifatida vujudga keldi. Moniylik va Mazdakiylik ta'limotlarida nafs o'ziga xos tarzda izohlanadi va insonning ruhiy yuksalishini ta'minlovchi asosiy omil sifatida baholangan. Moniylik – 3-asrda Moniy tomonidan yaratilgan diniy-falsafiy ta'limot bo'lib, dualizm (yaxshilik va yomonlikning kurashi) asosiga qurilgan. Moniylikka ko'ra, "inson nafsida ikki qutb mavjud – nur (ruhiy poklik), zulmat (moddiylik va nafsoniy xohishlar)"[22]. Insonning asosiy vazifasi nafsni nur yo'liga burish, yomonlikdan voz kechib, poklanish hisoblanadi. Nafs – zulmat quvvatlari sifatida hirs, ochko'zlik va shahvoniy xohishlar hisoblanib, ular nafsni quyi darajaga tushiradi. Ularni yengish orqali inson ma'naviy komillikka intiladi. Nafsni boshqarish va zulmatdan ozod bo'lish orqali inson o'zining haqiqiy ma'naviy kamolotiga erishadi, bu esa unga ruhiy poklik olamiga qaytish imkoniyatini yaratadi.

Mazdakiylik – 5-6-asrlarda Mazdak tomonidan rivojlantirilgan diniy va ijtimoiy oqim bo'lib, Zardushtiylik ta'sirida shakllangan. Mazdak ta'limotida "nafs" – insonning shaxsiy xohishlari bilan jamoat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash asosiy vazifa sifatida baholangan. "Mazdakning fikricha, shaxs meni tarbiyalanmasa, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikka sabab bo'ladi deb hisoblagan. Nafsni yuksaltirish tamoyillari sifatida shaxsiy nafsoniy xohishlarni nazorat qilish va moddiy boyliklarni adolatli taqsimlash nazarda tutilgan"[23]. Nafsni isloh qilish orqali inson nafaqat o'zining, balki jamiyatning ham manfaati uchun harakat qiladi.

Bu yo'lda nafs adolat va ijtimoiy barqarorlikning kafolatiga aylanadi.

Xulosa va takliflar.

Birinchidan, Misrda nafs tushunchasi ko'pqirrali bo'lib, ruhni saqlashga va uning o'limdan keyingi mangu hayotiga ishonish kuchli bo'lgan. Ularda ruhning mukammallashishi va manguликka erishish muhim sanalgan.

Mesopotamiyada esa, nafs tushunchasi realistlik, qiyinchiliklarga yo'g'rilgan bo'lib, ruh yerosti olamida yashashda davom etishi haqidagi tushuncha ko'proq hukmronlik qilgan. Albatta, bu farqlar har bir

madaniyatning dunyoqarashi, dini va hayotga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Ikkinchidan, Qadimgi Xitoy falsafasida nafs tushunchasi insonning ruhiy, axloqiy va tabiat bilan uyg'unlikka erishish jarayonining markaziy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Uchunchidan, zardustiylikda nafs axloqiy tarbiya, ma'naviy yuksalish va insoniy qadriyatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Zardushtiylik ta'limoti inson nafsini yaxshilik va adolat yo'lida safarbar etishni maqsad qiladi. To'rtinchidan, Moniylik nafsni nur va zulmat o'rtasidagi kurash sifatida ko'rib, insonning ruhiy yuksalishini asosiy axloqiy maqsad deb hisoblagan. Mazdakiylik esa nafsni ijtimoiy adolat va tenglik nuqtai nazaridan baholab, shaxsiy manfaatlarni, jamoat manfaatlariga bo'ysundirishni ta'kidlaydi. Har ikki ta'limotda ham nafs insonning ichki va tashqi uyg'unligiga erishish yo'lidagi asosiy vosita sifatida ko'rsatiladi.

Tavsiyalar.

Birinchidan, Sharq falsafasida esa hind Vedalarini, Zardushtiylik va buddizm qarashlarini tahliliy o'rganish lozim shunda mavzuga yondashuvda bir tomonlama fikrlashga chek qo'yiladi.

Ikkinchidan, turli madaniyatlarda nafs tushunchasi: Islom, xristianlik va yahudiylkdagi qarashlarni o'zaro qiyoslash, Sharq va G'arb dinlarida nafs yoki ruh haqida qarashlarni aniqlashtirib olish zarur.

Uchunchidan, G'arb falsafasida ruh (soul) tushunchasi va Sharq falsafasida nafs tushunchasini o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratish kerak. To'rtinchidan, Nafsni anglash va tarbiyalash orqali shaxsiy va jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga erishish yo'llari anglaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Тарасенко Н.А. Папирусный свиток на виньетках древнеегипетской Книги мёртвых. – Киев: Ин-т востоковедения им. А. Е. Крымского НАН Украины, 2018 – С.17.

2.Taylor, John H. Ancient Egyptian Book of the Dead: Journey through the afterlife (англ). – London: British Museum Press, 2010.

3.Myuller-Roth, Marcus. The Book of the Dead Project: Past, present and future (англ.) // British Museum Studies in Ancient Egypt and Sudan. – 2010. – Vol. 15. – P. 189.

4.Taylor, John H. Ancient Egyptian Book of the Dead: Journey through the afterlife (англ). – London: British Museum Press, 2010.

5.Древнеегипетская «Книга Мёртвых». Перевод с древнеегипетского, введение и комментарии – М.А. Чегодаев// Вопросы истории. 1994. № 8. С. 145 – 163.

6.Франкфорт Г. А., Уилсон Дж. А., Якобсен Т. В преддверии философии: духовные искания древнего человека. Before Philosophy. The Intellectual Adventure of Ancient Man. – М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 2004. – С. 116.

7.Abusch T. Gilgamesh: Hero, King, God and Striving Man // Archaeology Odyssey 3, no. 4 (July/August 2000), pp. 32–42, 58–59.

8.Выршиков Е.Г. Локаята и локаятики в древних источниках (палийский канон и «Артхашастра») Институт востоковедения, РАН // Ориенталистика. 2019 Том 2. № 2. 269-287.

9.Брайан У.Р. Религиозная терпимость и Религиозное многообразие. – Лондон.: «Оксфордский Университет», 1995. – С.20-21.

10.Шохина В.К. Ньяя-сутры. Ньяя-бхашья / Историко-философское исследование. пер. с санскрита и коммент. – М., 2001.

11.Шохина В.К. Школы индийской философии. Период формирования IV в. до н. э. – II в. н. э. – М., 2004. – С.213.

12.Лысенко В. Г. «Философия природы» в Индии: атомизм школы вайшешика. – М.: “Наука ГРВЛ”, 1986. –С.141.

13.Reincarnation – лотинча re – олд кўшимча “қайта бошлаш, такрорлаш”, маъносини англатади, incarnation – мужассамлашиш.

14.Лысенко В. Г. Скандхи // Индийская философия: Энциклопедия / под ред. М. Т. Степанянц. – М.: Восточная литература; Академический проект; Гаудеамус, 2009 – С.743-748.

15.Кэрритерс М. Моральное значение стремлений // Будда: краткое введение. – М.: «Астрель: АСТ», 2007. – С.105-111.

16.Индуизм. Джайнизм. Сикхизм: Словарь Под общ. ред. Альбедиль М.Ф. и Дубянского А.М. – М.: “Республика”, 1996. – С. 98-111.

17.Хаврак А.П. Философия учебное пособие. Издание второе, переработанное и дополненное. – М., 2005. – С.24-27.

18.Конфуций. Уроки мудрости: [Сочинения]: пер. с древнекит. / сост., вступ. ст. и коммент. М. А. Блюменкранца. – М.: “Эксмо-Пресс”, 2014. – С.129- 143.\

19.Авесто: Яшт китоби. / М. Исҳоқов таржимаси. – Тошкент.: «Шарқ», 2001. – Б.110-121.

20.«Авесто». Тарихий-адабий ёдгорлик. А. Маҳкам таржимаси. – Тошкент.: “Шарқ”, 2001. – Б.6.

21.«Авесто». Тарихий-адабий ёдгорлик. А. Маҳкам таржимаси. – Тошкент.: “Шарқ”, 2001. – Б.13-14.

22.Ретунский В.Н. Монизм // История философии: Энциклопедия / Гл.ред. Грицанов А.А. – Минск.: “Интерпрессервис Книжный Дом”, 2002. – С 1376.

23.Daryaei, “Mazdak and Late Antique Socialism”, in Cambridge History of Socialism, Bd. 1, Cambridge 2022, pp. 39–55.

11.00.00 - GEOGRAFIYA FANLARI**FARG‘ONA VODIYSI VOHA LANDSHAFTLARI VA ULARNI
TADQIQ ETISH MASALALARI*****K.M. Boymirzayev******Geografiya fanlari doktori, professor******University of Business and Science******k.boymirzayev@ubsu.uz***

Annotatsiya: Maqolada Farg‘ona botig‘idagi mavjud vohalardagi ekologik, geoeologik va landshaftlarni muhofaza qilish masalalariga oid olib borilayotgan tadqiqotlar va o‘rganilayotgan hududlardagi mavjud muammolarni barataraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Voha, agroirrigatsion yotqiziq, daryo yoyilmasi, antropogen, landshaft kompleksi, geoeologiya, ekologik vaziyat, agrolandschaft.

**ФЕРГАНСКАЯ ДОЛИНА ОАЗИСНЫЕ ЛАНДШАФТЫ И
ПРОБЛЕМЫ ИХ ИССЛЕДОВАНИЯ**

Аннотация: В статье освещены текущие исследования по экологическим, геоэкологическим и ландшафтно-охранным вопросам в существующих оазисах Ферганского бассейна и информация о мерах, направленных на устранение существующих проблем на изучаемых территориях.

Ключевые слова: Оазис, агроирригационное месторождение, речное распространение, антропогенный, ландшафтный комплекс, геоэкология, экологическая ситуация, агrolandschaft.

**FERGANA VALLEY OASIS LANDSCAPES AND ISSUES IN
THEIR RESEARCH**

Abstract: The article covers the ongoing research on ecological, geoecological and landscape protection issues in the existing oases in the Fergana Basin and information on measures aimed at eliminating existing problems in the studied areas.

Keywords: Oasis, agroirrigation deposit, river spread, anthropogenic, landscape complex, geoecology, ecological situation, agrolandscape.

Kirish.

Keyingi yillarda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida “inson-tabiat” o‘rtasida munosabatlar natijasida vujudga kelayotgan turli tabiiy va antropogen jarayonlarga doir tadqiqotlarga katta e‘tibor berib kelinmoqda. Kishilik jamiyatini tabiiy resurslar bilan ta‘minlash maqsadida landshaftlardan intensiv foydalanilayotganligi sababli tabiiy muhitda o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bunday o‘zgarishlarga sug‘oriladigan yerlarning texnogen buzilishi, cho‘llanish jarayonlari natijasida cho‘llar maydonini o‘zgarishi,

tuproq va ekin yerlarining meliorativ holatini yomonlashishi, erozion jarayonlarni kuchayib borishi, tuproq va o'simlik degradatsiyasi kabi salbiy tabiiy geografik jarayonlarning tezlashishi kuzatilmoqda. Bu muammolarni oldini olish va ularga qarshi kurashishga xalqaro tashkilotlar ham katta e'tibor bermoqda. Jumladan, BMTning «2030 yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturi» «quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, o'rmonlardan ratsional foydalanish va boshqarish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasini to'xtatish va biologik xilmaxillik yo'qolishining oldini olish» kabi vazifalar belgilab berilgan [3].

Mazkur vazifalar ayniqsa, tabiiy namlik yetishmaydigan, arid iqlimli hududlarda, ayniqsa O'zbekistonning qurg'oqchil mintaqalarida landshaftlarning tabiiy resurs salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish, qishloq xo'jaligini, jumladan, dehqonchilik turlarini rivojlantirish, turli xo'jalik tadbirlarini amalga oshirishda funktsional-dinamik, strukturaviy-dinamik, paragenetik va paradinamik aloqadorlik tamoyillari asosida keng qamrovli tadqiqotlar olib borishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qishloq xo'jalik yerlaridan unumli foydalanish, daryolarning yoyilma landshaftlari, agroirrigatsion yotqiziqlar va ularning qalinlashib borish tendentsiyasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitning ifloslanishini, vohalarni ekologik vaziyatni optimallashtirish bo'yicha tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan ham olib borilmoqda.

Daryo yoyilmalaridagi voqa landshaftlari va sug'orish natijasida agroirrigatsion yotqiziqlarning vujudga kelishi hamda qalinlashib borishiga oid xorijiy mamlakatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy natijalar olingan, jumladan: voqa landshaftlari strukturasi saqlash, vohalardagi mavjud agroirrigatsion yotqiziq-lardan oqilona foydalanish va ularni optimallashtirish bo'yicha tizimli yondashuvlar ishlab chiqilgan (Environmental protection Research Institute, Shvetsiya); yirik infrastrukturali loyihalar va strategik ekologik tadqiqotlar bazasiga asosan vohalar tabiatidan samarali foydalanish va muhofaza qilishning metodik asosi rivojlantirilgan (Regional and ecological development institute, Leybnits; Institute of Enviromental, Myunxen, Germaniya); sugorish ta'sirida shakllangan yotqiziqlarning vujudga kelishida global va regional tabiiy hamda antropogen omillarning ta'siri, ularning davriyligi, rivojlanishining landshaftlar komponentlariga va barqarorligiga ta'sir ko'lami baholangan (Institute of Geographical Sciences, Pekin, Xitoy); yoyilmalar tabiiy muhitining global va regional o'zgarishini monitoring qilish tizimi ishlab chiqilgan (Institute of Geographu, Buyuk Britaniya); tuproqlar ba abiotik omillarninr ifloslanishi ba degradatsiyasira bog'liq holda atrof-muhitga keltirilgan zararlarni baholash (Moskva davlat universiteti, Rossiya, Qozoq-Turk universiteti, Qozog'iston) yo'l-yo'riqlari rivojlantirilgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimizda yerlardan xo'jalikning turli maqsadlarida foydalanishda, qishloq xo'jaligi yuritishda va landshaftlarda

meliorativ tadbirlarni olib borish, landshaftlarni gorizontaal va vertikal tabaqalanishini va ularning strukturasini funktsional-dinamik bir butunligidan foydalanib, mintaqalarni turli xo'jalik maqsadlarida tadqiq etib kelinmoqda. Tadqiqotlarni zamonaviy metodlarga tayangan holda olib borish, ularning mavjud imkoniyatlarini tahlil qilish, vohalardagi agroirrigatsion yotqiziqlarning mul'tifunktsional landshaft tahlilini amalga oshirish, tizimli baholash mezonlarini ishlab chiqish, yoyilma landshaftlarni mikrozonalashtirish asosida ekinlarni joylashtirish sxemasining takomillashtirishni ilmiy asosda hal etish yo'llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq [8].

Voha landshaftlarining turli omillarning ta'siri, vohalarda agroirrigatsion yotqiziqlarni vujudga kelishi va shakllanish qonuniyatlarini aniqlash, yoyilma landshaftlarning shakllanishi, tarqalishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, yirik va kichik yoyilmalarda hosil bo'lgan voha landshaftlari va ularning tadrijiy o'zgarishi, tog'oralig'i botiqlarini tabiiy geografik rayonlashtirish masalalari: prinsiplar, rayonlashtirishning zamonaviy metodlarini takomillashtirish, shuningdek, unumdor tuproqlardan sug'orma dehqonchilikni olib borishda samarali foydalanish hamda ularni muhofaza qilish, voha landshaftlarida antropogen omil ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlar va geoeologik muammolar, vujudga kelgan geoeologik vaziyatlarni optimallashtirishning geografik asoslarini yaratishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Tahlil va natijalar. Respublikamizda ham qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, har bir joyning tabiiy sharoitini hisobga olib qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish kabi masalalar dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlardan unumli foydalanish, dehqonchilik madaniyatini yuksaltirish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini intensiv oshirish, jahon bozoriga yuqori sifatli, ekologik jihatdan sof raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishda qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [3, 4]. Shuningdek, antropogen landshaftlar va ularning tarkibiy qismi hisoblangan voha landshaftlarini tadqiq etish, morfologik birliklarini ajratish, chegaralash, tasniflash hamda xalq xo'jaligining turli sohalari uchun kartalashtirish, agroirrigatsion yotqiziqlarning qalinlashib borish tendentsiyasi, yotqiziqlarning geokimyoviy tarkibini tahlil qilish, ulardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob'ektlari tarmoqlarini rivojlantirish» yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun, PF-5742-sonli «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida ham ushbu masalalar bo'yicha bir qator vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, Farg'ona botig'i voha landshaftlarida

sug'oriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko'lamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirish, voha landshaftlarining funktsional-dinamik bog'liqlikda tadqiq etish, ularni rayonlashtirish, geoeologik holatini aniqlash va ularni optimallashtirish, turli maqsadlarda foydalanish uchun kartalashtirishga doir maqsadli tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Jahonda sug'orilib dehqonchilik qilib kelinadigan yerlarga inson faoliyatining ta'sirini aniqlashga oid bir qator yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi, landshaftlarning yangi modifikatsiyalarini vujudga kelishi; antropogen ta'sir darajasini monitoring qilish va ekologik nazorat tizimini ishlab chiqish hamda takomillashtirish; antropogen ta'sir va global o'zgarishlarga landshaftlarning barqarorligini baholash; landshaftlarni funktsional bir butun tizim sifatida mel'tifunktsional tabaqalanishini o'rganishda geografik axborot tizimlaridan foydalanish; voha geosistemalarining alohida uchastkalarida landshaftlar transformatsiyalanishi, litologik va tuproq holatini o'zgarishini baholash; turli mavzuli geoeologik kartalarni tuzish; atrof-muhit ifloslanishini prognozlash va geoeologik holatni optimalashtirishning geografik asoslarini ishlab chiqish; voha geosistemalari tabiiy resurs salohiyatidan samarali foydalanish; geoeologik tadqiqotlarda matematik metodlarni va GAT texnologiyalarini qo'llash; voha geosistemalarining geoeologik holatini boshqarishda funktsional va tizimli yondashuvni rivojlantirish kabilardir [9].

Bu tadqiqot ishlarida hududlarning umumiy ekologik holati, ekologik vaziyatning keskinlashishini kuchaytiruvchi omillar, tuproq, suv, atmosfera havosining ifloslanishlari o'rganilgan, hududlarda ekologik vaziyatni o'rganishda sistemali va kompleks geografik yondashuvning afzalliklari yoritilgan. Vohalarda ekologik vaziyatning keskinlashib borishi antropogen yukning kuchayib borayotganligi bilan bog'liqligini mutaxassis olimlar asoslagan. Lekin, agroirrigatsion yotqiziqlarning qalinlik o'lchovi, antropogen yukning ta'sir darajasi, og'irlik ko'rsatkichlari hozirgacha xorijiy davlatlarda va respublikamizda biron voha misolida aniqlanmagan hamda kartalari yaratilmagan. SHu jihatdan olib borilayotgan tadqiqotlarga qo'yilgan vazifalar muammoga mutlaqo yangicha yondashuv hisoblanadi va Farg'ona botig'i voha landshaftlari funktsional-dinamik bir butunligi, uning mel'tifunktsional differentsiatsiyalanishini vujudga keltirish hozirgi kunda tadqiqotchilarning o'z oldiga qo'ygan asosiy g'oyalari hisoblanadi [5].

Farg'ona botig'i voha landshaftlarining asosiy qismi agrolandschaftlarga to'g'ri keladi. Agrolandschaftlar tuproq-ekologik sharoitini chuqur o'rganish vodiya dehqonchilik madaniyati qadimiy ekanligi va shunga mos ravishda agroirrigatsion yotqiziqlar hosil bo'lganligini ko'rsatadi. Ayni vaqtda bu agrolandschaftlarga bo'lgan antropogen ta'sirning noto'g'ri oqibatlari irrigatsion eroziya, tuproqlarning qayta sho'rlanish va botqoqlanishi, tabiiy o'tloqlar, o'simliklar va hayvon turlarini yo'qolib ketishi kabi

jarayonlarda o'z ifodasini topmoqda. Kimyoviy o'g'itlardan, ayniqsa zaharli va zararli o'g'itlardan uzoq yillar davomida surunkali foydalanib kelinganligi, tuproqlar tarkibida bir necha asrlar mobaynida vujudga kelgan agroirrigatsion yotqiziqlarning ham zaharlanishiga olib kelmoqda [7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"dagi Farmonida "Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish", "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish", "O'rmonlar maydonini kengaytirish" maqsadlarini o'z ichiga olgan alohida "Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish" yo'nalishining belgilab berilishi, keyingi yillarda shahar va qishloqlarda olib borilayotgan "Obod mahalla", "Obod qishloq" kabi davlat dasturlari bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijasida xorijdan yuzlab mevali va manzarali daraxtlar hamda gullarning kirib kelishiga ham sabab bo'ldi [2].

Voha landshaftlarining tarkibiy qismi hisoblangan agroirrigatsion yotqiziqlar kimyoviy elementlarga va organik moddalarga boy komponentlardan hisoblanadi. SHuning uchun ulardan oqilona foydalanish hosildorlikni oshirish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish va samaradorlikni yuqori darajaga ko'tarishda muhim tadbir hisoblanadi. Masalan, agroirrigatsion yotqiziqlar qalin (200 sm va undan ortiq) bo'lgan joylarda paxtadan 35-40 tsentner va undan ham yuqori hosil olish mumkin. Ammo bunday yerlarda bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish kutilgan samara beradi. Chunki qalin agroirrigatsion yotqiziqlar landshaftlardagi qishloq xo'jalik ekinlarini o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan chirindi hamda ozuqa elementlarini o'zida ko'p ushlab turadi, bu esa qishloq xo'jalik ekinlarining serhosil bo'lishiga olib keladi.

O'rta Osiyo hududi, xususan Farg'ona botig'i voha landshaftlarining keng tarqalganligi bilan ajralib turadi. Voha landshaftlarini tabiiy geografik rayonlashtirish landshaftshunoslik sohasida ham muhim ahamiyatga ega. Biz o'rgangan yirik yoyilmalar adirolldi cho'l rayoniga, mayda yoyilmalarning aksariyati esa adirolldi chala cho'l rayoniga mansubdir. Voha landshaftlariga aylanib ketgan bu yoyilmalar vohalarning joy tipidan iboratdir. Ular orasidagi farq cho'l va chala cho'l kabi iqlimiy xususiyatlarning saqlanib qolishi hamda tuproq-grunt sharoitining har-xilligi bilan belgilanadi [6].

Farg'ona botig'ining voha landshaftlari va ularda mavjud bo'lgan agroirrigatsion yotqiziqlarining vujudga kelishi, tarqalish qonuniyatlari, qalinlashib borish jarayonlari, ulardan oqilona foydalanish, landshaft komplekslarining tadrijiy o'zgarishi, tasnifi, tabiiy geografik rayonlashtirish kabi masalalarni tadqiq etish natijasida olingan ma'lumotlar hamda ularning tahlili ko'plab xulosalarga asos bo'ldi, jumladan:

Farg'ona vodiysi O'zbekistonning boshqa vodiylaridan tabiiy sharoiti hamda geotizimlarining kenglik va balandlik mintaqalanishiga mos holda

o'zgarishi natijasida landshaft komplekslarining xilma-xil bo'lishi bilan ajralib turadi. yoyilmalardagi qishloq xo'jalik landshaftlarida o'tkazilgan tuproq kesmalarini tahlil qilish natijasida agroirrigatsion yotqiziqlarning qalinligi xilma-xil bo'lishi, tabiiy geokomplekslarni antropogen omil ta'sirida o'zlashtirilishi bosqichma- bosqich amalga oshirilganligi aniqlandi. Agroirrigatsion yotqiziqlarning qalinlik o'lchovi shu yerda tarkib topgan voha landshaftlarini yoshini aniqlashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Agroirrigatsion yotqiziqlarning qalinlashib borishi sug'oriladigan antropogen landshaftlarni va ularning agrokomponentlarini madaniylashish darajasini belgilab beradi. Binobarin, Farg'ona botig'i antropogen landshaftlari tarkibida o'zlashtirish darajasiga ko'ra kuchli madaniylashgan, o'rtacha madaniylashgan va kuchsiz madaniylashgan voha landshaftlari hamda buzilgan antropogen landshaftlar mavjudligi bilan izohlanadi.

Agrolandschaftlarning tarkibiy qismi hisoblangan agroirrigatsion yotqiziqlar turli xil kimyoviy elementlarga va organik moddalarga boy komponentlardan hisoblanadi. Ulardan hosildorlikni oshirish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida oqilona foydalanish samaradorlikni oshirishda asosiy tadbir bo'lib xizmat qiladi. agroirrigatsion yotqiziqlar tarqalgan hududlarda ularning qalinligini hisobga olgan holda qishloq xo'jalik ekinlarini landshaft tiplariga moslashtirib joylashtirish hosildorlik darajasini oshishiga, eng muhimi landshaft–ekologik muammolarni ijobiy hal etishga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Farg'ona botig'ida joylashgan vohalar va daryolar yoyilma landshaftlarining funktsional-dinamik aloqadorligi va ta'sir etish mexanizmini aniqlash, vohalar va agroirrigatsion yotqiziq komponentlaridagi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va kartalari tuzishning ilmiy-metodik yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqilganligi hamda ularning rayonlashtirish, mikrozonalar differentsiatsiyalanishini aniqlash metodikasining takomillashtirilganligi, qishloq xo'jalik ekin turlarini optimal joylashtirish, tuproqlar sho'rlanishining oldini olish, geoeologik vaziyatni optimallashtirish mexanizmlarini yaratilganligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, Farg'ona vodiysida inson xo'jalik faoliyati natijasida vujudga kelgan landshaft komplekslarining tabiiyligini saqlab qolish va optimallashtirib borish lozim. Buning uchun esa quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: vohalarning multifunktsional landshaftlari va ulardagi agroirrigatsion yotqiziqlarining geografik tarqalishiga doir ma'lumotlarni mukammal o'rganish; vohalarning agroirrigatsion yotqiziqlaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilib borish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

vohalar landshaftlarini funktsional bir butunligi va ularning dinamik geotizim sifatida tadqiq qilishni yo'lga qo'yish;

landshaft komplekslarining tadrijiy o'zgarishini o'rganish va voha landshaftlari bilan taqqoslash ishlarini olib borish;

vodiy hududini tabiiy geografik jihatdan rayonlashtirish masalalari, voha landshaftlarini ekologik jihatdan optimallashtirish, geoeologik sharoitini yaxshilashning asosiy yoʻnalishlarini aniqlashga imkon beradigan va ilmiy asoslangan tadqiqotlarni yoʻlga qoʻyish,

olib borilgan izlanishlar natijasida yaratiladigan kartalar voha landshaftlarini boshqarishda, tabiatidan oqilona foydalanishni ilmiy asosda amalga oshirish yoʻllarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “2017 – 2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 январдаги ПФ-60- сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 октябрдаги ПФ- 5863-сонли “2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикаси атроф муҳитини муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июндаги ПФ – 5742 – сонли “Қишлоқ хўжалигида ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш чора – тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.

4. Абдулкасимов А.А., Боймирзаев К.М. Проблемы оптимизации экологического состояния антропогенных ландшафтов Средней Азии // education and Science for Sustainable Development. International Theoretical and Practical Conference. Tashkent, Uzbekistan. – 2016, 42 – 43 s.

5. Боймирзаев К.М. Фарғона ботиғи воҳаларидаги агроиригацион ётқизикларнинг мултифункционал ландшафт таҳлили // Докт. дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. - 58 б.

6. Максудов А. Изменение почвенно-экологических условий Ферганской долины под антропогенным воздействием. Ташкент; “Фан”, 1990. - 92 с.

7. Мильков Ф.Н. Физическая география: учение о ландшафте и географической зональности. - Воронеж, 1986. - 328 с.

8. Рафиқов А.А. Географик прогнозлаштириш асослари. - Тошкент. “Umid design” нашриёти, 2024 йил. - 244 б.

FARG'ONA VODIYSI ADIR MINTAQASI LANDSHAFT-EKOLOGIK SHAROITINI BAHOLASHNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

O.T.Mirzamahmudov

*Geografiya fanlari doktori, dotsent
University of Business and Science,
mirzamaxmudovodiljon@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg'ona vodiysi adir mintaqasi landshaft- ekologik sharoitini baholashning geografik xususiyatlari va ulardan samarali foydalanish xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan

Kalit so'zlar: Adir mintaqasi, adir landshaftlari, landshaftlarning tabiiy holati, geologik va geomorfologik tuzilishi, gidrotermik sharoit, tuproq va o'simlik qoplamining o'zgarish darajasi, insonning xo'jalik faoliyati, antropogen landshaftlarning ulushi va turi, landshaft-ekologik sharoit.

ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОЦЕНКИ ЛАНДШАФТНО- ЭКОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ АДЫРСКОГО РАЙОНА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация: В статье дана оценка состояния передгорных ландшафтов Ферганской долины в отношении их рационального использования

Ключевые слова: передгорные ландшафты, физическая состояния ландшафтов, геологическое и геоморфологическое строение, гидротермическое условие, степень изменение почв и растительного покрова, хозяйственная деятельность человека, доля антропогенного ландшафта и их типы, ландшафтно-экологическая условия.

GEOGRAPHICAL CHARACTERISTICS OF ASSESSMENT OF LANDSCAPE-ECOLOGICAL CONDITIONS OF ADIR REGION OF FERGANA VALLEY

Abstract: The article gives an assessment of the condition of the foothill landscapes of the Fergana Valley with respect to their rational use

Key words: pre-mountain landscapes, physical states of landscapes, geological and geomorphological structure, hydrothermal condition, soils and vegetation cover extent of change, man's dominant activity, types of anthropogenic landscape and their share, landscape-ecological conditions.

Kirish.

Farg'ona vodiysi adir mintaqasi landshafti resurslarining va intensiv qishloq xo'jaligi rivojlanayotgan joylardagi sharoitning baholanishi - bu geografiya fanining kam o'rganilgan muammolaridan biridir. Ushbu masalada baholash mezonlarini ishlab chiqish ko'plab va ko'p tomonlama bog'lanishlarni, tabiat va jamiyat orasidagi qonuniyatlarni bilishni taqozo etadi.

Bu masala landshaftshunoslik, geoeкологиya, tuproqshunoslik, gidrologiya, qishloq xo'jalik geografiyasi kabi yo'nalishlarning metodik asoslariga bog'liq umumiy yo'nalishni o'z ichiga oladi. Tog' oldi landshaftlaridan foydalanish va ularni o'zlashtirish muammolari xududlarni geografik jihatdan o'rganishni, baholashni va tahlil etishni, ayniqsa landshaftlarning litogen asoslarini, agroiklim, suv resurslari, tuproq, o'simlik qoplamlarini chuqur o'rganishni talab etadi [3].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Landshaftlar holatini baholashda juda ko'p usullar qo'llaniladi. Ulardan eng keng tarqalgani landshaft-ekologik yondashuvdir. Bu yerda landshaft-ekologik yondashuvining landshaft resurslaridan foydalanish asosida, A.G.Isachenko (1981), G.V.Gel'dieva (1986, 1989), A.A.Chibilov (1992) larning fikrlarini keltirib o'tish o'rinlidir. Jumladan, landshaftlarning tabaqalanish qonuniyatlarini hisobga olish (ya'ni zonallik, azonallik, regionallik); landshaftlar morfologik tuzilmasining hududiy shakllanishi; ajratilayotgan funktsional birliklarning ichki tuzilishini turli xil xolati; landshaft tuzilishini funktsional darajada optimallashtirish; turli funktsional ko'rsatmalar asosida hududlarning joylashishi sharoiti; landshaft ichidagi gorizonta va vertika bog'lanishlarni ob'ektiv baholash; geotizimlarning tabiiy va antropogen ta'sirlarga bo'lgan chidamliligini o'rganish va ekologik xavfni baholash; tabiiy tizimlarning hozirgi holatlarini baholash; texnogen ta'sir natijasida sodir bo'layotgan jarayon va shuningdek ekologik muammolar hamda ekologik holatning o'zgarish yo'nalishlarini aniqlash kabilardir[2,4,6].

A.G.Isachenko (1965) agrolandshtaftlardan foydalanish va o'zlashtirishning geografik asosini ishlab chiqqan. U mazkur ishlarida quyidagilarni hisobga olishni tavsiya etadi: landshaftlarning ichki tuzilishi rang- barangligini ta'minlash; joylar tuproq qatlamining asosiyiligini ta'minlash; hududlarning ma'lum qismini tabiiy holda saqlash [1].

V.M.Chupaxin (1970) agrolandshtaftlardan foydalanishning asosiy qoidalarini 6 ta qismga bo'ladi: 1. qishloq xo'jalik landshafti har xil bo'lishi lozim. 2. qishloq xo'jalik landshaftlarini rejalashtirishda landshaft morfologiyasini hisobga olish lozim va ularning tuproq va suvlari muhofazasiga katta e'tibor berish zarur. 3. Tabiiy o'rmon va daraxtzorlarni saqlash zarur. 4. Eng yaxshi ekin maydonlari qishloq xo'jaligiga berilishi kerak. 5. Agrolandshtaftlarni saqlashga va ularning meliorativ holatiga katta e'tibor berish kerak. 6. Ekologik muvozanatni tabiiy landshaftlarda saqlash uchun joylarning landshaft-ekologik holatlarini aniqlash lozim [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tarkib topgan turli geoekologik vaziyatlarni o'rganish, baholash va ular asosida xulosali natijalarni ishlab chiqish turli ilmiy tamoyil va usullarni qo'llashni taqozo etadi. Bu borada quyidagi ilmiy tamoyillarni qo'llash belgilangan maqsadga erishishga imkon beradi: tizimli tahlil, landshaft indikatsiya, landshaft yondashuvi, ekologik yondashuv, geoekologik, aerokosmik, kartografik va h. Adirlar tog' va tekislik mintaqalari orasida joylashganligi sababli uning landshaft-ekologik sharoitini

shakllanishida har ikki mintaqa muhim sanaladi. Jumladan, barcha suv havzalari tog'dan boshlanib adir orqali tekislikka tomon oqadi, uning oqimini vujudga kelishida ham har ikki mintaqa muhim o'rin tutadi. Lekin shunday bo'lsada adirlarning tabiiy geografik joylashuvi bilan bog'liq holda shu xudud uchun xos landshaft-ekologik sharoiti vujudga kelgan. O'zbekiston aholisi sonining ortishi ularning qishloq xo'jalik va sanoat mahsulotlariga bo'lgan talablarini ortishiga va adir mintaqasining o'zlashtirilishiga olib kelgan, hamda uning landshaft-ekologik sharoiti o'zgarishiga sabab bo'lgan. Adirlarda qishloq xo'jaligi, sanoat korxonalarini rivojlantirish uchun qulay agroiklim, tuproq, o'simlik qoplamlari, mahalliy xom ashyo va foydali qazilmalar mavjud.

Adirlarga insonning xo'jalik faoliyati qanchalik kuchli ta'sir etmasin u tabiiy qonunlar asosida rivojlanadi va eng kuchli xususiyatlarini saqlab qolgan xolda xo'jalik ob'ektlariga ta'sir etib boradi. Shu nuqtai nazardan adirlar landshaft-ekologik sharoitini baholash muhim sanaladi. Buning uchun baholashda jiddiy va nojiddiy omillarni e'tiborga olish va xududning xo'jalik jihatdan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash zarur. Adirlarning taraqqiyot tarixi ularning strukturasi va dinamikasida o'z aksini topadi, ularni o'rganish orqali ma'lum vaqt ichidagi o'zgarishlari baholanadi. Adir tabiiy komponentlarini baholash jarayonida ularning xususiyatlaridan kelib chiqqan maqsadga muvofiq. Buning uchun adir yotqiziqlarining turli xususiyatlarga ega bo'lishi baholashda voqealik va jarayonlarning rivojlanishiga to'g'ri baho berishni ta'minlaydi. Masalan, qum, qumloq, qumoq va boshqalar eroziya va qisman deflyatsiyaga berilishga moyil, gil esa suv o'tkazmasligi tufayli botiqlarda yer osti suvlari sathini ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Suv o'tkazmaydigan konglomerat yotqiziqlar esa adir yonbag'irlarida surilmalarni rivojlanishiga olib keladi, adir oldi tekisliklarida esa yer osti suvlari sathini ko'tarilishi, shuningdek suv o'tkazish qobiliyatini kam bo'lishi yer osti suvlarining yotiq harakatiga to'sqinlik qiladi va tuproq sho'rlanishiga sabab bo'ladi. Qum, shag'al va chag'irtoshli yotqiziqlardan iborat adir qismlarida esa yotiq yer osti suvlari harakati yaxshi bo'lib tuproq sho'rlanishga uchramaydi hamda o'z-o'zini tozalash xususiyatlari yuqori bo'lib, qishloq xo'jaligi zaharli moddalari va neft mahsulotlari to'planmaydi ular quyi tomon harakat qiladi [7,9]. Adirlarni rel'eflariga ko'ra baholashda turli tabiiy xodisalar rivojlanishiga e'tibor beriladi. Antiklinal rel'ef shakllarida eroziya va denudatsiya yuz beradigan xudud bo'lganligi sababli, yotqiziqlar va moddalar quyi tomon yuvilib, yer osti suvlarining yotiq oqimi to'liq ta'minlanadi, namlikning harakati ham quyi tomon harakatda bo'ladi. Chunonchi, bu rel'ef shakllarida eroziyaning bir necha turlari: yuzaki va chuqurlama eroziya, jar, sufoziya, surilma va boshqalar rivojlanadi. Adir yonbag'irlarining qiyalik darajalari, ularni tashkil etgan yotqiziqlar tarkiblariga qarab turli tabiiy jarayonlar, moddalar oqimlari, yer osti va usti suvlari oqimlari yuz beradi. Adir yonbag'irlarida moddalarning tranzit oqimi, ya'ni tuproq eroziyasi va moddalarning bir tomonlama yotiq harakati yuz beradi. Suv oqimi yonbag'irlarda yana eroziya moddalari bilan to'yinadi hamda ular bu

ko'rsatkich bo'yicha yonbag'irning yuqori va quyi qismlari o'rtasida farqlanadi. Adirlarning botiq rel'ef shakllari yonbag'irlardan kelgan moddalar to'planadigan joy xisoblanadi. Yer osti suvlarining yotiq harakati ta'minlanmaganligi uchun ularning sathi ancha yuqori (0-3 m) bo'lib, minirallashuv darajasi katta bo'ladi. Tuzlarning miqdori esa bug'lanish hisobiga muntazam ortib boradi. Adir landshaft-ekologik sharoitini baholashda suv muhim omil hisoblanadi. Suv juda ko'p fizik va kimyoviy xususiyatlarga ega. Suvda erigan tuz va boshqa moddalarning mavjudligi adir tabiatida jiddiy o'zgarishlar ro'y berishiga olib keladi.

Chunonchi, sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlarida ortiqcha tuzlar to'planishiga sabab bo'ladi. Aksariyat adir daryolari tog'lardan boshlanib erituvchilik faoliyati tufayli kimyoviy moddalarga to'yinib, katta oqiziq'larga ega bo'ladi. Biroq, daryolar o'zanlarida ko'plab suv omborlari qurilishi va suvlarni yig'ilishi suvlarning qishloq xo'jaligi uchun foydali moddalardan xoli bo'lishiga hamda sug'orishdagi suvning samarasi nisbatan ozayishiga olib keladi. Adir landshaft- ekologik sharoitini baholashda tuproq ham muhim sanaladi. Buning uchun tuproqning qalinligi, strukturasi, gumus miqdori, mexanik tarkibi, ifloslanganlik darajasi, sho'rlanishi va eroziyaga moyilligi kabi xususiyatlar chuqur o'rganiladi. Ekinlarning xosildorligi nuqtai nazardan tuproqlarning tarkibi chuqur o'rganiladi. Chunonchi, adir donador tuproqlari deyarli barcha ekin turlari uchun qulay hisoblansada, strukturasi tuproqlar esa aksincha. Bechlashgan, tuzli qatlamlarga ega bo'lgan adir oralig'i botiqlari tuproqlari ekinlarni me'yorida o'sishi uchun noqulay hisoblanadi [7]. Adir tuproqlari uning sharoitiga qarab sanoat chiqindilari, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish (pestitsidlar, minirallar, o'g'itlar), inson xo'jalik faoliyati natijasida vujudga keladigan turli tashlandiqlar bilan ifloslanadi. Tuproq tabiiy jihatdan qulay sharoitda tozalanib ham turadi. Adir yonbag'irlarida yengil mexanik tarkibli gumus miqdorining bo'lishi, yotiq yer osti suv oqimining yaxshiligi hisobiga tuproqlarni chiqindilardan tozalanishi kuzatiladi. Adir oralig'i botiqlarida esa bu jarayonning teskari xususiyatlari kuzatiladi. Adirlar landshaft- ekologik sharoitini baholashda o'simliklar dunyosi vakillarini to'g'ri tushunish va bilish yaxshi samara beradi. Chunonchi, o'simliklar adir landshaft-ekologik sharoitini belgilovchi, atrof muhit ifloslanishi va buzilishini indikatorlari bo'lib hisoblanadilar. SHu ma'noda adir o'simlik turlari, ularning zichligi, degradatsiya darajasi va yangi vakillarining xosil bo'lishi, dominant, ressesiv xususiyatlari adirlar landshaft-ekologik sharoitini baholashda alohida e'tiborga olinadi.

Adirlarda turli tabiiy va antropogen jarayonlar va xodisalar rivojlanishi kuzatiladi. Ularning vujudga kelishi, shakllanishi, taraqqiyoti, o'zgarishlari ma'lum tabiiy va antropogen omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Tabiiy jarayonlarning rivojlanishi tabiiy xodisalarga bog'liq bo'lib ularning shakllanishi unchalik tez emas. Tabiiy-antropogen jarayonlar asosan inson xo'jalik faoliyati va qisman tabiiy omillar ta'sirida yuz berganligi uchun ularning vujudga kelishi, shakllanishi qisqa vaqtda amalga oshadi. Adir tabiiy-

antropogen jarayonlari rivojlanish ko'lamini bo'yicha shunday turdagi tabiiy jarayonlardan farqlanadi. Jarayonlarni o'rganishda vaqt va makon asosiy mezon hisoblanadi.

Adirlarda qishloq xo'jalik faoliyati bilan bog'liq jarayonlar turli tuman va zichroq bo'ladi. CHunonchi, sug'orma, lalmi dehqonchilik va yaylov chorvachiligi bilan bog'liq jarayonlar adir xududida keng tarqalgan. Ularning dinamik xususiyatlarini o'rganish baholashda asos vazifasini o'taydi. Masalan, qishloq xo'jalik jarayonida sug'orishni noto'g'ri amalga oshirish suv eroziyasini vujudga keltiradi. Adir yerlarining qiyaligi 0,002-0,003 dan katta bo'lishi suvning tuproqni o'yishiga sabab bo'ladi, birinchi sug'orishda 1-2 sm, keyingilarida 3-5 sm dan 5-10 sm gacha bo'lishi mumkin. Egatda suvni kelish me'yori bir xil bo'lmasa bu ko'rsatkichlar yanada katta bo'lishi mumkin. Bir mavsumda o'yilish 0,5 m gacha borib dala etagida, botiqlarda ko'plab yuvilgan xosildor tuproqlar to'planishiga olib keladi.

Adir yonbag'irlarida lyoss va lyossimon janslar tarqalgan qismlarda yaylov chorvachiligi va insonning boshqa xo'jalik faoliyatlari ta'sirida o'simliklar zichligi kamayib surilma, suffoziya va jar eroziyasi rivojlanishini kuzatish mumkin. Lyoss va lyossimon yotqiziqlar ostida konglomerat qatlamlarini bo'lishi kuchli surilmalarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi [7]

Farg'ona vodiysi tog' oldi landshaftlari holatini ulardan samarali foydalanish jihatdan baholashda quyidagi tamoyillardan foydalanildi: landshaftlarning tabiiy holati, geologik va geomorfologik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari, gidrotermik sharoiti, tuproq va o'simlik qoplaminin o'zgarish darajasi, insonning xo'jalik faoliyati, antropogen landshaftlarning ulushi va turi, landshaft-ekologik sharoitning hozirgi holati, landshaft-ekologik sharoitning o'zgarishining asosiy yo'nalishlari. Mazkur tamoyillar asosida kuchsiz o'zgargan, o'zgargan, o'rtacha o'zgargan, kuchli o'zgargan va o'ta kuchli o'zgargan holatlar ajratildi. Bunda xududni insonni xo'jalik faoliyatini ta'minlash imkoniyati bo'yicha 100 ballik shkala ishlab chiqildi [8].

1) Kuchsiz o'zgargan holat deb qumtosh, shag'al va qumloq yotqiziqlar qisman lyosslar uchraydigan, tuproq sho'rlanishi 0,8 g/kg gacha bo'lgan, yer osti suvlari 2-3 m. chuqurlikda yotuvchi, eroziyalanishi 8,2 % bo'lib, qiyalik darajasi 1-2 gradus bo'lgan hududlarga aytiladi. SHu nuqtai nazardan uning insonni xo'jalik faoliyatini ta'minlash imkoniyati 0-30 ballgacha.

2) O'zgargan holat deb gipslashgan qumtosh, yirik va mayda shag'alli jinslar va qumloq, ba'zan ustida lyoss yotqiziqlari uchraydigan, tuproq sho'rlanishi 1 g/kg gacha bo'lgan, yer osti suvlari 0,5-2 m chuqurlikda yotuvchi, eroziyalanishi 3,6% bo'lib, qiyalik darajasi 1-2 gradus bo'lgan hududlarga aytiladi. Ushbu hududning insonni xo'jalik faoliyatini ta'minlash imkoniyati 31-55 ballgacha.

3) O'rtacha o'zgargan holat deb qum-tosh aralash lyossimon jinslar uchraydigan, tuproq sho'rlanishi 1-3 g/kg gacha bo'lgan, yer osti suvlari 2-5 m chuqurlikda yotuvchi, eroziyalanishi 19,2 % bo'lib, qiyalik darajasi 3-7 gradus bo'lgan hududlarga aytiladi. Bunday joylarda landshaftlarning insonni

xo'jalik faoliyatini ta'minlash imkoniyati 56-70 ballgacha.

4) Kuchli o'zgargan holat deb qum-tosh aralash lyossimon jinslar uchraydigan, tuproq sho'rlanishi 2-3 g/kg gacha bo'lgan, yer osti suvlari 1-2 m chuqurlikda yotuvchi, eroziyalanishi 48,9% bo'lib, qiyalik darajasi 7 gradusdan ortiq bo'lgan hududlarga aytiladi. Bu xududning insonni xo'jalik faoliyatini ta'minlash imkoniyati 71-85 ballgacha

5) O'ta kuchli o'zgargan holat deb lyoss, qum, shag'alli yotqiziqlar uchraydigan, tuproq sho'rlanishi 3 g/kg dan ortiq, yer osti suvlari 0,5-1 m chuqurlikda yotuvchi, eroziyalanishi 20,1% bo'lib, qiyalik darajasi 0,3-1 gradus bo'lgan hududlarga aytiladi. Mazkur hududning insonni xo'jalik faoliyatini ta'minlash imkoniyati 86- 100 ballgacha.

Xulosa va takliflar. Farg'ona vodiysi tog' oldi landshaftlari holati bir-biridan o'zining tabiiy geografik xususiyatlari, tuzilishi va landshaftidagi o'ziga xos o'zgarishlar yo'nalishi bilan farq qiladi. Jumladan, kuchsiz o'zgargan holatga ega bo'lgan yerlar jami tog' oldi landshaftlarining 31% ini tashkil etadi. Unga Chust-Pop va Cho'ng'ara-Sho'rsuv hududining tog' oldi landshaftlarining oldi va ortki tekisliklaridan tashqari barcha maydonlari kiradi.

O'zgargan holatga ega bo'lgan yerlarga jami tog' oldi landshaftlarining 18% i to'g'ri keladi. Unga tog' oldi landshaftlarining ortki tekisliklarining barcha maydonlari kiradi. Jumladan, Qo'qonda Sho'rsuv va Cho'ng'araning janubiy xududlari, Farg'onada Vodil, Yorqo'ton, Quvasoy xududlari, Andijonda Marxamat, Buloqboshi janublari, Qarasuv, Xonobod xududlari, Namanganda Chust hududlarida Varzik, Boymoqning shimoliy qismlari, Kosonsoy xududlarida shahar markazi atroflari, Yangiqo'rg'on xududlarida Iskovot, Chortoqda Peshqo'rg'on va Hazratisho atroflari kiradi.

O'rtacha o'zgargan holatga ega bo'lgan yerlar jami tog' oldi landshaftlarining 15% ini egallaydi. Unga Namanganda Kosonsoy va To'raqo'rg'on xududlari va Farg'onada Rishton, CHimyon, Avval, Arsif tog' oldi landshaftlari kiradi.

Kuchli o'zgargan holatga ega bo'lgan yerlarga Andijonda Asaka, Buloqboshi,

Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod, Namanganda Uychi-Chortoq tog' oldi landshaftlari kirib, u jami xududlarining 24% ini egallaydi.

O'ta kuchli o'zgargan holatga ega bo'lgan yerlar jami tog' oldi landshaftlarining 12% ini o'z ichiga olib, unga asosan Andijonda Janubiy Olamushuk, Andijon, Asaka, Farg'onada Quva, Xonqiz, Rishton, Sho'rsuv,

Cho'ng'ara, Namanganda Chust-Pop, Kosonsoy-To'raqo'rg'on, Uychi-Chortoq hududidagi tog' oldi landshaftlari oldingi qiya tekisliklari kiradi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib quyidagi xulosaga kelish mumkin. Ya'ni adirlar landshaft-ekologik sharoitini baholashda uning yotqiziqlari, rel'eflari, suv, tuproq, o'simliklar bilan bog'liq xususiyatlari hamda tabiiy va tabiiy-antropogen jarayonlar ta'siridagi o'zgarishlari e'tiborga olinadi. Bunda sabab-oqibat yo'nalishiga alohida ahamiyat beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исаченко А.Г. Основы ландшафтоведения и физико-географическое районирование. –М.: Высшая школа, 1965. –С. 215-218.
2. Исаченко А.Г. Методы прикладных ландшафтных исследований. -Л.: Высшая школа, 1981. –С. 68-82.
3. Кульжанова С.М. Анализ структуры сельскохозяйственных угодий Акмолинской области в условиях перехода к новым земельным отношениям // Вестн. КазНУ. Сер. география. -2002. –№ 1.(14). –С. 71-76.
4. Гельдиева Г.В., Будникова Т.И. Природные районирования Приаралья для целей сельского хозяйства // Экологические проблемы освоения пустынь и охрана природы. –Ашхабад. 1986. -С. 11-18.
5. Чупахин В.М. Природное районирование Казахстана для целей сельского хозяйства. -Алма-Ата: Наука, 1970. -260 с.
6. Чибилев А.А. Экологическая оптимизация степных ландшафтов.- Екатеринбург: Наука, 1992. -310 с.
7. Mirzamaxmudov O.T. SHimoliy Farg'ona adirlarining geoekologik muammolari // Farg'ona vodiysi tabiatini muhofaza qilishning ekologik-geografik asoslari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. -Namangan, 2003. -B. 49-51.
8. Adir mintaqasi landshaft-ekologik sharoitini baholashning geografik xususiyatlari // Geodeziya, kartografiya va kadastr sohasini rivojlantirishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – Samarkand. 2014 yil 28-29 noyabr' 82-84 bet.
9. Mirzamaxmudov O.T., Maqsudova M. Shimoliy Farg'ona adirlarining landshaft-ekologik holati va ularni optimallashtirish masalalari // Farg'ona vodiysi: tabiati, axolisi, xo'jaligi va ekologiyasi: NamDU geografiya kafedrasi professor-o'qituvchi va iqtidorli talabalarining ilmiy ishlari to'plami. -Namangan, 2002. -B. 14-16.

**GEOAXBOROT TIZIMLARI TEXNOLOGIYALARINING
FARG'ONA VODIYSI LANDSHAFTLARINING TABIIY VA
IQTISODIY MAVZULI KARTALARI TUZISHDAGI AHAMIYATI**

M.M. Hakimov

*University of Business and Science o'qituvchisi
hakimov.mirqobil@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalarining mavzuli kartalar yaratishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. GAT zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish va yangilash imkoniyatini beradi. Ushbu texnologiya kartografiya sohasida an'anaviy qog'oz kartalar bilan ishlashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etib, xarajatlarni kamaytiradi va operativ yangilanishni ta'minlaydi. Tadqiqotda GATning turli sohalarda qo'llanilishi,

shu jumladan, tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiyadagi ahamiyati batafsil yoritiladi. Shuningdek, GAT orqali kartografik proyeksiyalarni tez va aniq yaratish, ularga o'zgartirishlar kiritish imkoniyatlari ham ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Geografik axborot tizimlari, mavzuli kartalar, GAT texnologiyalari, kartografik proyeksiyalar, axborot tahlili, geografik tadqiqotlar, kompyuter texnologiyalari, iqtisodiy geografiya.

ЗНАЧЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ В СОЗДАНИИ ПРИРОДНО-ХОЗЯЙСТВЕННЫХ ТЕМАТИЧЕСКИХ КАРТ ЛАНДШАФТОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация: В данной статье рассматривается значение технологий географических информационных систем (ГИС) в создании тематических карт. ГИС предоставляет возможность собирать, хранить, анализировать и обновлять данные с использованием современных компьютерных и информационных технологий. Эта технология устраняет сложности, связанные с использованием традиционных бумажных карт, сокращает затраты и обеспечивает оперативное обновление данных. В исследовании подробно рассматривается применение ГИС в различных областях, включая природную и социально-экономическую географию. Также подчеркиваются возможности ГИС для быстрого и точного создания картографических проекций и внесения в них изменений.

Ключевые слова: Географические информационные системы, тематические карты, ГИС-технологии, картографические проекции, анализ данных, географические исследования, компьютерные технологии, экономическая география.

THE SIGNIFICANCE OF GEOINFORMATION SYSTEMS TECHNOLOGIES IN THE CREATION OF NATURAL AND ECONOMIC THEME MAPS OF LANDSCAPES OF THE FERGANA VALLEY

Annotatsiya: This article discusses the significance of Geographic Information System (GIS) technologies in creating thematic maps. GIS allows for the collection, storage, analysis, and updating of data using modern computer and information technologies. This technology addresses the challenges associated with traditional paper maps, reduces costs, and ensures timely updates. The study thoroughly examines the applications of GIS in various fields, including natural and socio-economic geography. Additionally, the article demonstrates the capabilities of GIS for quickly and accurately creating cartographic projections, as well as making modifications to them.

Key words: Geographic Information Systems, thematic maps, GIS technologies, cartographic projections, data analysis, geographic research,

computer technologies, economic geography.

Kirish.

Bugungi axborotlar davrida ma'lumotlarning hajmi va darajasi shu qadar kattaki, ularni zamonaviy hisoblash-dasturlash vositalarisiz qayta ishlash va tahlil qilish mumkin emas. SHuning uchun zamonaviy kompyuter texnologiyalari va telekommunikatsiya tarmoqlari asosida iqtisodiy va ijtimoiy geografik jarayonlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar beruvchi avtomatlashgan sistemalarni yaratish dolzarb masalalardan biridir. Geografik jarayonlarni ilmiy o'rganish va amaliy natijalar olishda tatbiq qilinadigan ana shunday ishlardan biri elektron kartalarni yaratish texnologiyalaridir. Kartografiyada ma'lumotlarning ko'plab turlarini vaqt o'tishi bilan tez-tez o'zgarib turishi, oddiy usulda tuziladigan qog'ozli kartadan foydalanishni ancha qiyinlashtirib yubormoqda. Bugungi kunda tezkor axborotlarni qabul qilish, ularning dolzarbligini ko'rsatish faqatgina avtomatlashtirilgan tizim kafolatlashi mumkin. SHuning uchun, iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida geografik axborot tizimlaridan keng foydalanilmoqda. Zero, bugungi kunda insoniyat axborot-texnologiyasi davrini boshidan kechirmoqda. U yildan-yilga kuchayib, inson faoliyatining ko'plab sohalariga kirib bormoqda. Buning natijasida kartalashtirish sohasida ham ko'plab manbalardan olinadigan axborotlardan foydalanish zaruriyati tug'ilmoqda. Hozir axborot texnologiyalari jamiyatning barcha jabhalariga kirib borgan ekan, kartografiya sohasida, yer haqidagi fanlarda informatikaning qo'llanishi maxsus yo'nalish – geoinformatika (geoaxborot) sohasini keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar tahlili. Geoinformatsiyani prof. A.M. Berlyant shunday ta'riflaydi. U geosistema strukturasini, bog'liqlikni, dinamikasini (o'zgarishini, zamon va makon bilan bog'liqligini) kompyuterda modellashtirish yo'li bilan o'rganuvchi ilmiy sohadir. Bu soha faqat geosistemada emas texnologiyada va ishlab chiqarishda ham ishlatilmoqda. Geoaxborot tizimi (GAT) avtomatlashtirilgan tizim bo'lib, makon ila zamon koordinatsiyalashtirilgan geoinformatsiyani yig'uvchi, ishlov beruvchi, saqlovchi, tasvirlab beruvchi va tarqatuvchi ilmiy sohadir⁶.

Dastlabki GAT o'tgan asrning 60-yillarini o'rtalarida Kanada va AQSHda tashkil qilingan. Hozirgi vaqtda sanoati rivojlangan mamalakatlarda minglab GAT sistemasi iqtisodiyotda, siyosatda, ekologiya sohasida, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda, tabiatni muhofaza qilishda, kadastrlashda, fan va ta'lim sohasida qo'llanilib, undan global, regional milliy va mahalliy masalalarni hal qilishda foydalanilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Keyingi yillari O'zbekistonda geoaxborotli tizim kartalashtirish uchun keng qo'llanila boshlandi. Geoaxborot tizimi texnologiyasi ushbu alohida-alohida ajratilgan ma'lumotlarni to'plash hamda yagona ko'rinishda saqlash, yangilab turish, tahlil qilish, istalgan operatsiyalarni bajarishga, barcha o'zgarishlarni kuzatib borishga, turli tuman kartalar, planlar, jadvallarni olishga imkon beradi.

Natijalar va muhokama

Geoaxborot tizimi uning foydalanuvchilariga quyidagi imtiyozlarni beradi:

- turli xil axborotli ta'minotini qabul qilish uchun yagona ma'lumotlar bazasiga barcha axborotlarni bog'lash va kelishish;
- turli darajadagi maydalashgan axborotlar bo'yicha foydalanuvchi tomonidan olish, tahlil qilish va qaror qabul qilish uchun regional geoaxborot tizimidan foydalanish;
- kartalarni yaratish va yangilab turish bo'yicha xarajatlarni kamaytirish.

GAT texnologiyalari orqali tuzilgan karta oddiy grafikli kartadan yaxshi bezalgani, kompyuterli shakldaligi, qo'lda bajarib bo'lmaz darajadagi aniqligi va boshqa bir qator afzalliklari bilan farq qiladi. Kartaga istagancha o'zgartirish kiritish, yangi mazmun berish, diagramma va boshqa ma'lumotlarni kiritish, o'chirish va boshqa ishlarni bajarsa bo'ladi.

GATni bilishning eng oddiy usuli – u bilan ishlash, uning imkoniyatlarini ish jarayonida bilib olishdir. Aslida GAT – bu bitta texnik vosita bo'lib, uning yordamida faqatgina chiroyli qilib kartani jihozlash emas, balki yechimi mavjud bo'lmagan ba'zi masalalarni yechish ham mumkin. SHu sababli GATning imkoniyatlari juda katta. Demak GAT – turli usul va uslublarni yordamida real borliq to'g'risida to'plangan katta hajmli axborotlarni o'zining ma'lumotlar bazasida jamlab, ishlay oladigan keng rivojlangan kompyuterlashgan aniq tizimdir⁷.

Zamonaviy usulda tuzilgan kartalarning ananaviy usulda tuzilgan kartalardan farqi juda kattadir. Malumotlarni yetkazib berish, matematik asosning aniqligi, ma'lumotlar bazasining boyligi, hududda biron bir tabiiy o'zgarishlar sodir bo'lsa kartalarning ma'lumotlar bazasiga tezda kiritilishi kabi afzallik tomonlariga ega. Shuningdek, bugungi kunda har bir soha vakillari uchun ma'lum bir obektning geografik joylashuvi to'g'risidagi ma'lumot muhim ahamiyat kasb etadi. Geografik axborot tizimi bu mavjud axborot tizimlarining shunday bir sinfiki unda voqea– hodisa, faoliyat yoki undagi tafsilotlar bilan birga ularning qayerda mavjudligini yani, tasvirini ham o'z ichiga oladi.

Tabiiy geografiyada GAT tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni, ularning kelib chiqishini, o'zaro bog'liqligini va yer yuzasida tarqalganligining mohiyatini tushuntiradi hamda bu metodlarni amalga oshirish imkonini yaratadi; har qanday tadqiqot va qarashlarga fazoviy yondashish kerakligini tavsiya etadi. GAT orqali geografiya fani oldida turgan muhim vazifalarini yechish uchun juda zarur bo'lgan kuchli qurolga ega bo'lib bormoqda. Bu fanda GATni ma'lumotlarni yig'ish, tizimlash (tartibga solish), saqlash, ishlov berish, baholash, tasvirlash va tarqatishni amalga oshiradigan va ular asosida yangi axborot va bilimlarni olish vositasi sifatida qaraladigan interaktiv tizim, deb ta'riflansa bo'ladi.

Ijtimoiy va iqtisodiy geografiyada GATdan foydalanib, ro'yxatli-

bajarish mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy kartalarda generalizatsiya ishlari matematik metodlar va avtomatizatsiyani qo'llash natijasida bajarilib, iqtisodiy geografiyani haqiqiy geografik yo'nalish olishini ta'minlaydi. Bu fanda GAT - apparat-dasturli vosita va inson faoliyatidan iborat bo'lgan geografik ma'lumotlarini saqlash, ularga ishlov berish va natijalarni tasvirlay oladigan majmua sifatida qaraladi.

Aholi geografiyasida mantiqiy-matematik tahlillar qo'llanilib, avtomatik ravishda ma'lumotlar bazasi hosil qilinadi. Ular asosida turli ijtimoiy-iqtisodiy voqea va hodisalarning monitoringini tashkil etish ishlari bajarilishi mumkin. GAT bu muayyan fan sohasida zarur bo'lgan chora tadbirlarni dalil bo'la oladigan ma'lumotlar banki bilan ta'minlaydigan, geografik jihatdan fazoviy-hududiy bog'langan ma'lumotlarni kiritish, ularni tahlil qilish va umumlashtirish hamda foydalanuvchini zarur axborotlar bilan ta'minlash tizimi, deb tushuniladi.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalari inson xo'jalik faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Bunday texnologiyalarni amaliyotga joriy qilmay turib ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlab bo'lmaydi. Har bir sohani kompyuterlashtirish va avtomatlashtirish avvalo, inson mehnatini yengillashtiradi, boshqaruvni tez va barqaror bo'lishini ta'minlaydi, davlat hamda insonlar manfaatini himoyalaydi, rivojlanishni izchil borishida imkoniyatlar yaratadi. Buning mohiyatini chuqur his etgan holda geografik tadqiqotlar, jumladan, aholiga xizmat ko'rsatish kartalarini yaratishda ham ish jarayonini avtomatlashtirilgan tarzda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. U turli axborotni raqamlangan shaklda berib, kerakli ma'lumotlarni yig'ish, o'rganish hamda tahlil qilish imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtira oladigan imkoniyatlarga egadir.

Xulosa. Shuni ta'kidlash joizki, GIS dasturlari yordamida kartografik proektsiyalarni yaratish bir muncha qulayliklarga ega. Bunda proektsiyani hosil qilish ishlari tez bajariladi, kiritilayotgan ma'lumotlarning aniqlik darajasi ancha yuqori bo'ladi, proektsiyada qo'pol xatoliklar kuzatilmaydi. SHu bilan birga tuzilayotgan proektsiyaga oid barcha ma'lumotlar dasturda saqlanib turadi, kerakli vaqtda unga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Берлянт А.М. Картография. -М.: Аспект-Пресс, 2002.
2. Мирзаахмедов Х., Акабоев И. "Arcgis 10.2" dasturida mavzuli kartalar qatlamlarini (Layers) yaratish". Республика илмий-амалий конференция материаллари. -Жиззах, 2017, 266-269 б.
3. Мирзалиев Т. Картография. –Т.: "Фан", 2007. -168 б.
4. Сафаров Э.Ю., Мусаев И.М., Абдурахимов Х.А. Геоахборот тизими ва технологиялари. -Т.: 2012, 104- б.

13.00.00 - PEDAGOGIKAVA PSIXOLOGIYA FANLARI TERMINOLOGIYAGA DOIR QARASHLAR TAHLILI

*Xashimova Xurshida Djuraxanovna,
University of Business and Science o'qituvchisi
xashimovaxurshida1@gmail.com*

Annotatsiya: Mamlakatimizda o'zbek tilining terminologik qatlamida semantik jihatdan bir necha tarmoqlarda qo'llanadigan sohalararo terminlarning salmog'ini aniqlash, ularning leksikografik va semantik tavsifini amalga oshirish dolzarb masala sifatida belgilangan. O'zbek tilining terminologik qatlami dastlab qadimgi turkiy tilda (VII-X) kuzatilib, keyingi davrlarda ijtimoiy-lisoniy doirasi, miqdor va sifati jihatidan o'sib bordi. Maqolada, shuningdek, o'zbek tilining terminologik qatlami hozirgi kunda tashqi omil va so'z yasash bilan bog'liq ichki manba ta'siri hisobidan rivojlanib borishi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar va tilshunos olimlarning terminologiya sohasi yuzasidan ilmiy qarashlari metodologik asosda tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Leksik sath, terminologik qatlam, ilmiy-texnik termin, soha terminologiyasi, lug'at.

АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ НА ТЕРМИНОЛОГИЮ

Абстрактный: В нашей стране в терминологическом пласте узбекского языка определяется актуальным вопросом определение веса межотраслевых терминов, семантически используемых в нескольких отраслях, и проведение их лексикографического и семантического описания. Терминологический пласт узбекского языка впервые наблюдался в древнетюркском языке (VII-X), а в более поздние периоды разрастался по социолингвистическому объему, количеству и качеству. В статье терминологический пласт узбекского языка в настоящее время развивается за счет влияния внешних факторов и внутренних источников, связанных со словообразованием, а также на методологической основе анализируются научные взгляды лингвистов на область терминологии.

Ключевые слова: лексический уровень, терминологический слой, научно-технический термин, отраслевая терминология, словарь.

ANALYSIS OF VIEWS ON TERMINOLOGY

Abstract: In our country, in the terminological layer of the Uzbek language, it is determined as an urgent issue to determine the weight of the inter-field terms that are semantically used in several branches, and to carry out their lexicographic and semantic description. The terminological layer of the Uzbek language was first observed in the ancient Turkic language (VII-X), and in later periods it grew in terms of socio-linguistic scope, quantity and quality. In the article, the terminological layer of the Uzbek language is currently developing due to the influence of external factors and internal sources related to word formation, and the scientific views of linguists on the field of terminology are analyzed on a methodological basis.

Key words: lexical level, terminological layer, scientific and technical term,

field terminology, dictionary.

Kirish.

Mamlakatimizda ham o'zbek tilining terminologik qatlamida semantik jihatdan bir necha tarmoqlarda qo'llanadigan sohalararo terminlarning salmog'ini aniqlash, ularning leksikografik va semantik tavsifini amalga oshirish dolzarb masala sifatida belgilangan. "Ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni iste'molga kiritish, zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobillarining yaratish va bir xilda qo'llanishini ta'minlash" tilshunosligimiz oldidagi dolzarb masalalardan bo'lib turibdi. Zamonaviy o'zbek terminologiyasidagi texnik terminlarni zamonaviy tilshunoslik tamoyillari asosida o'rganish Yangi O'zbekiston voqeligi sifatida jahonga yuz tutayotgan o'zbek ilm- fanining qiyofasini ko'rsatib turadigan asosiy lingvistik omillardan biri sifatida e'tirof etilishi muhim va ahamiyatli jarayondir.

O'zbek tilining terminologik qatlami dastlab qadimgi turkiy tilda (VII-X) kuzatilib, keyingi davrlarda ijtimoiy-lisoniy doirasi, miqdor va sifati jihatidan o'sib bordi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari terminologik leksikaning shakllanishi borasida fikr bildirishga asos vazifasini bajarsa, Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida aynan ma'lum terminologik qatlamdagi (jumladan, professional leksikadagi) so'zlar turkiy tillarda faol bo'lib, forsiy tilda uchramasligini, forsiylar ham turkiycha ishlatishini yozadi. Aynan zamonaviy terminografiya bo'yicha ilk izlanishlar XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Bunda rus va boshqa turkolog olimlarning hissaları katta bo'lgan. N.A.Baskakov, V.V.Vinogradov, D.S.Lotte, turkiy tilshunoslikda M.Sh.Gasimov, B.U.Oruzbayeva, T.L.Kandelaki, A.A.Reformatskiy, V.P.Danilenko kabi o'nlab terminshunos olimlarning tadqiqotlari o'zbek terminologiyasining shakllanishida o'z o'rniga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Shu vaqtga qadar davrda terminologiyaga oid ishlardan S.Ibrohimovning kasb-hunar terminlarining semantik usul bilan hosil bo'lishi xususidagi tadqiqotlari [2,56], shuningdek, terminologik tizimlarini tadqiqiga bag'ishlangan S.Akobirov, A.Hojiyev, N.Mamatov, R.Doniyorov, H.Jamolxonov,

O.Ramazonov, A.Madvaliyev, A.Husanov, A.Sobirov, M.Abdiyev, I.Pardayeva, Z.Mirahmedova, A.Mamatov, H.Yodgorov, S.Azizov kabi olimlarning dissertatsiya va monografiyalari muhim amaliy va nazariy ahamiyatga molik bo'ldi.

Mustaqillik davrida H.Bektemirov va E.Begmatovning "Mustaqillik davri atamaları" [3,60], A.Madvaliyevning "O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari" [4,184] kabi ilmiy tadqiqotlari o'zbek terminologiyasiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Leksik ma'no bilan tushuncha o'rtasida tenglik termin leksemalarda bo'ladi. Termin leksema notermin leksemalardan o'z ma'nosining aniq ta'riflab, chegaralab, belgilab qo'yilgani bilan farqlanadi. Shuning uchun termin har doim bir xil tushunchani ifodalaydi. Har bir termin, odatda, ma'lum bir sohaniki bo'ladi. Biroq bir leksema ayni vaqtda bir necha sohaning termini bo'lib xizmat qilish hollari uchramoqda.

Terminologiya – 1) leksikaning bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab

chiqarish tarmog'ining, san'at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog'liq terminlari majmui; 2) tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi sohasi. Umumxalq tili lug'at boyligi asosida terminologik qatlam vujudga keladi. Terminlar o'zi yashayotgan tilning imloviy, uslubiy hamda semantik qonuniyatlariga bo'ysunganligi sababli ular tilning boyishi uchun ham xizmat qiladi. Terminologik qatlam ikki katta guruhga bo'linib, bir qismi umumxalq tilidan to'g'ridan to'g'ri olinib, shu til bilan birgalikda yashasa, ikkinchi qismi boshqa tillaridan olinib, ma'nosi umumxalq tilidagi etimologiyasidan uzoqlashadi va maxsus terminologiya vujudga keladi. Maxsus terminologiya tilning taraqqiyot darajasini ham ko'rsatib beradi. Biror terminologik tizimning taraqqiyoti esa uning tartibga solinganligi va muntazamligi bilan belgilanadi.

Terminografiya terminologik lug'atlar tuzish, ya'ni terminografik faoliyatning ham nazariy, ham amaliy jihatlar bilan shug'ullanar ekan. Hozirgi kunda terminografiyada terminologik yoki maxsus lug'at deganda, ensiklopedik lug'atlarning biron-bir ixtisoslik terminlarini alohida bilim sohasi va fan-texnika tarmoqlaridagi tushuncha va predmetlarning nomlarini qamrab oluvchi, ularni tushuntirib, izohlab beruvchi turi tushuniladi. Terminologik lug'at faqat bir tor soha terminlarini tushuntirib berishi yoki bilimning turli xil, odatda yondosh sohalari terminlarini qamrab olishi mumkin.

O'zbek tilining terminologik maydoni keng tushuncha bo'lib, ular har bir fan, soha, ijtimoiy o'zgarishlardan kelib chiqib tasniflanishi mumkin. Terminologik sathning fandagi dastlabki izi lug'atlarda namoyon bo'ladi. Soha mutaxassisleri mavjud terminlarni tartiblash, tasniflash va me'yorlashtirish uchun darhol lug'atlarga murojaat qiladilar. Terminologik lug'atlar mundarijasiga e'tibor bersak, ularda terminlarning tarjima jihatlariga katta e'tibor qaratilganini ko'ramiz. Terminologiya, avvalo, terminologik lug'atlarning, shuningdek, umumtil leksikasining tarkibi sifatida filologik lug'atlarning, jumladan, izohli lug'atlarning semantik tavsif obyekti.

O'zbek tilining terminologik qatlami hozirgi kunda tashqi omil va so'z yasash bilan bog'liq ichki manba ta'siri hisobidan rivojlanib bormoqda.

Shu jihatdan o'zbek tilining terminologik qatlamida semantik jihatdan bir necha tarmoqlarda qo'llanadigan sohalaro terminlarning salmog'ini aniqlash, ularning leksikografik va semantik tavsifini amalga oshirish naqadar dolzarb masala ekanligi namoyon bo'ladi.

Leksikografiya, xususan, terminologiyaga oid amaliy tadqiqotlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, prof. Renat Doniyorovning ilmiy qarashlari ham alohida qiziqish uyg'otadi. Olim "O'zbek tiliga o'zlashgan ruscha baynalmilal so'zlar" (1967), "O'zbek tilining texnik terminologiyasi hozirgi bosqichda" (1988) nomli dissertatsiyalarida o'zbek tili leksikasining etimologik va terminologik qatlamlarini tadqiq qiladi.

Olim 1981-yilda nashrdan chiqqan 2 jildli izohli lug'atga taqrizida (A. Ishayev bilan hammualliflikda) o'zbek lug'atchiligidagi quyidagi vazifalarni sanab o'tadi:

- a) lug'at hajmini ixchamlashtirish uchun so'zlikning sinonimlarini qisqartirish, mas.: buyruq (amr, farmoq) qilmoq;

b) mazkur izohli lug‘at qisqa hajmli ekanligini hisobga olib, o‘zbek tilining Alisher Navoiydan boshlangan 120-150 ming so‘zlik lug‘atini tuzishni boshlash;

d) o‘quvchilar jamoasini hisobga olgan holda 30-40 ming faol so‘zlardan iborat 1 jildli izohli lug‘at tayyorlash kabi.

Ne‘mat Mahkamov ilmiy-texnik terminologiya – til vakillarining nisbatan oz qismi mashg‘ul bo‘lgan fan va texnologiyalarning ajralmas unsuri ekanligi, ilmiy-individual uslubdan olimlar o‘z doirasidagi yangi ilmiy axborotni yetkazishda foydalanganliklarini, bu uslub uning haqiqiy monografiyalarida, maqolalarida, turli ma‘ruza va anjumanlardagi nutqlarida aynan shu uslubda yangi terminlar ishlatilib, ilmiy muammolar hal qilinganligini, bu uslub boshqa uslublardan o‘zining maksimal darajada qat’iy ilmiy bayon etilishiga ega bo‘lishi bilan ajralib turishini ta’kidlab o‘tgan [6,10-16].

Olim ilmiy uslubning shakllanishida terminlarning o‘rni haqida bahs yuritar ekan, bu jarayonda terminlar sinonimiyasi me‘yoriy hodisa ekanligini aytadi, biroq so‘z o‘zlashtirish jarayonining tinimsizligi ko‘p variantlilik va sinonimlikning doimiylikini ta’minlab turadi. Til ichki imkoniyatlaridan asosli foydalanish, xalqaro terminelementlarni faol qo‘llash terminologiyadagi shu kabi qusurli hodisalarning tez bartaraf bo‘lishiga sabab bo‘ladi. E.Begmatov va H.Bektemirovlarning “Mustaqillik davri atamaları” risolasida esa mualliflar termin va ilmiy termin tushunchalari farqlanishi lozimligini ta’kidlaydi. Bunda mualliflar sohaviy terminlarning semantikasi bilan bog‘liq muammolarga shu tariqa nazariy jihatdan yechim berganlar [7,65].

Tahlil va natijalar.

Nizomiddin Mahmudovning terminologiya va so‘zlarning madaniy qirralari borasidagi fikrlari nihoyatda qimmatlidir. Olim o‘z maqolalarida olamning lisoniy manzarasini faqat til birliklari yordamida aks etadi deb talqin qilishga qarshi chiqib, o‘zga tillarning ta’siri, o‘zlashma so‘zlarga alohida urg‘u beradi. Hozirgi kunga kelib o‘zlashmalarga salbiy kayfiyat bilan munosabatda bo‘lish o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. “Xullas, bugun mustaqillik davri o‘zbek tili leksikasi va terminologiyasida so‘z o‘zlashtirishning birinchi tipi keng ko‘lam kasb qilganligini, faollashganligini, ikkinchi tipi esa sezilarli darajada passivlashganligini ta’kidlash mumkin. Bu holat o‘zbek tili leksikasi va terminologiyasi rivojida o‘ziga xos tamoyillardan biri ekanligini e’tirof etmoq joizdir”.

Ne‘mat Mahkamov ilmiy-texnik terminologiya – til vakillarining nisbatan oz qismi mashg‘ul bo‘lgan fan va texnologiyalarning ajralmas unsuri ekanligi, ilmiy-individual uslubdan olimlar o‘z doirasidagi yangi ilmiy axborotni yetkazishda foydalanganliklarini, bu uslub uning haqiqiy monografiyalarida, maqolalarida, turli ma‘ruza va anjumanlardagi nutqlarida aynan shu uslubda yangi terminlar ishlatilib, ilmiy muammolar hal qilinganligini, bu uslub boshqa uslublardan o‘zining maksimal darajada qat’iy ilmiy bayon etilishiga ega bo‘lishi bilan ajralib turishini ta’kidlab o‘tgan. Olim ilmiy uslubning shakllanishida terminlarning o‘rni haqida bahs yuritar ekan, bu jarayonda terminlar sinonimiyasi me‘yoriy hodisa ekanligini aytadi, biroq so‘z o‘zlashtirish jarayonining tinimsizligi ko‘p variantlilik va sinonimlikning

doimiyligini ta'minlab turadi. Til ichki imkoniyatlaridan asosli foydalanish, xalqaro terminelementlarni faol qo'llash terminologiyadagi shu kabi qusurli hodisalarning tez bartaraf bo'lishiga sabab bo'ladi. E.Begmatov va H.Bektemirovlarning "Mustaqillik davri atamalari" risolasida esa mualliflar termin va ilmiy termin tushunchalari farqlanishi lozimligini ta'kidlaydi. Bunda mualliflar sohaviy terminlarning semantikasi bilan bog'liq muammolarga shu tariqa nazariy jihatdan yechim berganlar.

Geografik terminlar tadqiqotchilaridan I.Islomov terminlar sistemasi haqida so'z yuritib, o'zbek tili professionalizmlar mikrotizimini: an'anaviy xo'jalik terminlari, an'anaviy xalq amaliy san'ati terminlari, aniq fanlarga oid terminlar, ijtimoiy fanlarga oid terminlar, yengil sanoat sohasiga oid terminlar, soha va xo'jalik terminlari, o'rmon xo'jaligi terminlari, irrigatsiya sohasi terminlari, bog'dorchilik, chorvachilik, baliqchilik terminlari kabi guruhlariga ajratib chiqqan. U geografik terminlarning terminosistemadagi o'rnini alohida ta'kidlagan.

D. Kalonova o'zbek tilida kompyuter lug'atchiligi rivoji haqida to'xtalar ekan, o'zbek tilining izohli, tarjima, etimologik, orfografik, orfoepik, morfem, chastotali, turli sohalarga oid terminlar va h.k. lug'atlarni kompyuterga kiritish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan masalalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Buning uchun esa:

- 1) so'zlikni belgilab olish;
- 2) lisoniy birliklar miqdorini va tarqalish darajasini hisoblash;
- 3) lisoniy birliklarni modellash;
- 4) avtomatik tarjima dasturlarini tuzish vazifalari hal etilishi lozim bo'ladi (8,95-97).

Mustaqillik yillarida yaratilda yaratilgan S.Qalandarovaning to'qimachilik, Sh. Norboyeva kasbiy leksika, Sh.Sariyev kulolchilik, I.Davronov soliq va bojxona, D.Qodirbekova axborot texnologiyalariga doir ishlari ham alohida e'tiborga molik.

Xulosa va takliflar

Terminlar va terminologiya o'zbek tilshunosligi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning katta qismini tashkil etadi. Terminologik sathga tegishli bo'lgan tizimlilik, barqarorlik xususiyatlari umumleksikaga oid birliklarni o'rganishda ham qo'llaniladi.

Tilning terminologik qatlami, shu bilan birga, ijtimoiy omillarga nisbatan sezuvchan tizim hamdir. Ayniqsa, dunyoda globallashuv va integratsiya jarayonida ilm-fanning ahamiyati ortib borayotganligi sababli terminologik sath eng o'zgaruvchan qatlamlardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbek terminologiyasi va terminografiyasi alohida yo'nalish sifatida XX asr o'rtalaridan boshlab qad rostlagan bo'lsa, uning nazariy tadqiqida sistem- struktur tilshunoslik an'alarining ta'siri yaqqol seziladi. Terminlarning semantik va sistemaviylik tabiati mazkur yondashuvga mos keladi.

Mustaqillik davrida terminologiyaning nazariy masalalariga nisbatan amaliy tadqiqotlarning ulushi ko'paygani tabiiy holatdir. Jahonning rivojlangan mamlakatlari safiga qo'shilish tendensiyasi katta oqimdagi terminlarni tartiblash, tarmoqlar ichida o'rganish ehtiyojini yuzaga keltirgan.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 21- oktabr 2019-yil, PF-5850-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/4561730>
2. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. I. – Тошкент: Фан, 1956; Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. II-III. – Тошкент: Фан, 1959. – 456 б.
3. Бектемиров Х., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. – Тошкент, 2002. – 80 б.
4. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари – Тошкент, 2017. – 384 б.
5. [https://olimlar.yozmanutq.uz/pdf/ Ренат.Дониёров.pdf](https://olimlar.yozmanutq.uz/pdf/Ренат.Дониёров.pdf); Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. (Октябрь революциясидан кейинги давр.) – Т.: Фан, 1977. 160 бет.
6. Маҳкамов Н. Илмий-индивидуал услуб // Ўзбек тили ва адабиёти, 2018. – № 6. – Б.12-15.
7. Бектемиров Х., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. – Т., 2002. – 65б.
8. Калонова Д. Ўзбек тилида компьютер луғатчилиги // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – №3. – Б.95-97.

ZAMONAVIY PSIXOLOG – PEDAGOGIK ADABIYOTLARDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING OILA BILAN O'ZAROHAMKORLIGI TUSHUNCHASI.

*Nazarov Anvarjon Tug'unboyevich,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
University of Business and Science*

*Mamadaliyev Kobil Kadirovich
University of Business and Science magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oiladagi ta'lim-tarbiyaning turli tuman sharoitlar ta'sirida bo'lishi bolalarni rivojlanishiga turlicha tavsir etishi, Bola hayotining dastlabki bosqichlarida oilaning tutgan o'rni, Ota-onalarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari bilan hamkorlik qilishga intilishlarini shakllantirish, kichkintoylarning birinchi tarbiyachisi sifatida oilani bola hayotidagi yetakchi o'rnini haqida nazariy ma'lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ota-onalar, Tarbiyachilar, Maktabgacha ta'lim tashkiloti, farzand tarbiyasi, barkamol shaxs, xulq-atvor, bilimli, dono , zukko, kasbiy mahorat.
**КОНЦЕПЦИЯ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ДОШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ С СЕМЬЕЙ В СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГО-
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.**

Аннотация: В данной статье влияние образования и воспитания в семье под влиянием различных региональных условий по-разному влияет на развитие

детей, роль семьи на ранних этапах жизни ребенка, формирование родительского мировоззрения. желание сотрудничать с работниками дошкольных образовательных организаций, теоретическая информация и практические рекомендации о лидирующем положении семьи в жизни ребенка как первого воспитателя малышей.

Ключевые слова: Родители, Воспитатели, Дошкольная образовательная организация, воспитание ребенка, всесторонняя личность, поведение, образованный, мудрый, умный, профессиональные качества.

CONCEPT OF INTERACTION OF PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION WITH FAMILY IN MODERN PSYCHOLOGIST-PEDAGOGICAL LITERATURE

Abstract: In this article, the impact of education and upbringing in the family on the influence of different regional conditions has different effects on the development of children, the role of the family in the early stages of a child's life, the formation of parents' desire to cooperate with the employees of preschool education organizations, theoretical information and practical recommendations about the leading position of the family in the life of a child as the first educator of babies.

Key words: Parents, Educators, Preschool education organization, child education, well-rounded personality, behavior, educated, wise, intelligent, professional skills.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ishi mazmuniga quyidagilar kiradi:

- ota-onalarga o'z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish;
- ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, malakalardan xabardor qilish (bolalarning yosh, anatomik-fiziologik va ruhiy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashning mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish);
- bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to'g'ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalari o'rganish va ommalashtirish.

Bola maktabgacha ta'lim tashkilotida egallagan eng yaxshi fazilatlarni oila sharoitida davom ettirib, oilada egallagan eng yaxshi fazilatlarni bolalar bog' - chasida namoyon qilsa istalgan ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Tarbiyachilar oila tarbiyasiga doir ijobiy ishlarni ko'ribgina qolmay, balki uni qo'llab-quvvatlash va shu asosida ota-onalar e'tiborini bola tarbiyasida hali hal etilmagan vazifalarga qaratishlari lozim. Yuqoridagi ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va ularga rahbarlik qilishda mudira javobgar shaxs hisoblanadi.

Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruhviy majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshik kunlari, suhbat va konsultatsiya, otaliq tashkilotlarda ko'rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo'yib berish, shuningdek, bu tadbirlarni o'tkazish vaqtlari va unga mas'ul bo'lgan shaxslar belgilanadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi-metodistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi.

Ota-onalar bilan ishlash bo'yichajuda ko'p ishlarni tarbiyachi - pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasida hamkorlik o'rnatishda mudira, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim otaonalami bog'chaga taklif etish, alohida esdaliklar va ko'chma papkalardan foydalanish.

Bolaning uyiga borishdan ko'zlangan maqsad — oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi, qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish, shuningdek, ota-onalarni bola tarbiyasining samarali usullari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarini o'rganib, ommalashtirishdir.

Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga borishdan awal o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak.

Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona birbirlarini yaxshi tushunishlari, ular o'rtasida ishonchli aloqa o'rnatilishi darkor. Oilaga borishdan oldin tarbiyachi shu oila to'g'risida (ota-onalarning fe'l-atvori, oilaviy munosabatlar, bolaning rivojlanish darajasi) to'g'risida ma'lum tasawurlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun awal ota-onalarga bolaning ijobiy fazilatlarini to'g'risida fikr, mulohazalarini bildiradi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalami o'qib va hikoya qilib berish mumkinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qatnashtirish, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni va usullari bo'yicha tavsiyalar beradi.

Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishida bolaning yoshi, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi. Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonarU bo'lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari maktab gacha ta'lim tashkilotiga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrga chiqishdan awal u qanday o'ynayotganini ko'radilar, bolalarning uquv va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar.

Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasi va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiliga kamida 2 marta borishi kerak.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rangbarang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;
- maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik ish rejasi to'g'risida;
- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi falsafiy yondashuvi ota-onalar bolalarni tarbiyalash uchun javobgardir va boshqa barcha ijtimoiy institutlar yordam berish, qo'llab-quvvatlash, yo'naltirish, ularning ta'lim faoliyatini to'ldirish uchun mo'ljallangan degan fikrga asoslanadi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktablar, jamoat tashkilotlari va davlat dasturlari kabi boshqa ijtimoiy institutlar ota-onalarning ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yordam berish va to'ldirish uchun mo'ljallangan. Ular bolalarning dunyoqarashini kengaytiradigan va tajribalarini boyitadigan qo'shimcha ta'lim imkoniyatlari, ixtisoslashtirilgan dasturlar va manbalarni taklif qilishlari mumkin.

Ushbu yondashuv bolani tarbiyalash oila va boshqa ijtimoiy institutlarning hamkorlikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladigan murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini tushunishga asoslangan. Oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zaro ta'siri sheriklik, o'zaro hurmat va ishonch tamoyillariga asoslanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ota-onalar farzandining judya yahshi biladi, shuning uchun ularning bilimi, tajribasi va qarashlari ta'lim dasturini rejalashtirish va amalga oshirishda hisobga olinishi kerak. Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik ota-onalar va tarbiyachilar bolaning umumiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun birgalikda ishlaydigan yagona ta'lim va ta'lim maydonini yaratishga imkon beradi.

Shunday qilib, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'zaro hamkorligini yangi falsafasi ota-onalarning bolalarni tarbiyalash uchun aniq javobgarligini belgilaydi, shu bilan birga boshqa ijtimoiy institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlash va hamkorlik muhimligini tan oladi. Ushbu yondashuv bolaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda yanada samarali va yaxlit rivojlanishiga va ta'lim va tarbiya jarayonida maqbul yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Milliy taraqqiyot yo'limizmi qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". Sh.Mirziyoyev. Toshkent 2017
2. "Erkin va farovondemokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Sh.Mirziyoyev
3. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib –intizom va shaxsiy rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Sh.Mirziyoyev
4. Q.Shodiyeva "Nutq o'stirish uslubiyoti" Toshkent 2009y.
5. "O'zbekiston Respublikasining ilk maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" Toshkent O'zRMTV 2018y.

6. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. Toshkent O‘zRMTV 2018y.

7. “Bolalar psixologiyasi” Noshir nashiriyoti Toshkent 2013.

KULFAT IJODINING O‘RGANILISHI

*Ahmadaliyev Lochinbek Muhammadyusuf o‘g‘li,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
nihcol95@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir Kulfatning o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rni, shoir hayoti va ijodi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, shoir ijodiy laboratoriyasi yuzasidan o‘z yechimini kutayotgan adabiy masalalar tahlili kabi mavzular yuzasidan so‘z boradi. Mazkur masalalar tadqiqida matniy-qiyosiy, biografik, formal va germeneytik metodlardan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: Kulfat, Sulaymonqul Rojiiy, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, devon, qo‘lyozma, avtograf, bayoz, nasta’liq.

ИЗУЧЕНИЕ СОЗДАНИЯ КУЛФАТА

Аннотация: В данной статье говорится о месте поэта Кулфата в истории узбекской литературы, проводимых научных исследованиях жизни и творчества поэта, анализе литературных проблем, ожидающих своего решения в творческой лаборатории поэта. При изучении этих вопросов использовались текстосравнительный, биографический, формальный и герменевтический методы.

Ключевые слова: Кулфат, Сулаймонкул Раджи, текстоведение и литературное источниковедение, диван, рукопись, автограф, баяз, насталык.

STUDY OF CREATION OF KULFAT

Annotation: This article talks about the poet Kulfat’s place in the history of Uzbek literature, the scientific research conducted on the poet’s life and work, the analysis of the literary problems awaiting their solution in the poet’s creative laboratory. Textual-comparative, biographical, formal and hermeneutic methods were used in the study of these issues.

Key words: Kulfat, Sulaymonkul Radji, textual studies and literary source studies, divan, manuscript, autograph, bayaz, nastalyk.

Kirish.

Kulfat ijodi o‘zbek adabiyoti tarixida eng kam tadqiq etilgan adabiy masalalardan bo‘lib, uning hayoti va adabiy merosi yuzasidan dastlabki qadamlar matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasida adabiyotshunos olimi Mavjuda Hamidova tomonidan amalga oshirilgan ishlar sanaladi. Olimaning ushbu tadqiqotidan so‘ng hali-hanuz mazkur shoir ijodi o‘z tadqiqotchisini kutib kelmoqda. O‘z navbatida, M.Hamidovanning o‘zbek adabiyotshunosligiga qo‘shgan eng katta xizmatlaridan biri shoir Kulfat ijodini ilmiy jamoatchilikka tanishtirganligi, shoir asarlarini nashr etganligidir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Shoir ijodi yuasidan ma'lumot beruvchi manbalar O'zR FA ShI Qo'lyozmalar fondi №2030, №2852 inv.raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma devonlar tashkil etadi. Shuningdek, ushbu tadqiqot institutida fondida mavjud bo'lgan №7512, №97, Qo'qon adabiy muhiti vakili Sulaymonqul Rojiy qalamiga mansub "Bayozi Rojiy" singari bayozlarga ham shoir she'rlaridan namunalar kiritilgan. Mazkur manbalar o'rtasidagi integral va differensial jihatlar kontekstual, qiyosiy tipologik, germeneytik metodlar asosida yoritishga harakat qilindi.

Natijalar

Olingan natijalar quyidagi besh guruhga klassifikatsiya qilindi:

1. Shoir ijodi yuzasidan faqat matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasidagina dastlabki tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, hozircha shoir devonining ikkita qo'lyozma nusxasi, shuningdek, shoir ijodidan namunalar kiritilgan uchta bayoz aniqlangan. Bu esa shoir ijodi bo'yicha qo'shimcha izlanishlarni talab etadi.

2. Mazkur manbalar asosida M.Hamidova tomonidan shoir devoni nashr etilgan bo'lib, ushbu manbalar va nashr o'rtasida matniy-qiyosiy tadqiqni to'laqonli amalga oshirish shoir ijodi yuzasidan muhim ma'lumotlarni beribgina qolmay, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasi bo'yicha ham muhim ilmiy qadamlardan biri bo'ladi.

3. Shoir asarlarining qo'lyozma va toshbosma manbalarini yurtimizning turli viloyatlaridagi fondlari, shuningdek, xorijdagi qo'lyozma va toshbosma fondlardan ham manbashunoslik nuqtai nazaridan izlash, topish, umumlashtirish, ishonchli va tayanch nusxani aniqlash kabi adabiy manbashunoslik tadqiqotlarini amalga oshirish zarur.

4. Shoir asarlarining matniy tadqiqi asosida devonining ilmiy-tanqidiy matnini tuzish lozim.

5. Shoir ijodi mavzu ko'lami va janrlar rang-barangligi bo'yicha o'ziga xoslik, individuallik kasb etib, shoir ijodining spetsifikasi, adabiy ta'sir va izdoshlik masalalari, shoirning poetik mahorati, asarlaridagi uslub va kompozitsiya masalasi, obrazchilikdagi yondashuvi kabi masalalar yuzasidan ham tadqiq etish adabiyotshunoslik fani uchun muhim samara beradi.

Muhokama

Shoir Kulfat XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida Toshkentda yashab, ijod etgan shoirlar sirasidan bo'lib, o'ziga Kulfat, Kulfatiy, Mirzo Kulfa taxalluslarini qo'llagan. Uning asl ismi hozirga qadar noma'lum. M.Hamidova o'rganguniga qadar shoir ijodi keng jamoatchilikka deyarli noma'lum bo'lgan. Olima 1979-yilda shoirning tatabbu' g'azallardan iborat qo'lyozma devonini topishga muvaffaq bo'lgan. Hozirgi kunda ushbu nodir qo'lyozma manba O'zR FA ShI Qo'lyozmalar institutida 2030-raqam ostida saqlanmoqda.

M.Hamidova shoir ijodi yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini izchil va tizimli ravishda davom ettiradi hamda buning natijasida 1982-yilda Kulfatning uch yuzdan ortiq she'rlari jamlangan yana bir devonini qo'lga kiritadi. Hozirda ushbu manba O'zR FA ShI Qo'lyozmalar institutida 2852-raqam ostida saqlanmoqda.

M.Hamidova shoir asarlarini yaxlit to'plam holiga keltirish maqsadida

izlanishlarini davom ettiradi. Qo'lyozmalar institutidagi barcha manbalarni ko'zdan kechirib chiqadi. Biroq shoir qalamiga mansub biror devon yoki she'riy to'plam uchramaydi. Shundan so'ng tazkira, bayoz, she'riy to'plamlardan shoir ijodiga mansub she'rlarini qidirishga tushadi. Buning natijasida XIX asr Qo'qon adabiy muhiti vakillaridan biri sanalgan Sulaymonqul Rojiiy tomonidan tuzilgan qo'lyozma bayoz tarkibida shoirning tojik tilida bitilgan bir g'azali va ruboiysi mavjud ekanligini aniqlaydi. Bundan tashqari, ushbu institut qo'lyozmalar fondida 7512- raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma bayoz tarkibidan bir g'azal, 974-raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma bayozdan esa to'qqizta g'azalini topishga muvaffaq bo'ladi.

Shoir she'rlarining o'z hayotlik davri va o'zidan keyin tuzilgan qo'lyozma bayozlarga kiritilishi uning o'z davri adabiy jarayonida alohida poetik mahoratga ega bo'la olganligi hamda mazkur tarixiy-adabiy davrda o'z o'rnini va mavqeyiga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu omillar ham shoirning nechog'lik o'tkir qalam sohibi ekanligining isbotidir. Shu bilan bir qatorda, M.Hamidovanning ham ushbu shoir

ijodiy ko'lamini belgilash hamda keng jamoatchilikka taqdim etish yo'lidagi sa'y- harakatlarining to'g'ri tanlanganligini ko'rsatib beradi.

Shoirning so'nggi topilgan 2852-raqamli qo'lyozmasiga g'azal, muxammas, marsiya janrlarida yozilgan she'rlar jamlangan. Qo'lyozma bus-butun holida bizgacha yetib kelmagan. Uning so'nggi varaqlari va xotima bitilgan sahifa yirtilib tushib qolgan. Qo'lyozma uringan holida yetib kelgan. Bu ham shoir ijodiga ko'plab murojaatlardan, uning qo'lyozmasidan ko'plab foydalanganligidan dalolat berib turadi. Qo'lyozma to'liq saqlanib qolmaganligi uchun uning qachon, qayerda, kim tomonidan ko'chirilganligi noma'lum. Ammo M.Hamidova qo'lyozmaning ichki muqovasiga bitilgan hijriy 1244-yil sanasi (milodiy 1826-yil)dan kelib chiqib shoirning yashagan davrini XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi deb taxminiy baholagan.

Qo'lyozmaning ko'rinishi: muqovasi, bezaklari, xat uslubi va boshqa paleografik xususiyatlari uning Toshkentda kitobat qilinganligini ko'rsatadi. Qo'lyozma jami 216 sahifadan tashkil topgan. She'rlar Markaziy Osiyo hududlarida urf bo'lgan yozuv turi – nasta'liqda bitilgan bo'lib, o'rnini bilan shikasta xatiga ham murojaat etilgan.

Qo'lyozma devon tipida bo'lib, an'anaga muvofiq, misralarning so'nggi harfi bo'yicha avval g'azallar, so'ng muxammaslar, undan keyin marsiyalar joylashtirilgan.

Mazkur manbalar olimaga shoirning shaxsiyati, ijodiy ko'lami haqidagi fikr-mulohazalarining shakllanishiga, uning o'z davri adabiy jarayonidagi o'rnini belgilashiga asos bo'lib xizmat qiladi. Chunonchi, "Shoir Kulfat", "Shoir Kulfatning yangi devoni" maqolalarini e'lon qiladi.

M.Hamidova shoirning tug'ilib, istiqomat etgan joyini belgilashda bir qator omillarni hisonga olgan. Jumladan, shoir devonidan o'rin olgan quyidagi misra ham uning aynan Toshkent shahridan ekanligini ko'rsatadi:

اي تي تاشكند منز يليمني از لدين نيلي نيتي كلفت ايمز مومكين اوچماقليغيم هم بولسه قناتيم

Qanotim bo'lsa ham, uchmoqlig'im mumkin emaz, Kulfat, Netay, naylay, azaldin manzilimni Toshkand etti.

Shoirning ushbu misralari mazkur tarixiy davrdagi Toshkentning siyosiy-

ijtimoiy hayotini ham o'zida ifodalaydi. Ma'lumki, XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkent Shayxontohur, Beshyog'och, Ko'kcha va Sebzor dahalariga bo'linib, daha boshliqlari o'rtasida o'zaro ichki kurashlar oddiy xalq ommasini jondan to'ydirgan. Bundan bezigan xalq qolgan daha boshliqlarini hokimlikdan tushirib, 1784-yilda Shayxontohur hokimi Yunusxo'ja boshchiligida yagona Toshkent hokimligini tuzishadi. Biroq 1799-yildan Qo'qon xonligining Toshkentga yurishlari boshlanib, 1809-yilda hokimlik butunlay xonlik tasarrufiga o'tadi. 1842-yildan to 1865-yilda Chor Rossiyasi Toshkentni bosib olguniga qadar shahar Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi talash hududga aylanadi va buning oqibatida shahar va uning aholisi tinimsiz bosqin hamda talon-tarojlar girdobida qoladi. Shoirning ushbu misralari ham mana shu suronli yillardan hikoya qilmoqda. Shu misralarning o'ziyiq Kulfatning mana shu davr farzandi ekanligini ko'rsatib turadi.

Shoir she'rlarining g'oyaviy mazmun-mohiyati uning hayoti va u yashab ijod etgan ijtimoiy muhit bilan chambarchas aloqador ekanligini o'z tadqiqotlarida aniqlagan olimlar shoir she'rlarida voqelikka, o'z davri illatlariga, inson va uning taqdiriga munosabati masalasi, shoir tarjimai holiga oid materiallar hamda hayotiy mushohadalarga o'z diqqat-e'tiborini qaratadi.

Xususan, shoir she'rlarining tili, g'azallar tarkibidagi arabcha misra va iboralar, Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardan olingan hall va darj iqtiboslardan kelib chiqib uning madrasa tahsilini olganligini; yana xuddi shunday matnlarga tayangan holda uning fors va arab tillarini mukammal bilganligi, ozar tilidan xabardorligini ham ta'kidlagan. Darhaqiqat, shoir o'z she'rlarida, eng avvalo, Alisher Navoiyga ergashganiga guvoh bo'ladigan bo'lsak, nazir avval taxmislar borasida ulug' salaf shoirlardan ikkinchi bo'lib, Fuzuliy turadi. Qolaversa, she'rlari kiritilgan bayozlarda shoir taxallusining Mirzo Kulfat deb berilishi uning nozik didli ijodkor bo'lish bilan birga o'z davrida kotiblik faoliyati bilan ham shug'ullanganligiga ishora deb bilishimiz mumkin.

Shoir she'rlari matnida yana shu narsa anglashiladiki, uning ota-onasi ham shoirning o'zi kabi moddiy nochor bo'lib, o'ta qiyinchilikda kun kechirgani anglashiladi. Quyidagi baytda shoir oilasining bir amaldor eshigida xizmatda bo'lganligi aytiladi:

كلفتا شاه قاشيده قلوب ايمس سيندين غريب كيم آتنگ هم سين كبي قلدور آننگ باردور كنيز

Kulfato, shah, qoshida qulluq emas sendin g'arib, Kim, otang ham sen kibi quldur, onang bordur kaniz.

Kulfat o'z she'rlarining bir qancha o'rinlarida o'zlari xizmat etgan amaldorni "shoh", "shoh xoja Sulton", "xoja" nomlari bilan keltirganini aytgan olimlar uning asl ismi va qaysi lavozim egasi bo'lganligi noma'lumligicha qolayotganligini ta'kidlaydi. Biroq shoir yuqoridagi o'rinda o'z otasini qul, onasini esa kaniz deb atamoqda. O'zini ham ulardan biri ekanini aytmoqda. Ushbu badiiy tasvirning o'ziyiq shoir moddiyatini ochiq-oydin ko'rsatib beradi.

Shoirning ushbu amaldorga moddiy tomondan bog'liqligi sababidan ham Kulfat "xojaning dunyosi bor", "Kulfatda xojaning tamg'osi bor" lafzlarini ishlatadi:

جانغه ييتكچ داغي اولدي جاكې كويي مسكنيم خوانده بارسون اول كوليكيم حواجه دين تمغاسي بار
هر كيشينينگ چرخ كويدوردي بر اوت بلان مودام كلفتينينگ دردو داغي حواجه نينگ دونياسې

بار

Jong'a yetkach dog'i o'ldi xoki ko'yi maskanim, Xonda borsun ul kulekim, xojadin tamg'osi bor.

Har kishining charx kuydurdi bir o't birlan mudom, Kulfatining dard-u dog'i, Xojaning dunyosi bor.

Shoirning she'rlaridan uning oilali ekanligi, farzandlari borligi ham ma'lum bo'ladi. Masalan, 2852-raqamli qo'lyozma devon tarkibidagi "qulunum" radifli she'r marsiya janrida yozilgan bo'lib, shoir o'z qizining vafotiga bag'ishlaganligi she'r matnididan yaqqol sezilib turadi. Qolaversa, "qulunum" so'zining qo'llanilishi uning ancha yosh paytlarida dunyoni tark etganligini ko'rsatadi.

زمانه ميهنتيدىن كىمگه ايلايىن فرىاد كىلىپ جهانگه دىمى غمدىن اولمىدىم آزاد
سويوب براونى ولي بولمىدىم وسالىغە شاد نىيتىكى ايردى ازلدن فلكه بو معتاد
فغانكى تاپمىدىم افلاكدين امان قولونوم مكان قىلدى بىر آستينه چرخى جولانيم محبوت ايتى شرف
اوجى مهي تابانيم
سنوبريم چمنيم گلبنوم گلستانيم حيا باقىشلى ادب پيشه لى سيور جانيم
لتيف سوزلى قرا كوزلى خورددان قولونوم

Zamona mehnatidin kimga aylayin faryod, Kelib jahonga dame g'amdin o'lmadim ozod, Suyub birovni, vale bo'lmadim visolig'a shod, Netayki, erdi azaldin falakka bu mu'tod, Fig'onki, topmadim aflokkin amon, qulunum. Makon qildi yer ostina charxi javlonim, Mahbut etti sharaf avji mahi tobonim, Sanavbarim, chamanim, gulbunim, gulistonim, Hayo boqishli, adab peshali sevar jonim,

Latif so'zli, qaro ko'zli, xurdaton qulunum.

Kulfat she'rlari uning tanholikda yashaganidan, g'aribona turmush kechirganidan, ayniqsa, bemor bo'lib, boshi yostiqqa yetganda holini so'rovchi bir mehribon kimsasi yo'qligidan, munisi "dar-u devor" bo'lganidan hikoya qiladi:

بيكسليگىم اول نعوكى حاليم كيشى سورمز همدم يوقيدىن مونىسىم اولدى درو ديوار

Bekasligim ul na'vki, holim kishi so'rmaz, Hamdam yo'qidin munisim o'ldi dar-u devor.

Boshqa bir o'rinda esa hamdard bo'ladigan do'stga zorligi, ag'yorlar ta'nasidan zoda bo'lganligi to'g'risida shunday yozadi:

مينىكم بر بيكسو آورە گيردى موستمند هسرتيم بىجد غمىم سد قرا بختيم سرنند
دوست ببيرواليغيدىن باشيمه يوز مينگ بلا تعنه يي اغياردين كوكسوم اوزه يوز مينگ گزند

Menikim bir bekas-u ovora girdi mustamand, Hasratim behad, g'amim sad, qaro baxtim sarand. Do'st beparvolig'idin boshima yuz ming balo, Ta'nayi ag'yordin ko'ksun uza yuz ming gazand.

Shoir she'rlarida bir necha o'rinda Yorkand shahri tilga olinadi. Aftidan, shoirning u yerda qarindoshlari yoxud Toshkentda tanishgan yoki birga o'sib Yorkandga borib qolgan yaqin do'st-u birodarlari mavjud bo'lib, shoir musibatli, kulfatli, og'ir turmushidan bir nafas bo'lsa-da nari bo'lish maqsadida Yorkandga borishni orzu qilgan. Biroq bu amalga oshmagan. Shoir hayotida qiyinchiliklar, turmush mashaqqatlari ko'p bo'lganligi sababidan ham o'ziga Kulfat taxallusini qo'llagan.

Kulfat tatabbu'lari hamda devoni tarkibidan joy olgan she'rlari mazmunidan shu narsa anglashiladiki, shoir ijodining katta qismi uning keksaygan chog'larida,

hayotning achchiq-chuchugini totib ulgurganidan keyin yozilgan bo‘lib, ko‘p g‘azallarida ko‘zidan nur, belidan quvvat ketgani, soch oqarib, ko‘z tiyra bo‘lgani haqida yozadi:

رحم اي گردون قريليغ وقتي قوت قالمدى ايمدى ميهنت يوكيني چيكمكه كيمني حالي بار

Rahm, ey gardun, qarilig‘ vaqti quvvat qolmadi, Emdi mehnat yukini chekmakka kimni holi bor?23 Yana bir o‘rinda:

قدینگ خم اولدی قریلیغده چنگتیک کلفت ایمس موناسیب حالینگ سدایی چنگو رواب

Qading xam o‘ldi qarilig‘da changtek, Kulfat, Emas munosib holing sadoyi chang-u rubob.

Kulfat ijodida ishq mavzusi eng yuqori o‘rinni egallasa, undan keyingi masala sifatida shoir ijodida ijtimoiy-siyosiy muammolar turadi. Shuning uchun ham M.Hamidova shoir ijodida ham intim lirika, ham ijtimoiy lirika birdek bo‘y ko‘rsata olgan deb baholaydi. Darhaqiqat, shoir o‘z davri ijtimoiy muammolariga ko‘z yumib keta olmaydi. Ularni teran nigoh bilan mushohada etadi, yechim izlaydi, xalq dardiga kuyunadi.

Ishqiy mavzudagi she‘rlarida esa Sharq mumtoz adabiy an‘analaridan borib lirik qahramon orqali ma‘shuqaning ta‘rif-u tavsifini keltiradi, uning beparvoligi va raqibga iltifotidan kuyunadi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, shoir badiiy ijodi musulmon Sharq an‘anaviy she‘riyati, xususan, Alisher Navoiy ijodi ta‘sirida shakllangan bo‘lib, Kulfat Hazrat Navoiy izdoshlaridan biri sifatida ulug‘ mutafakkir shoir ijodiy merosiga yuksak san‘atkorlik ko‘zi bilan qaragan, ulardan ilhomlangan, undagi tengsiz va g‘oyat teran ma‘nolarni o‘zlashtirishga harakat qilgan. Alisher Navoiy g‘azallarini sevib mutolaa qilishi, undan ijod namunalarini o‘rganishi natijasida Kulfat buyuk shoirning 162 g‘azaliga tatabbu‘ bog‘lagan.

Tatabbu‘lar Alisher Navoiyning XIX asr oxirlarida kitobat qilingan “Terma devoni” hoshiyasiga yozilgan26. M.Hamidova ham ilk bor shoir she‘rlari bilan Alisher Navoiyning mazkur devonini matniy tadqiq etish jarayonida tanishadi. Shoir she‘rlarini o‘rganish barobarida qo‘lyozma hoshiyalaridagi she‘rlar Hazrat Navoiyga tegishli bo‘lmay, balki uning she‘rlariga bitilgan tatabbu‘lar ekanligini payqaydi hamda maqta’dagi taxallusdan ularning muallifi Kulfat taxallusli shoir ekanligini aniqlaydi. Sinchkiblab kuzatish natijasida shoirning ulug‘ salafi ijodiga bitgan tatabbu‘lari devon shaklida joylashtirilganligiga, hoshiyalarga bitib chiqilganligiga guvoh bo‘ladi va aynan ushbu “Terma devon”ga kiritilganiga birinchidan, shoir ijodidag tatabbu‘lar ekanligi, ikkinchidan, tatabbu‘larning “Terma devon” vujudga keltirilgan XIX asrda yozilganligi bilan izohlaydi. Mana shundan so‘ng hoshiyadagi she‘rlar matniga tayanib shoir haqida ma‘lumotlar to‘plashga kirishadi. Shuning barobarida mazkur she‘rlarni tabdil qilish hamda shoir ijodi bo‘yicha boshqa materiallarni izlashga kirishadi.

Xulosa.

Shoir ijodi yuzasidan bildirilgan ushbu fikrlar adabiyotshunoslik sohasida qo‘shimcha izlanishlar olib borish, shoir asarlarini chuqur tahlil qilish va ularning matniy va tarixiy manbalarini topish zaruratini ta‘kidlamoqda. Shoir devonining adabiy nashri, uning qo‘lyozma va toshbosma manbalarini matniy-qiyosiy tadqiq etish, shuningdek, shoir ijodini to‘liqroq tushunish uchun izlanishlar olib borish

zarurligini ko'rsatadi. Qolaversa, tadqiqotlar nafaqat matnshunoslik, balki adabiy manbashunoslik sohasiga ham katta hissa qo'shadi. Shoirning poetik mahoratini, uning ijodidagi uslub va kompozitsiya masalalarini chuqur tahlil qilish adabiyotshunoslik fani uchun muhim natijalar beradi.

Shoir ijodini ilmiy yondashuv bilan tadqiq qilish, uning poetik mahorati va uning adabiy ta'sirini to'liq anglash imkonini beradi. Bu tadqiqotlar shoir asarlarini yangi nuqtai nazardan ko'rishga yordam beradi va ilmiy jamoatchilikka muhim ma'lumotlar taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kulfat. Devon. –Toshkent: O'zR FA ShI Qo'lyozmalar instituti, №2030.
2. Kulfat. Devon. –Toshkent: O'zR FA ShI Qo'lyozmalar instituti, №2852.
3. Sulaymonqul Rojiy. Bayozi Rojiy. –Toshkent: O'zR FA ShI Qo'lyozmalar instituti, №5523.
4. Bayoz. –Toshkent: O'zR FA ShI Qo'lyozmalar instituti, №7512.
5. Bayoz. –Toshkent: O'zR FA ShI Qo'lyozmalar instituti, №974.
6. Хамидова М. Шоир Кулфат. –Тошкент: Адабий мерос, 1980. №1 (№13). –Б.35-42.
7. Хамидова М. Шоир Кулфатнинг янги девони. –Тошкент: Тошкент оқшоми, 1982. №3. –Б.47-53.

TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIADAN FOYDALANIB DARS O'TISHNING AFZALLIGI

Avazbekova Shohsanam Nurmamat qizi
University of Business and Science o'qituvchisi
shohsanamavazbekova807@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida multimedidan foydalanib dars o'tishning afzalliklari haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari multimedia vositalarini maqsad va vazifalari, xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Multimedia, zamonaviy texnologiya, kompyuter vositalari, usul, uslub, ilmiy dunyoqarash.

ПРЕИМУЩЕСТВА ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация: В данной статье говорится о преимуществах обучения с использованием мультимедиа в образовательном процессе. Кроме того, анализируются цели и функции мультимедийных средств.

Ключевые слова: Мультимедиа, современные технологии, компьютерные средства, метод, стиль, научное мировоззрение.

THE ADVANTAGE OF LEARNING USING MULTIMEDIA IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation: This article talks about the advantages of teaching using multimedia in the educational process. In addition, the purposes and functions of multimedia tools are analyzed.

Key words: Multimedia, modern technology, computer tools, method, style, scientific outlook.

Kirish.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga eng kata ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida ham rivojlanib borayotgan multimedia texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida mavjud bo'lib, yetakchi o'rinlarni egallamoqda. "Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini" ta'kidladi. Shu boisdan multimedia texnologiyalarini dars jarayonlarida qo'llash orqali darsni mazmunli tashkil etilmoqda.

Hozirgi kunda ilg'or pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiyasidan foydalanish, keng ko'lamda joriy etish bo'yicha chora tadbirlarni ishlab chiqish taqazo etilmoqda. Bundan tashqari ko'plab kompaniya va firmalarda seminarlar, uchrashuvlar, treninglar va boshqa tadbirlarni o'tkazishda kompyuter texnologiyalardan foydalanilmoqda. Bunda ma'lumotlar mazmunga. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Ta'lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokamasi". Prezident videoselektori. 30 Oktabr 2020 5312 bor, sifatli, esda qoladigan va ko'rgazmali bo'lishi uchun ko'proq multimedia texnologiyalari ishlatiladi. Bunday texnologiyalar yaxshi natijalar ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Hozirgi bosqich maktabning eng muhim vazifasi-o'quv jarayonini yaxshilash, o'quvchilarning rivojlanishiga zamin bo'la oladigan sifatli ta'limni yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada butun dunyo olimlari o'z qarashlariga ega. Multimedia darslarida foydalanish ayniqsa boshlang'ich sinflarda dolzarbdir. K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek: "Bolalarning tabiati aniqlik talab qiladi" [20]. P.I.Patkasisti va M.L.Portnov (2008) "Ta'lim san'ati" kitobida foydalanishda shunday deydi "Vizual vositalar yordamida siz mutanosiblikni his qilishingiz va ular bilan darsni ortiqcha yuklamasligingiz kerak, chunki Bolani o'quv jarayonida chalg'itadi va kerakli effektini bermaydi" [13]. V.P.Goroshchenko va P.L.Stepanov (2004), o'qituvchi o'qitishning barcha turlari, usullari va shakllarini o'zlashtirishi, ularni qo'llay olishni zarurligini ta'kidlaydi. [5]. Multimedia texnologiyasidan va uning asosiy vositasi bo'lgan kompyuterlardan MTTlarning ta'lim-tarbiya jarayoniga foydalanish bo'yicha xorijiy mamlakatlar (masalan, Rossiya) ning olimlaridan S.V.Gurev, N.Z.Frolova, N.I.Klifsova, V.P.Kustova, L.A.Savina, N.M.Klimeshova, M.V.Osmakovalar, AQShda multimedia texnologiyasidan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha D.Jonassen, R.Grabindger, S.Carver, R.Lehrer, D.Davidson, A.Mullon va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarni amalga oshirganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga

har bir dars jarayonida vizual vositalardan foydalanib darsni qiziqarli va noananaviy tarzda tashkil qilishga va o'quvchilarni kreativ fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga, dars samaradorligini yaxshilashga imkon beruvchi yo'llarni ochib berish borasida amaliy va nazariy ma'lumotlar berilgan.

Tahlil va natijalar.

Boshlang'ich sinf darsliklarida berilayotgan mavzular rasmi, rangli, o'quvchilarga qiziqarli tarzda ishlab chiqilayapti. Lekin matn asosida berilayotgan nazariy ma'lumotlarning kamligi, o'qituvchi savoli va o'quvchi javobi yetarli darajada yoritib berilmayotganligini bartaraf etish uchun qo'shimcha tarzda multimedia vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun darslik va mavzular yuzasidan qo'shimcha multimedialarni yaratishi va elektron darsliklardan foydalanib darsni qiziqarli tashkil qilish, dars samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. (multimedia)— kompyuterning matn, grafik, tovushli va videoma'lumotlar bilan ishlashga imkon beruvchi qurilmasi. Odatda multimedia deganda matn, ovoz, grafika, videotasvir va fazoviy modellash kabi ma'lumotlar taqdim etish jarayonini kompyuter tizimidagi birlashishi tushuniladi.

Hozirda deyarli barcha kompyuterlar multimedia qurilmalar bilan ta'minlangan. Multimedia qurilmalar standartiga grafik tezlatgichlar va katta hajmli universal kompakt disk ham qo'shildi.

Mediata'lim- pedagogikada yangi yo'nalish bo'lib, kommunikatsiya (aloqa) ko'pchilik aloqa kommunikatsiyalarini o'quvchilar tomonidan o'rganishni e'tiborga oladi. Ya'ni: matbuot, televidenie, radio va boshqalar. Ta'limda mediata'lim vositalari sifatida axborot muhiti elementlari: darslik, ko'pchilik axborot vositalari (nashriyotlar, radio, televideniya), video, kompyuter o'qitish dasturlari va o'yinlar, multimedia, Internet axborot setlari (turkumlari) foydalaniladi.

Nega fan ta'limida multimediadan foydalanish kerak?

“Ommaviy axborot vositalari va texnologiyalarning global madaniyatga yaqinlashishi bizning dunyo haqidagi bilimlarimizni o'zgartirmoqda ta'limning asoslarini shubha ostiga qo'yochib beradi. Endi so'zni o'qish yetarli emas; bolalar, yoshlar va kattalar ham multimedia madaniyatining kuchli tasvirlarini tanqidiy talqin qilish qobiliyatiga muhtojdirlar bu esa bir nechta ommaviy axborot vositalarida o'zini namoyon qiladi. Media savodxonligi bu bo'yicha ta'lim sohasini yangi zamonaviy pedagogikani yaratilishini ta'minlaydi va XXI asrda yashash, ishlash va fuqarolik uchun zarur bo'lgan yangi savodxonlik shakllanishiga turtki bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari, u o'zlashtirishga yo'l ochadi doimiy o'zgaruvchan va yangi innovatsiyalar bilan kuchayib borayotgan dunyodagi jamiki insoniyatni umrbod ta'lim olish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni yaratib boradi.

Mediata'lim mazmuni quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Axborot vositalari kanallar orqali beriladigan axborotni o'zlashtirish, qayta ishlash;

2. Kompyuterlar, modemlar, fakslar, multimedialar va boshqalarni ishlatish orqali kerakli axborotni qabul qilish, uzatish, tayyorlash va izlash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish.

Media (lotincha, tesia) – axborot tashuvchi vositadir. Multimediali video ma'lumotlarni qabul qiladi va ular ustida ishlaydi.

Multimedia tushunchasi hayotimizga 90-yillarning boshlarida kirib keladi. Multimedia texnologiyalariga qiziqish amerikalik kompyuter mutaxassisi Bil Geytsning nomi bilan bog'liq. Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turli xil izoxlamoqdalar. Ularning fikrlarini umumlashtirib multimediyaga shunday ta'rif berish mumkin: multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga etkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada o'zoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75 % ortadi.

1-jadval O'quvchilar uchun multimedia darslarining afzalligi va imkoniyatlari

Multimedia darslarining Afzalligi	Multimedia resurslari imkoniyatlari
Berilayotgan materialni chuqurroq, mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;	O'quv-uslubiy axborotlariga kengaytirad kirish multimedia imkonini
Ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi	O'quvchilarda kommunikativ malakalarni, muomala madaniyatini, multimedia axborotlarini izlash o'quvini shakllantiradi
Ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;	Tezkor maslahat yordamini tashkil etadi
Olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanadi	Masofaviy ta'limni tashkillashtiradi
Amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lindi	Masofaviy ta'limni tashkillashtiradi

1-jadval

Asosiy fan o'quv dasturining bir qismi sifatida multimedia resurslaridan foydalanish:

- Ilmiy g'oyalar va tushunchalarni ko'rgazmali ko'rsatish
- O'quvchilarda atrofdagi dunyoga nisbatan hayrat va hayajon tuyg'ularini singdirish
- Mahalliy aholi yashaydigan hududlarni misollar orqali taqdim etin
- Ilm-fan bilan shug'ullanadigan haqiqiy odamlarga misollar keltiring
- O'quvchilarni fan sohasiga qiziqishini shakllantirish
- Mavzu bo'yicha joriy tadqiqotlar, nazariyalar va istiqbollarni taklif qilish
- O'quvchilarni uzoq yoki borish qiyin bo'lgan joylar bilan bog'lang

- 21-asr ko'nikmalarini, jumladan, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish

- Barcha o'quvchilar tomonidan umumiy tajribani taqdim eting

Ilmiy hamjamiyat tomonidan qo'llaniladigan vositalarni yaxshiroq takrorlash uchun o'qitish strategiyalarimizni moslashtirganimizda, biz o'quvchilarimizning o'zlarini tasavvur qilish qobiliyatini oshirish va ular bilishi kerak bo'lgan ko'nikmalarni oshirishimiz va o'zlarining umrbod ta'lim olishlarida faol ishtirokchilar sifatida namoyon qilishimiz mumkin bo'ladi.

Ta'limda multimedia ilovalarining maqsad va vazifalarini, multimediani o'quv jarayonida tutgan o'rni, ularning tamoyillari, modellari, ta'limiy multimedia ilovalarining o'quv-metodik, texnik ta'minoti to'g'risida bilimlarga ega bo'lishi, multimedia haqida bilim olish, ta'limiy multimedia ilovalari uchun o'quv-metodik materiallar tayyorlash, ta'lim tizimida multimediali yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish, multimediali ta'lim platformalari va ularda elektron resurslarni yaratish malakalariga ega bo'lishdan iborat.

Multimediali o'yinlar – shunday o'yinlarki, ularda foydalanuvchi kompyuter yordamida yaratilgan virtual vositalar yordamida dasturiy vosita bilan muloqotda bo'ladi. Virtual vosita holati foydalanuvchiga turli xil axborot uzatish usullari (ovozli, visual, taktil, ya'ni sezgi organlari orqali uzatish) bilan beriladi. Hozirgi vaqtda kompyuterlardagi deyarli barcha o'yinlar multimediali o'yinlar hisoblanadi.

Interfaollik talabani ta'lim jarayoniga qo'shilishiga yordam beradi, bilim olish uchun motivatsiyani qo'llab-quvvatlaydi va kognitiv faollikni rag'batlantiradi. Nafaqat multimedia darslari interaktiv bo'lishi mumkin. Ammo o'qituvchi interaktiv multimedia ob'ektlaridan foydalangan holda o'z imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishi mumkin.

Turli xil o'quv vositalaridan, jumladan, multimediyadan foydalanishda interaktivlikning uch turi mavjud: reaktiv o'zaro ta'sir, faol o'zaro ta'sir, ikki tomonlama o'zaro ta'sir.

Reaktiv o'zaro ta'sirda talabalar o'zlarining ma'lumotlarga (reaksiyaga) munosabatini ko'rsatishlari mumkin, lekin shu bilan birga dasturni boshqarish imkoniyati kam.

Faol o'zaro ta'sir - bu materialning tezligini, hajmini va uni o'rganish ketma-ketligini tanlash orqali resursni boshqarish mumkin bo'lgan variant.

Ikki tomonlama nazorat bilan dastur uni boshqaradigan talabalar ehtiyojlariga moslashadi.

Multimedia darsining afzalliklari imkoniyatlarni kengaytirish va quyidagi muammolarni hal qilishdir:

Texnik imkoniyatlar: turli ob'ektlarni, tabiiy hodisalarni, jarayonlarni tasavvur qilish mavhum tushunchalarni aniq qilish uchun jarayonlarning dinamik tasviridan foydalanish.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Multimedia dasturlari orqali tabiiy fan darslarida o'qitish o'quv materialining mazmuniy komponentlarini keng

ko'lamda tizimga keltirishga ko'maklashadi, o'quvchilar atrof-olamni rangli rangtasvirlar orqali ko'rishi, ya'ni hayolan emas balki multimedia dasturlari orqali kpo'rishi va uni tahlil qilishi ta'lim oluvchilarga ta'limning to'liq yoki qisqartirilgan variantlarini erkin tanlash va o'tish imkonini beradi. Ta'lim vositalarining yangi shakli nafaqat muloqot, axborotlarni uzatish uchun yangi imkoniyatlarning vujudga kelishiga, balki an'anaviy ta'lim va ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o'zgacha o'rin olgan yangi muammolarning, yechimlarning, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi. o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda kompyuterdan ko'rgazmali vosita va o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishga mo'ljallangan didaktik o'quv materiallari, o'zini-o'zi nazorat qilish, ixtirochilik qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan ijodiy texnologik obekt sifatida foydalanishga e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Ta'lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokamasi". Prezident videoselektori.
2. Ta'limda multimedia texnologiyalaril fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tqazish bo'yicha uslubiy qo'llanma 1-qism, —ALOQACHIl nashriyot-matbaa markazida chop etildi, Toshkent – 2015 yil.
3. Ishmuxamedov, R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar: ta'lim muassalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar / R. Ishmuxamedov, A. Abduqodirov, A. Pardaev. - T.: Iste'dod, 2008. -180 b. - (O'zR Prezidentining "Iste'dod" jamgarmasi). -b.177.-2 ekz. –
4. MOODLE tizimi va undan foydalanishni o'rganishl bo'yicha uslubiy qo'llanma. Andijon-2015.
5. Блохина, Е. Лэпбук – наколенная книга [Текст] / Е. Блохина, Т. Лиханова, Л. Морозова, О. Харина. // Обруч. – 2015. – № 4. – С. 29-30.

7-8 YOSHLI BOLALARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN MAKTABDAGI O'QISH JARAYONIGA TAYYORGARLIGI

*Asqarov Ahliddin Alisher o'g'li,
University of Business and Science katta o'qituvchisi*

*Turg'unova Gulzoda Botir qizi
University of Business and Science talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligini o'rganishga qaratilgan. Maktabga tayyorgarlik nafaqat akademik bilimlarga, balki bolalar psixologiyasini, intellektual va emotsional rivojlanishiga ham bog'liqligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Emotsional tayyorgarlik, kognitiv tayyorgarlik, ijtimoiy tayyorgarlik, o'zini-o'zi boshqarish, motivatsiya, o'zini-o'zi anglash va o'zlik hissi, emotsional barqarorlik, tashqi dunyo bilan muloqot, o'yinlar va faoliyatlar.

ПОДГОТОВКА ДЕТИ 7-8 ЛЕТ С ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА К УЧЕБНОМУ ПРОЦЕССУ В ШКОЛЕ

Аннотация: Эта статья направлена на психологическое исследование подготовки детей к школе. Подготовка к школе зависит не только от академических знаний, но и от психологии детей, их интеллектуального и эмоционального развития.

Ключевые слова: Эмоциональная подготовленность, когнитивная подготовленность, социальная подготовленность, самоконтроль, мотивация, самопознание и чувство собственной идентичности, эмоциональная стабильность, общение с внешним миром, игры и активности.

PREPARATION OF CHILDREN 7-8 YEARS OLD WITH THE PSYCHOLOGICAL ASPECT TO THE EDUCATIONAL PROCESS AT SCHOOL

Annotation: This article is focused on studying children's psychological readiness for school. School readiness is not only related to academic knowledge, but also to children's psychology, as well as their intellectual and emotional development.

Keywords: Emotional readiness, cognitive readiness, social readiness, self-regulation, motivation, self-awareness and sense of self, emotional stability, communication with the external world, games and activities.

Kirish.

Maktab yoshiga yetgan bolalar uchun ta'lim jarayoni nafaqat bilim olish, balki shaxsiy rivojlanish va psixologik tayyorgarlikni ham talab qiladi. Ayniqsa, 7-8 yoshdagi bolalar maktabga birinchi qadam qo'yishdan oldin psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak. Bu yoshdagi bolalar uchun maktabga tayyorgarlik nafaqat ta'limiy metodlar egallash, balki ijtimoiy, emotsional va intellektual jihatdan tayyor bo'lishini ham anglatadi. Maktabga tayyorgarlikning psixologik aspektlari bolalarning yangi muhitga moslashishiga, o'qish jarayonida muvaffaqiyatga erishishiga va umumiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Deyarli barcha bolalarning maktabga borishi ularning hayotida katta voqeadir. Bunga ko'plab sabablar keltirishimiz mumkin, maktab hayoti bolalarga yangi bir hayotni ochib beradi. Bu davrda ularning asosiy faoliyatlari o'zgaradi, hamda maktab yoshidan boshlab ularning asosiy vazifalari bo'lib qoladi. 7-8 yoshli bolalar uchun yangi faoliyatlardan biri bu o'qish bo'ladi. Lekin o'qish faoliyati uchun bolalardan barqaror diqqat, mustahkam xotira hamda tafakkur, so'nmas iroda va shu bilan bir qatordamusqallik, harakatchanlik va tartiblilik hislari bo'lishi kerak.

Bu borada rus psixologi Lev Vygotskiy o'zining sotsial madaniy nazaryasida bolalarning psixologiyasi va ta'lim jarayonini kontekstda tushunishga katta e'tibor bergan. Uning asosiy g'oyalari bolalarning rivojlanishi va ularning maktabdaagi ijtimoiy aloqalarning o'rnini ta'kidlaydi, hamda Vygotskiy bolalarni maktabga tayyorlash bilan bog'liq bir nechta muhim tushunchalarni ishlab chiqqan. Vygotskiyning eng mashhur konseptsiyalaridan biri bu – ZONA PROSSIONAL RIVOJLANISH (ZPD). Vygotskiy bu konseptsiyada maktabga tayyorgarlikda bu

prinsip bolalarga o'zlarini murakkab vaziyatlarda sinab ko'rish imkoniyatini berish, ularning ijtimoiy muhitda o'rganish jarayonini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Vygotskiy maktabga tayyorgarlikda ijtimoiy o'rganishning o'zni muhimligini ham ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bolalar o'z tajribalari va bilimlarini ijtimoiy o'zaro aloqalar orqali rivojlantiradilar.

Vygotskiy bolalarning maktabga tayyorligini tushinishda madaniyat va jamiyatning muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Bu o'z navbztida, bolaning maktabda qanday o'qishi va o'zini qanday tutishini belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda, Vygotskiyning psixologik tadqiqotlari bolalarning maktabga tayyorligi bilan bog'liq va juda muhim tushunchalarni ilgari suradi.

Ayrim psixologlarning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda ularning qizishlariga katta e'tibor berish lozimdir. Chunki maktab yoshidagi bolalar maktab hayoti bilan juda qiziq boshlaydilar. Bolalardagi bunday qiziqishni tarbiyachi qo'llab-quvvatlashi kerak. Buning uchun maktab va unda o'qish haqida qiziqarli suhbatlar o'tkazish hamda yaqin atrofdagi maktabga ekskursiya uyushtirish yaxshi natija beradi. Lekin 7-8 yoshga to'lga bolalarning hamasi ham maktabdagi o'qish jarayonlariga tayyor bo'lavermaydi va bu holat psixologik holatlardandir, chunki bu turdagi bolalar psixologik jihatdan maktab hayotiga tayyor bo'lmaydilar shu sababli avvalo bolani psixologik jihatdan tayyorab borish lozimdir. Psixologik tayyorgarlikga nazar tashlaydigan bo'lsak bu bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qish va o'qish faoliyatiga ijtimoiy, emotsional va kognitiv jihatlar orqali tayyor bo'lish jarayonidir. Maktabga psixologik tayyorgarlik bolalarning maktab muhitiga moslashishi, yangi bilimlarni o'zlashtirishi va jamiyatda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan psixologik qobiliyatlarni ham rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Psixologik tayyorgarlikning asosiy jihatlari.

- Emotsional tayyorgarlik - bu bolaning o'z his-tuyg'ularini boshqarish, ularni anglashi va boshqalar bilan munosabatlarda barqaror bo'lish qobiliyatini rivojlantirishni anglatadi. Bu esa maktabda bolaning ijtimoiy muhitga moslashishida muhim rol o'ynaydi.

- Kognitiv tayyorgarlik - bu bolaning o'quv jarayonlariga tayyorligini, ya'ni o'qish va yozish qobiliyatlari, tushunish va muammolarni hal qilishdagi qobiliyatini rivojlantirishni anglatadi. Kognitiv tayyorgarlikda masalan, kichik-kichik matnlarni o'qishni boshlashi, tahlil qilib tushunishi, yangi bilimlarni o'zlashtirishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

- Ijtimoiy tayyorgarlik - bu bola maktabda o'qishi uchun nafaqat kognitiv, balki ijtimoiy jihatdan ham tayyor bo'lishi zarur. Bu o'zaro munosabatlarda, guruhlarda ishlashda ya'ni tengoshlari yok bo'lmasam o'zidan kata yoshdagi bolalar bilan muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

- O'zini-o'zi boshqarish - bu bolaning o'zini mustaqil ravishda boshqarishi va tahlil qilishi. Bu maktabga tayyorgarlikning eng muhim psixologik jihatlardan, ya'ni ma'suliyatni anglashi va o'zi mustaqil tarzda xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyatidir.

- Motivatsiya - bu maktabga psixologik tayyorgarlikda eng muhim omillardan

biridir. Chunki bolada o'qish faoliyatiga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantirish lozim bu esa asosan uning oila a'zolari va uzoqlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa bolaning yangi narsalarni o'rganish istagini, o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda, o'qish jarayonida muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishni o'z ichiga oladi.

Psixologik tayyorgarlikning asosiy elementlari.

- O'zini-o'zi anglash va o'zlik hissi. Bola o'z qadr-qimmatini, kuchli va zaif tomonlarini tushunib, o'ziga ishonch hosil qilishni o'rganadi. Maktabda o'zini anlash, bolalarga o'zlariga xos qobiliyatlarini rivojlantirish va bu o'z ishlarini baholash imkonini beradi.

- Emotsional barqarorlik.

Maktabga tayyorgarlikda emotsional barqarorlik olalar psixologik jarayonda hamda o'qish jarayonida ham muhimdir. Chunki bola o'z hissiyotlarini to'g'ri ifoda etishi va boshqalar bilan muamolarni hal qilish uchun psixologik kuchga ega bo'lish jarayoni shakllanadi.

Tashqi dunyo bilan muloqot.

Bunga o'z fikrlarini ifodalash, savollar berish va hamkorlikda ishlash jarayonlari kiradi. Bunda psixologik tayyorgarlik bolalarga jamiyatdagi boshqa insolar bilan muloqot qilishida yordam beradi.

Psixologik tayyorgarlikda yordam beruvchi metodlar.

- O'yinlar va faoliyatlar- psixologik tayyorgarlik jarayonida turli xildagi o'yinlar yordamida bolalar ijtimoiy, emotsional, kognitiv ko'nikmalar shakllanadi. Bola o'qish mashg'ulotlariddan bo'sh paytida har xil o'yinlarni o'ynashda davom etishi kerak. Chunki bola o'yin o'ynash jarayonida bola o'zini idora qilishga, o'z harakatlarini o'yin qoidalariga bo'ysundirishga, javobgarlikni sezishga, jamoa manfaatini ustun qo'yishga odatlanadi va o'yin o'ynash jarayonida bolalarning aql-idroki, xotira va tafakkuri o'sadi. Bular o'z navbatida, bolaning maktabda o'qiy olishi uchun psixologik zamin tayyorlaydi. Bunday zamini tayyorlashda va mustahkamlashda albatta, oilada va bolalar bog'chasida olib boriladigan ta'lim – tarbiya ishlari ham ahamiyatga egadir.

- Ota-onalar va o'qituvchilar bilan ishlash- bu metodda bollarning psixologik tayyorgarligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki bu jarayon bolalar o'zini maktabda muvaffaqiyatli his qilishiga yordam beradi. Maktabga psixologik jihatdan tayyor bo'lmagan bolalar o'qituvchiga birmuncha qiyinchiliklar olib keladi.

Ularning yarmidan ortig'i keyinchlik o'zlashtirmovchilar qatoriga qo'shiladilar. Birinchi sinf dasturida berilgan bilimlarni egalashda ko'plab muamolarga duch kelishadi va ularda maktabga bo'lgan qiziqish so'nishni boshlaydi. Shu sababli bolalarni avvalo psixologik jihatdan tayyorlash lozimdir. Maktabga psixologik jihatdan tayyor bo'lgan bolalarning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlangan bo'ladi hamda idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, bolaning qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, dilkashligi, xayrihohligi, tafakkurining yaqqoligi bilan boshqa bolalardan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.X.Jalilova, S.M.Aripova. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. O'quv- qo'llanma.T.: "Faylasuflar",2017. 421-426-bet.
2. Z.T.Nishonov. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. Darslik.T:2017. 121- 124-bet.
3. С.Х.Жалилова-С.М.Арипова. Психология молодежи и школы. Учебное пособие. Таш. 2017.Файласуфлар.Стр.421-426
4. З.Т.Нишонов.Психология детей и психодиагностика. Учебник. Таш.2017. Стр.121-124
5. Psychology of Youth and School. Textbook. Tash.2017.Philosopher. Pages 421- 426.
6. Child Psychology and Psychodiagnostics. Textbook. Tash.2017. Pages 121-124.

INGLIZ TILINI O'QITISHDA DUCH KELADIGAN ASOSIY MUAMMOLAR

Alijon Kodirov Abdumannonovich
University of Business and Science o'qituvchisi
alijonkodirov64@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada chet tilini o'qitish metodikasi haqidagi fikrlar muhokama qilinadi, shuningdek, oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun ingliz tilini o'qitish metodikasining hozirgi holati aks ettirilgan. Talabalar uchun inglizcha tushuncha metodologiyasi doirasida metodologiyaning maqsad va vazifalari aniqlandi va psixolingvistik, pedagogik va uslubiy xarakterning asosiy tamoyillariga asoslanadi.

Kalit so'zlar: ko'nikma, o'rganish usuli, o'rganish, mikro o'rganish, tasavvur qilish, tasdiqlovchi, individual topshiriq, ilmiy, texnik, isbotlash, yodlash, amaliyot, podkast, epizod, qiziqarli, muhim, faol tinglash, taxminan, tushuntirish, marosim, musobaqa, ta'sir qilish, oldindan ko'rish, suhbat.

ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ВСТРЕЧАЮЩИЕСЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация: В данной статье рассмотрены представления о методике преподавания иностранного языка, а также отражено современное состояние методики преподавания английского языка студентам высших учебных заведений. В рамках методики понимания английского языка студентами определяются цели и задачи методики, основанные на основных принципах психолингвистического, педагогического и методического характера.

Ключевые слова: навык, метод обучения, обучение, микрообучение, воображение, утвердительное, индивидуальное задание, научное, техническое, доказательство, запоминание, практика, подкаст, эпизод, развлечение, важное, активное слушание, приблизительное, объяснение, ритуал, соревнование,

разоблачение, предварительный просмотр, беседа.

MAIN PROBLEMS ENCOUNTERED IN TEACHING ENGLISH

Annotation: This article discusses the ideas about the methodology of teaching a foreign language, and also reflects the current state of the methodology of teaching English for students of higher education institutions. Within the framework of the methodology of understanding English for students, the goals and objectives of the methodology are determined and are based on the main principles of psycholinguistic, pedagogical and methodological character.

Keywords: skill, learning method, learning, micro learning, imagine, affirmative, individual assignment, scientific, technical, proof, memorization, practice, podcast, episode, fun, important, active listen, approximate, explain, ritual, competition, influence, preview, conversation

Yer yuzida istiqomat qilayotgan barcha insonlar serqirra dunyoning juda tez o'zgarib borayotganiga nafaqat guvoh, balki jahon madaniyati, fan-texnikasining rivojlanib, taraqqiy etib borishi kabi murakkab va uzluksiz jarayonlarning bevosita ishtirokchilari hamdir. Shu o'rinda jahonning yetakchi tillaridan biri bo'lgan va bugungi kunda Yer sharidagi 40 foiz aholining ikkinchi muloqot tiliga aylangan ingliz tilini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarni o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratilganligi quvonarlidir.

Qisqa fursatda chet tillar bo'yicha mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat standartlari ishlab chiqildi, ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar belgilandi.

Bugungi kunda tilni o'qitish, ayniqsa yangi texnologiyalar va globalizatsiya jarayonlari fonida, o'ziga xos muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Quyida tilni o'qitishning ba'zi muammolari va ularning yechimlari keltirilgan:

Barcha talabalar til o'rganishga qiziqish va motivatsiya yo'qligini his qilishadi. Bu esa o'qitish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'qitish jarayonida interaktiv va qiziqarli metodlar qo'llash, masalan, o'yinlar, simulyatsiyalar, roliklar, onlayn kurslar, va boshqa texnologiyalar yordamida tilni o'rganishni osonlashtiradi. Til o'rganishda shaxsiy qiziqishlarga asoslangan darslar va faoliyatlar tashkil qilish kerak. Masalan, talabaning sevimli mavzusida yoki kasbi bo'yicha materiallar berilishini taminlash kerak. O'rganishning ijtimoiy jihatini rivojlantirish. Talabalarni tilni boshqa o'rganayotgan yoki ona tili bo'lgan kishilar bilan muloqotga jalb qilish eng yaxshi usullaridandir.

Ko'plab hududlarda til o'qitish uchun kerakli o'quv materiallari, zamonaviy texnologiyalar va malakali o'qituvchilar yetishmaydi. Bu o'z navbatida tilni o'rganishni murakkablashtiradi.

Onlayn resurslardan keng foydalanish: internetda mavjud bo'lgan bepul va pullik o'quv materiallarini, video darsliklarni va mobil ilovalardan to'g'ri yo'lda foydalanish va online kurslar yoki seminarlar orqali yangi bilimlar olishi hamda

talabalarga resurslarni taqdim etish va ularga tilni o'rganish jarayonida mustaqil ishlash imkoniyatlarini yaratish zarur.

Talabalarning tilni o'rganishda o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llay olmasligi va xatoliklar ko'payishi mumkin. Bu til o'rganishni qiyinlashtiradi.

- Xatolarni to'g'ri va konstruktiv tarzda tahlil qilish, talabalarga ularni tuzatishga yordam berish.
- Amaliy mashg'ulotlar va tilni real hayotda ishlatish imkoniyatlarini yaratish, masalan, suhbatlar, yozma ishlar, dramatizatsiya va boshqalar.
- Talabalarni mustahkamlash va qayta ko'rib chiqishga yo'naltiradigan o'qitish metodlarini ishlatish.

Bugungi kunda ko'plab texnologiyalar mavjud bo'lsa-da, ularni samarali ishlatish ham o'zgarishlarni talab qiladi. Agar texnologiyalardan noto'g'ri foydalanilsa, bu til o'rganishda samarali natijalar bermasligi mumkin.

- Texnologiyalarni o'qitish jarayoniga integratsiya qilishda pedagogik maqsadlarni aniq belgilash. Har bir texnologiya vositasi talabalarga qanday foyda keltirishi haqida o'qituvchilarni o'qitish.
- Texnologiyalarni interaktiv va kreativ usullar bilan birga ishlatish. Masalan, onlayn suhbatlar, mobil ilovalar yordamida lingvistik mahoratni rivojlantirish.

So'nggi yillari ta'lim texnologiyalari bozorida ingliz tilini o'qitishda juda ko'p takliflar mavjudligini inobatga olsak, "Siz qaysi metod bo'yicha dars berasiz?" degan savol yanada dolzarblashib, intellektual mahsulot iste'molchilari darajasining o'sganligi namoyon bo'ladi. Ta'lim bozori til o'qitish bo'yicha har xil turdagi kurslarni taklif etayotgan shiddatli zamonamizda, vaqtni oltinga teng deb bilgan va o'z ishi, o'qishi va biznesini rivojlantirishni o'ylaganlar ko'p hollarda "Ikki hafta ichida ingliz tilini o'rganish", "Samarali ekspress-metod", "Ongosti darajasidagi ingliz tili" va boshqa shu kabi nomlardagi qisqa muddatli kurslarni tanlashadi. Xo'sh, mazkur o'qitish metodlari qay darajada samarali? Ular kutilgan natijani beradimi?

Yaqin o'tmishda ingliz tilini o'qitishda asosan grammatikaga e'tibor berilardi. O'qish va matnlar tarjimasiga, ba'zan esa bir xillikni biroz bo'lsa-da jonlantirish uchun "topik" larni yod olish hamda diktant yozishga juda ko'p vaqt ajratilardi va mazkur jarayon mashaqqatli mehnatni talab etardi. Bugun til bozorida asosiy taklif iste'molchining talabiga qarab shakllantirilmoqda. Lingvistika va xorij tillarini o'qitish metodikasi bo'yicha yetuk mutaxassis S.G.Ter-Minasovning fikricha, "Bugungi kunda tilni o'qitish funkcionnallashib, integratsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida xorij tillari, xususan, ingliz tilini o'rganish yanada dolzarblashdi. Ammo zamonaviy til o'rganuvchilarni tilning tarixi yoki uning nazariyasi qiziqtirmaydi. Ingliz tili ular uchun hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lib qoldi". Hozirda ingliz tilini o'rganayotgan talabalarga bir necha metodlar taklif etilmoqda. Ulardan biri – fundamental metoddir. U kamida 2-3 yillik o'qishni, grammatikani chuqur o'rganishni taqozo etadi. Ushbu metod, asosan, professional tarjimonlarni tayyorlashda qo'l kelib, o'qish yakunida talabalar dunyoga "native speaker", ya'ni til egasining(tashuvchisining) ko'zi bilan qarashga erishadilar. Uning asosida til real va to'liq muloqot vositasi sifatida o'rganiladi. Hozirda fundamental

metod o'z maqsadini o'zgartirmagan, ammo boshqa ko'plab metodlar aynan fundamental metod bilan raqobat maydoniga chiqishgan. Ana shulardan biri lingvosotsiomadaniy metoddur. Mazkur metod tilni ijtimoiy va madaniy muhitda o'rganishni taqozo etadi. Uning tarafdorlari talabalar "o'lik" leksik-grammatik shakllarni o'rganishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yilishini qoralaydilar. Ularning fikricha, "shaxs – madaniyat mahsulidir. Demak, til ham". Aksariyat holatlarda tilni ijtimoiy hayot bilan muvofiq o'rganmaslik ko'pgina xatolarni keltirib chiqaradi. Masalan, ingliz tilini o'rganuvchi talaba bir qarashda grammatik jihatdan to'g'ri bo'lgan *The Queen and Her relatives* iborasini ishlatishi mumkin, ammo britaniyalik fuqaro *The Royal Family* nazarda tutilayotganini qiyinchilik bilan tushunadi.

Tilni yaxshi bilmaganlar uchun *Don't you want to go?* va *Would you like to go?* iboralari orasidagi farq uncha katta emas, ammo britaniyalik uchun ular farq qiladi. Aksariyat holatlarda anjumanlarda "Sizni yana qanday masalalar qiziqtiradi?" degan savolni ingliz tiliga "What problems are you interested in?" deya tarjima qilishadi. Ammo ta'kidlash joizki, ingliz tilida "problems" so'zi salbiy xarakterga ega bo'lib, bunday jumlaning "What issues are you interested in?" deb tarjima qilgan ma'qulroq. Tilshunoslarning fikricha, bunday xatoliklarning 52%i ona tilidagi iboralarni ingliz tiliga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish bo'lsa, 44%i til o'rganuvchi salohiyatining yetarli emasligi bilan belgilanadi. Tilni o'rganish jarayonida eng muhimi – uzatilayotgan axborot mazmunining qay darajada to'g'ri ekanligidir.

Lingvosotsiomadaniy metod ikki turdagi muloqotni qamrab oladi. Bu til va madaniyatlararo muloqotdir. Oliy o'quv yurti talabasi nafaqat ingliz tilida o'qish, yozish va tarjima qilishda yuqori bosqichlarni egallashi, balki ingliz tilini o'zga xalq madaniyati rakursida ko'ra olishni ham o'rganishi lozim.

Ingliz tili o'qituvchisi til o'rgatish jarayonida aynan shu jihatlariga e'tiborni kuchaytirishi kerak.

Yangi tilni o'qitish usullaridan yana biri kommunikativ metod bo'lib, bugungi kunda u Yevropa va AQSHda samarali qo'llanilmoqda. O'z nomi bilan ushbu metod o'zaro muloqotga asoslangan bo'lib, unda har qanday til o'rganish treninglari asosini tashkil etuvchi matnni o'qish, yozish, so'zlashuv va dialoglarni anglash muhim hisoblanadi. Albatta, ushbu metodda o'qituvchilar so'nggi ikki usulga (so'zlashuv va dialoglarni anglash)ga e'tiborni ko'proq qaratadilar va bunday darslarda siz murakkab so'z qurilmalari va jiddiy leksikaga duch kelmaysiz. Mazkur metodning kamchiligi – biror-bir sohada so'z boyligiga ega bo'lgan talaba shu mazmundagi matnning mazmuniga oson tushunadi, ammo soha mutaxassisi bilan jiddiy muloqotga kirishga qiynaladi. Ushbu metodning maqsadi – birinchi navbatda, muloqot oldidagi qo'rquvni yengishdir.

Demak, tilni chuqur o'rganish, oson muloqotga kirishish uchun yuqorida sanab o'tilgan uchta metodni samarali qo'llagan holda ingliz tilini o'qitish lozim. Fikrimizcha, avval talabani ingliz tilida so'zlashga o'rgatib, ikkinchi bosqichda shu tilda o'ylashga o'rgatish lozim. Bu ancha qiyin, ammo amalga oshirish mumkin bo'lgan jarayon. Buning uchun ingliz tili o'qituvchisi dars berish metodini standart yondashuvdan tashqari turli xil o'yinlar, o'rtoqlari bilan muloqot, xatolarni topish bo'yicha mashqlar, matnlarning qiyosiy tahlili kabilar bilan boyitishi lozim.

Bugungi shiddatli zamonda ingliz tilini o'qitishning ancha ommalashgan yana bir usuli – intensiv metod ham amalda. Uning asosini 25 foizga yaqini klishelar, ya'ni muloqot uchun eng zarur iboralarni yodlash tashkil etadi.

Albatta, til o'rganish uchun mazkur metodni tanlagan talaba Bayron asarlarini asliyatda o'qiy olmasligi mumkin, biroq u zarur payti o'z suhbatdoshi bilan muloqotga kirisha oladi. Ushbu metod orqali dars o'tayotgan o'qituvchi, asosan, dialoglarni qurol qilib oladi. Intensiv metod orqali ham 2 haftada ingliz tilini o'rganish mumkin emas, ammo mehnatsevar, o'z ustida ishlaydigan talabalar tilni 3 oyda bemalol o'zlashtirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi ingliz tilini o'qitish uchun qaysi metodni tanlamasin, uning asosida talabaga ko'proq bilim berish va yoshlar tomonidan ingliz tilini yaxshi o'zlashtirilishiga yordam ko'rsatishga intilish lozim. Shundagina har qanday metod o'z samarasini beradi.

Tilni o'qitish bugungi kunda o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi, ammo zamonaviy metodlar va texnologiyalar yordamida bu muammolarni samarali hal etish mumkin. O'qitish jarayonida qiziqarli va interaktiv usullarni qo'llash, motivatsiyani oshirish va resurslardan to'g'ri foydalanish til o'rganishni osonlashtiradi va o'z samarasini beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
2. Begimqulov U. Sh. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining ayrim jihatlari. -Toshkent. 2022.
3. Archer G. et al. (2017). Mindset for IELTS. Teacher's book 1. Cambridge University Press.
4. Otaxanova D. Chet tilini o'qitishda aktiv o'qitish metodlarining o'rni. NamDU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник. 2022-yil maxsus son. – B.431-436.
5. European Commission ECTS Guide of 2009. Available at https://ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/year-2009/ectsusers-guide-2009_en.pdf
6. Jack Snowman and Rick McCown. (2015), Psychology Applied to Teaching. Stamford: Cengage Learning, 124-129p.
7. Kodirov, A. (2023). Talabalarning Lingvistik Kompetensiyasini Rivojlantirish Usullari talabalarning Lingvistik Kompetensiyasini Rivojlantirish Usullari. Ilm-fan va ta'lim, 1(8).
8. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5141.htm>
9. <https://www.teach-this.com/ideas/problems-learning-english>

MEZOSIKLLARNI TAYYORLASHNING XUSUSIYATLARI VA TRENIROVKA JARAYONINI RATSIONLASH

*Asqarov Ahliddin Alisher o'g'li,
University of Business and Science katta o'qituvchisi*

*Turg'unova Gulzoda Botir qizi
University of Business and Science talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maolada sportchilarni trenirovka jarayonlarini tartiblashtirish yo'llari, sikllar o'rtasidagi jarayonlar va guruxlar ratsionini tuzish to'grisida amaliy metodikalar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Intensivligi, improvizastiyalash, texnikaviy usullar, psixologik muhit, tizim, fiziologik xususiyat, JEL, funkstional qoldiq, o'pka ventilyastiyasi, aerobik, anaerobik imkoniyatlar, absolyut ko'rsatkich, veloergometr, MKD, MPK, OMK, CHSS, AD, atletik tayyorgarlik, atletizm, intensivlashish, ontogenez, kompleks mashg'ulotlar, jismoniy fazilatlar, gerkules, URM MMT potentsiallig.

ХАРАКТЕРИСТИКА ТРЕНИРОВОЧНЫХ МЕЗОЦИКЛОВ И НОРМИРОВАНИЕ ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация: В данной статье показаны способы организации тренировочных процессов спортсменов, процессы между циклами и практические приемы группового рациона.

Ключевые слова: Интенсивность, импровизация, технические приемы, психологическая среда, система, физиологическая характеристика, ЖЭЛ, функциональный остаток, легочная вентиляция, аэробная, анаэробная мощность, абсолютный индекс, велоэргометр, МКД, МПК, ОМК, ЧСС, АД, спортивная подготовка, атлетизм, интенсификация, онтогенез, комплексная тренировка, физические качества, геркулес, потенциал УРМ ММТ.

CHARACTERISTICS OF TRAINING MESOCYCLES AND RATIONING OF THE TRAINING PROCESS

Annotation: In this article, the ways of organizing training processes of athletes, processes between cycles and practical methods of group rations are shown.

Key words: Intensity, improvisation, technical methods, psychological environment, system, physiological characteristic, JEL, functional residual, pulmonary ventilation, aerobic, anaerobic capacity, absolute index, cycle ergometer, MKD, MPK, OMK, CHSS, AD, athletic training, athleticism, intensification, ontogenesis, complex training, physical qualities, hercules, URM MMT potential.

Kirish.

Mezostikllarni OMS tuzilishini hisobga olgan holda bunyod etish sportchi qizlarning yuqoriroq umumiy ish qobiliyatini ta'minlash, ish qobiliyatining yuqori darajasi va ma'qul psixik holatda ular organizmining optimal holatida asosiy o'quv-

mashg'ulot ishlarini bajarish uchun zamin yaratishga imkon beradi. Mashg'ulotlarni ushbu alpozda tashkillashtirish bo'yicha ko'makchi va asosiy mezostikllar, aksariyat nazorat-tayyorlov mezostikllar, ya'ni rejalashtirilayotgan sport natijalariga erishish, tayyorgarlikning turli jabhalarini har tomonlama shay holatga kelitirish uchun zarur bo'lgan texnik va taktik hamda funksional shart-sharoitlarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan mezostikllar uchun shart bo'lmog'i darkor. Musobaqalardan oldingi va ayniqsa, musobaqalarga oid mezostikllarga kelganda esa, ularning tuzilishi va yuklovlar dinamikasiga bo'lajak musobaqalarni o'tkazish muddati va ularning OMS fazasiga nechog'lik muvofiqligiga qarab jiddiy o'zgarishlar kiritilishi mumkin. Tajriba shuni ko'rsatadiki, musobaqalardan oldingi va musobaqalarga oid mezostikllarni bunyod etishda mazkur omillarni hisobga olgan holda musobaqalar muddati yuklovlarni ko'chirish nuqtai nazaridan olib qaraganda eng noqulay OMS fazalariga to'g'ri kelgan taqdirda ham sportchi chiqishlarining natijalari anchagina yuqori bo'lib chiqadi. Bayon etilgan fikrdan shu g'oya o'z isbotini topadiki, ko'rsatilgan mezostikllarda hajmi va intensivligi yuqori bo'lgan mashg'ulotlar yuklovini rejalashtirish, nazorat musobaqalarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir va bu musobaqalarda oldinga bo'ladigan asosiy o'yinlarni sportchi qizlar funksional holati nisbatan noqulay bo'lgan OMS fazalarida ham o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Guruhlarini rastional tarzda tuzish. Ushbu masalaga mashg'ulotlar jarayoniga tegishli muhim tashkiliy muammolardan biri sifatida qaraladi. Xususan, ko'pgina murabbiylar turli yoshdagi va tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lgan o'yinchilardan tashkil topgan guruhlar bilan ish olib boradilar. Ishni bu tarzda tashkillashtirish malakali sportchilarga ham iqtidorli o'smir va qizlarga ham hech kanday foyda keltirmaydi. Kamroq tajribaga ega bo'lganlar yuqori malakali sportchi qizlar bilan yonma-yon ishlar ekan, odatda eng yuqori natijalarga tayyorgarlik bosqichiga xos bo'lgan shunday uslub va vositalarni qo'llaydilar, bular kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Mashg'ulotlarda doimiy raqobatning yo'qligi bois yuqori malakali sportchi qizlarda mashg'ulotlardan sovib ketish hollari kuzatiladi, natijada ular o'z funksional imkoniyatlarini kerakli darajada safarbar eta olmaydilar.

Hozirgi davrda murabbiylar tarkibida nisbatan tor ixtisoslashuvga moyillik tendensiyasi kuzatilmoqda: ba'zi murabbiylar ta'lim va tanlov bilan shug'ullansalar, boshqalari kamolotga erishishning birlamchi bosqichida mashg'ulotlar o'tkazish, yana boshqalari esa malakali sportchilar bilan ish olib boradilar. Buni faqat shu holatdagina to'g'ri deb aytish mumkin, bashartiki bolalar bilan ishlaydigan murabbiylar o'z faoliyatlariga ko'p yillik tayyorgarlik vazifa va talablari nuqtai nazaridan yondoshsalar hamda yosh sportchilar bilan ish olib borganida uzviy masalalarni tezda hal qilish ilinjida yuqori natijalarga erishish borasida sportchi qizlar bilan ko'p yillik ish olib borish bilan bog'liq bo'lgan asosiy vazifaga ikkinchi darajali masala deb qaramasalar. Sportchi qizlar mashg'ulotlariga yuqori darajadagi jo'shqinlik ato etish mashg'ulot jarayonini rag'batlantiruvchi zabardast omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan ish uslublari va shakllari turlicha bo'lishi mumkin: mashg'ulot topshiriqlarini bajarishda musobaqaviy uslubni qo'llash, mashg'ulot dasturlarining nihoyatda xilma-xilligi va ularni muntazam yangilab turish.

Mashg'ulotlarning ichki tuzilishi. Mashg'ulotlar jarayoni tuzilishiga quyidagicha tavsif berilishi mumkin: sport mashg'ulotlarining turli qirralari o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabat (URM va MMT, texnikaviy, psixik va jarayonlar); mashg'ulot va musobaqa yuklovlari parametrlari nisbati (bajariladigan ishning hajmi va intensivligi, umumiy ish hajmida musobaqaviy yuklov hajmi); mashg'ulot jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasida tadrijiylik va o'zaro aloqa (mashg'ulot darslari, mikro- va mezostikllar, davrlar, bosqichlar).

Mashg'ulot jarayonida ichki tuzilmaning uch darajasi mavjuddir:

- Mikrotuzilma - ya'ni alohida mashg'ulot darslari va mikrosikllar tuzilmasi;

- Mezotuzilma- ya'ni o'rta stikllar va maqsadga yo'naltirilgan mikroistikllar silsilasini o'z ichiga olgan mashg'ulot bosqichlari tuzilmasi;

- Makrotuzilma - ya'ni mashg'ulotlarning katta stikllari tuzilmasi. Ushbu tasavvurlarga muvofiq sport mashg'ulotlarini rejalash muammosi oqibatda mashg'ulot jarayonidagi xilma-xil uzviy tuzilmalarni rastional tarzda barpo etish, tayyorgarlikning turli tomonlari o'rtasida optimal o'zaro nisbat, mashg'ulotlardagi rag'batlantira oladigan yuklovlar sportchilar organizmida ro'y berayotgan uzviy va funksional o'zgarishlarga hamda ulardan foydalanish shartlari o'rtasidagi mutanosiblikni bunyod etishga olib keladi (bunda eng avvalo ish va hordiqdagi optimal tartib, to'laqonli va boshqariladigan qayta tiklanish va ovqatlanish ko'zda tutiladi).

Har qanday mashg'ulotlar darsi boshlanishida o'yinchilarda ish qobiliyatining sekin-asta oshishi, ya'ni ishga kirishish davri kuzatiladi. Ushbu davr har qanday muskul faoliyatiga xos bo'lib, biologik qonuniyat darajasiga egadir. Ishga kirishish davrida harakatlarning kerakli stereotipi ishga tushadi: koordinatsiya yangilanadi, ish birligiga ketadigan quvvat miqdori kamayadi, ya'ni uning foydali harakat koeffisienti ortadi, vegetativ funksiyalarni boshqarish yaxshilanadi, shu bilan birga alohida tizimlar faollashuv jarayoni bir vaqtning o'zida ketmaydi. Mashg'ulot darsining asosiy qismida uning eng muhim muammosi hal etiladi. Bajarilayotgan ish eng xilma-xil bo'lishi, shuningdek, MMT va psixologik tayyorgarlikning turli qirralarini oshirishni optimal texnikani takomillashtirish va hokazolarni ta'minlashi mumkin. Bu qismning davomlilikida ishlatiladigan mashqlarning xarakteri va uslubiyati hamda mashg'ulot yuklovining miqdoriga bog'liqdir. Mashqlarni tanlash, ularning soni mashg'ulot yo'nalishi va uning og'irligini belgilab beradi. Sportchi organizmiga mashg'ulot amaliyotlarining ta'sir darajasini belgilab beruvchi asosiy omil bo'lib yuklov miqdori namoyon buladi. Yuklov miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, sportchining toliqishi va uning ish ta'minotida intensiv tarzda qatnashuvchi funksional tizimlaridagi siljish ham shunchalik ko'p bo'ladi. Og'irlik miqdori tiklanish jarayonlarida ham o'z aksini topadi: kam miqdordagi yuklovlardan so'ng ushbu jarayonlar bir necha o'n daqiqa yoki soatlar mobaynida davom etadi, katta miqdordagi yuklovlar ta'siridan so'ng uzoq davom etadigan davrni talab qilishi va bu davr bir necha sutkani qamrab olishi mumkin. Mashg'ulotlar jarayonida ishlatiladigan mashqlar yo'nalishi turli xil maxsus tayyorgarlik va musobaqaviy mashqlarni tanlash va ularni qo'llash bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sokolova N.D., Ismatullaev X.A., Ganieva F.V., Kurs lekstiy III kursa. T., O'zDJTU, 1997
2. Ismatullaev X.A., Ganieva F.V. Metodi i sredstva vospitaniya fizicheskix kachestv v basketbole. Metod.rekomendatsii. T., 1996
3. Ismatullaev X.A., Ganieva F.V. Basketbol o'yinida hakamlarning joylanishi va ularni uzaro xarakatlari. Metod.qo'llanma. T., O'zDJTU, 1996
4. Ismatullaev X.A. Bekbol uyining rasmiy koidalari. Metod.qo'llanma. T., O'zDJTU i TDPU, 2001.

INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA PEDAGOGIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNING XOZIRGI KUN MUAMMOLARI

Xusanov A'zamjon Axmadjanovich
University of Business and Science katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lgusi o'qituvchi – logopedlarni inklyuziv ta'lim muhiti sharoitida pedagogik faoliyatini ilmiy tashkil etish pedagogik muammo sifatida, uning pedagogik-psixologik xususiyatlari, pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari va hozirgi kun muammolari to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: alohida ta'limga ehtiyojmand bolalar, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy muxit, integratsiya, bolalar serebral falajligi, reabilitatsiya, segratsion ta'lim, deferensatsiya, adaptatsiya.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация: В статье рассматривается научная организация педагогической деятельности будущих учителей - логопедов в контексте инклюзивного образования как педагогическая проблема, ее педагогические и психологические особенности, технологии подготовки к педагогической деятельности и актуальные проблемы.

Ключевые слова: дети с особыми потребностями, инклюзивное образование, социальная среда, интеграция, церебральный паралич, реабилитация, сегрегационное обучение, дифференциация, адаптация.

CURRENT PROBLEMS OF ORGANIZATION OF PEDAGOGICAL ACTIVITY IN AN INCLUSIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract: This article discusses the scientific organization of the pedagogical activity of future teachers - speech therapists in the context of inclusive education as a pedagogical problem, its pedagogical and psychological features, technologies of preparation for pedagogical activity and current problems.

Keywords: children with special needs, inclusive education, social environment, integration, cerebral palsy, rehabilitation, segregation education, differentiation, adaptation.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan progressiv islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi, har tomonlama rivojlangan, milliy g‘urur va ananalar bilan sug‘orilgan, yangi inavatsion qarashlarga boy, mustaqil fikrini to‘la bayon eta oladigan, rivojlangan davlatlar bilan har tomonlama raqobatga kirisha oladigan, jismonan baquvat, ma’nan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xurmatli Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 1-oktyabrda “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqlarida – “Bugun har bir o‘qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta’lim va ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak” deb takidlaydilar. [1]

Ayniqsa davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasining birinchi va muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Shuningdek mo‘htaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “bolalar tarbiyasi jarayoniga o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go‘dakligidan ongi va tafakkurini to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo‘ladi” deb takidlaydilar. [2]

2020 yil O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun”ni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860- son qarori va unga ilova qilingan “2020-2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” qabul qilindi. Ushbu qonunning 20-modda (Inklyuziv ta’lim), 55-modda (Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish hamda tarbiyalash, 56-modda (Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish va tarbiyalash) larida alohida ko‘makka muhtoj bolalar ta’lim-tarbiyasiga qaratilganligi, bo‘lgusi o‘qituvchi-logopedlarni inklyuziv ta’lim muhiti sharoitida kasbiy faoliyatni rivojlantirish zaruriyatini taqazzo etadi. [3]

Yuqoridagi fikirlardan ko‘rinib turibdiki, inklyuziv ta’lim sohasidagi amalga oshiriladigan ishlarimiz va ushbu mavzudagi tezisimiz o‘ta dolzarb mavzulardandir. Insoniyat tamaddunining turli davrlariga nazar tashlasak, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami masalalari har qanday jamiyatda muhim muammolarni biri sifatida egallab kelganini kuzatamiz. Ushbu tarixiy yo‘l uzoq bo‘lib, unda nogironlar o‘zlariga nisbatan nafaqat mehribonlik, rahm-shavqatni, balki e’tiborsizlik, nafrat va hatto tajavuz kabi turli-tuman munosabailarni his qiladilar.

Lekin, bosib o‘tilgan uzoq yillar davomida bunday shaxslarga nisbatan tenglik asosida hamkorlik munosabatlari kuzatilmaydi. Aynan so‘ngi yillar davomida jahon hamjamiyati tomonidan tobora keng e’tirof etilayotgan inklyuziv ta’lim ham aynan anashu falsafiy qarashlar asosida yuzaga keladi.

Ya’ni, bunday ta’lim har bir bolaning ta’lim turini tallashida erkinligi, oilada bo‘lish huquqi, o‘z uyi va mahallasida kamol topishi, barcha qatori teng ravishda

bilim olishi kabilarni ta'minlashga qaratilgan.

Bugungi kunda “inklyuziv ta'lim” atamasi ta'lim tizimiga tobora ko'proq kirib bormoqda, bu umumta'lim maktablarida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni o'qitish, kamsitishni istisno qilish va har bir bola uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlashni nazarda tutadi.

Ta'lim tizimiga inklyuziv yondashuvni joriy etish samaradorligi, birinchi navbatda, kasbining ijtimoiy ahamiyatini tushunadigan, kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini biladigan, turli xil rivojlanish patologiyalari bo'lgan, ta'lim muhitining barcha sub'ektlari o'rtasida konstruktiv pedagogik hamkorlikni amalga oshirishga qodir bo'lgan malakali pedagog kadrlarni tayyorlashga bog'liq.

Inklyuziv ta'lim g'oyasi Respublikamizga 1996 yildan krib keldi. Inklyuziv ta'limni joriy qilishga kirishish avvalida rivojlanishida u yoki bu jihatdan muammosi bo'lgan bolaning kamol topishida oila eng samarali maskan ekanligi, shuningdek, bolaning uyda-o'z oilasida bo'lishi eng asosiy huquqlardan ekanligi g'oyasiga tayangan holda ish ko'рила boshlanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston bo'yicha rasmiy tarzda 710 mingdan ortiq nogironligi bo'lgan shaxs ro'yxatga olingan. Ularning 101 ming nafaridan ortig'i – 16 yoshgacha bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalardan iborat. Bu bolalarni ta'limga qamrab olinishida albatta hozirgi kungacha kamchiliklar bor.

Masalan, ta'lim bilan qamrab olinmagan, uyda o'tirib qolayotgan imkoniyati cheklangan bolalar bor. Agar maktablarda inklyuziv ta'lim bilan qamrab olish uchun sharoit yaratilsa, 101 ming imkoniyati cheklangan bolalarning 80 ming nafari bimalol maktabga bora oladi.

Bu esa bizlarni alohida ko'makka muxtoj bolalarning ta'lim – tarbiya tizimiga jiddiy yondashuvimizni talab etadi. Ayniqsa maxsus ta'limning xuquqiy asoslarining yangicha zamon bilan ham nafas tarzda yangilanishi va kundalik xayotimizga tadbiq qilinishi fikrimizning yaqqol dalildir.

Bugungi kunda respublika bo'yicha jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun jami 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda 21,2 ming nafar, 21 ta sanatoriy turidagi maktab-internatlarda 6,1 ming nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladi. Shuningdek, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan 13,3 ming nafar o'quvchilar uyda yakka tartibda o'qitiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni sog'lom bolalar qatorida umumta'lim maktablarida o'qitish amaliyotini rivojlantirish maqsadida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning umumta'lim maktablariga integratsiyalashuvi (uyg'unlashtirgan holda ta'lim-tarbiya berish) tajribasi qo'llanilishi natijasida so'ngi yillarda 500 nafarga yaqin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablariga qaytarildi. Hozirgi kunda 3,2 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan.

Ushbu maktablarning inklyuziv sinflariga 76 nafar o'quvchi qabul qilindi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazida Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi tashkil etildi. Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi

tomonidan rahbar xodimlar, psixologlar va o'qituvchilar uchun "Inklyuziv ta'limning sifat va samaradorligini aniqlash mezonlari", "Alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv sharoitda ta'lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash" nomli metodik qo'llanmalar hamda inklyuziv sinflar uchun 17 nomda, korreksion 1-sinflar uchun 28 nomda adaptiv dasturlar, inklyuziv sinflarda korreksiya ishlarini olib borish bo'yicha "Eshitamiz, ko'ramiz, chiroyli gapiramiz" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqildi. Yuqoridagi amalga oshirilgan ishlarga qaramasdan hozirgi kunda mamlakatimizda inklyuziv ta'limni tashkil etish sohasida quyidagi muammolar mavjud, shu jumladan:

Inklyuziv ta'limni tashkil etish sohasida:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yetarlicha yaratilmagan;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan yetarlicha ta'minlanmagan;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmaganligi natijasida ota-onalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga to'liqligicha tatbiq etilmagan;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijroiya hokimiyati organlari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmayapti;

Kadrlarni tayyorlash sohasida:

- umumta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash talab etilmoqda;
- pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligi hamda kasbiy malaka darajasi inklyuziv ta'lim uchun yetarli emasligi natijasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishda qator muammolar yuzaga kelmoqda;
- pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;
- pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmaganligi, shuningdek bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotganligi ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;
- umumta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari inklyuziv ta'lim haqida yetarli ma'lumotlarga ega emasligi inklyuziv ta'limni joriy etishning samaradorligini pasaytirmoqda;
- malaka oshirish va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limi bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilmagan, ular faoliyatiga inklyuziv ta'lim bo'yicha

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinmagan;

O'quv jarayonini tashkil etish sohasida:

- umumta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim berish metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash me'zonlari to'laligicha ishlab chiqilmagan;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan zarur maxsus o'quv adabiyotlari va metodik-qo'llanmalar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan;

Yuqoridagilardan tahlil qilishimizdan maqsad inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning ta'lim olish uchun keng imkoniyatni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta'lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Ushbu maqolamizni "ZAMIN" fondi Vasiylik kengashi raisi Ziroat Mirziyoevaning quyidagi fikrlari bilan yakunlamoqchimiz "Barcha bolalarning huquqlari va erkinliklari bir xil darajada kafolatlanishi lozim. Ularning manfaatlari ustuvor bo'lishi kerak.

Dunyodagi har bir bola bunga loyiqdir. Nogironligi bo'lgan bolalar ham jamiyatning to'laqonli a'zolaridir. Ularning faol va maroqli hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shubhasiz, juda muhim" deydi o'z nutqida. [4]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 1-oktyabr "O'qituvchi va murabbiylar kuni" ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi., Toshkent., 2020 yil 1 – oktyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida "Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahlili"ga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi., Toshkent., 2018 yil 14 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonun"ni., Toshkent., 2020 yil.
4. "ZAMIN" fondi vasiylik kengashi raisi Ziroat Mirziyoevaning Jahon bolalar kuniga hamda YuNISEFning 75 yilligiga bag'ishlangan «Nogironligi bo'lgan bolalar uchun inklyuziyani ta'minlash» deb nomlangan yuqori darajadagi xalqaro forumdagi nutqidan., Toshkent., 2021 yil 19 noyabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent., 2017 yil 1 dekabr, PF-5270- son.

Elektron ta'lim resurslari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www. ziyonet. uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)

ЭМОЦИОНАЛЬНАЯ КРЕАТИВНОСТЬ: ПОНЯТИЕ И КОМПОНЕНТЫ

З.Х. Камалова,

Доцент, Университет UBS, Ташкентский филиал,

Д.Э. Абдугадинова

Аспирант Университета бизнеса и науки

Аннотация: Данная статья посвящена анализу феномена эмоциональной креативности, ее содержания, сущности и основных компонентов. Эмоциональная креативность рассматривается как способность личности создавать новые и оригинальные эмоции. В статье раскрываются теоретические основы эмоциональной креативности, ее когнитивные, аффективные и мотивационные компоненты, а также факторы, способствующие развитию этого процесса. На основе исследований и практического опыта освещается влияние эмоциональной креативности на личностное развитие, уровень эмоционального интеллекта и креативности. Статья будет интересна специалистам в области психологии, педагогам и широкой аудитории.

Ключевые слова: Эмоциональная креативность, эмоциональный интеллект, управление эмоциями, креативность, когнитивные процессы, аффективный компонент, мотивация, управление стрессом.

HISSIY IJODKORLIK: TUSHUNCHA VA KOMONENTLAR

Annotatsiya: Ushbu maqola emotsional kreativlik fenomenini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, uning mazmuni, mohiyati va asosiy tarkibiy qismlarini yoritib beradi. Emotsional kreativlik shaxsning yangi va original emotsiyalarni yaratish qobiliyati sifatida qaraladi. Maqolada emotsional kreativlikning nazariy asoslari, uning kognitiv, affektiv va motivatsion komponentlari, shuningdek, bu jarayonni rivojlantirish omillari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar asosida emotsional kreativlikning shaxsiy rivojlanishga, emotsional intellekt va ijodkorlik darajasiga ta'siri yoritiladi. Ushbu maqola psixologiya sohasi mutaxassislari, pedagoglar va keng auditoriya uchun qiziqarlidir.

Kalit so'zlar: Emotsional kreativlik, emotsional intellekt, emotsiyalarni boshqarish, ijodkorlik, kognitiv jarayonlar, affektiv komponent, motivatsiya, stressni boshqarish.

EMOTIONAL CREATIVITY: CONCEPT AND COMPONENTY

Abstract: This article is devoted to the analysis of the phenomenon of emotional creativity, its content, essence and main components. Emotional creativity is considered as the ability of a person to create new and original emotions. The article reveals the theoretical foundations of emotional creativity, its cognitive, affective and motivational components, as well as factors contributing to the development of this process. Based on research and practical experience, the influence of emotional creativity on personal development, the level of emotional intelligence and creativity

is highlighted. The article will be of interest to specialists in the field of psychology, teachers and a wide audience.

Keywords: Emotional creativity, emotional intelligence, emotion management, creativity, cognitive processes, affective component, motivation, stress management.

В эпоху глобализации и стремительных изменений эмоциональная сфера личности приобретает все большее значение. Эмоциональная креативность, являясь одной из составляющих креативного мышления, обеспечивает индивиду возможность осознанного подхода к эмоциональным переживаниям и их трансформации в конструктивные формы. В данной статье мы подробно рассмотрим сущность этого понятия, его структурные элементы и значение для личностного развития.

Эмоции играют важнейшую роль в жизни каждого человека, выступая не только средством адаптации к окружающему миру, но и мощным инструментом для достижения целей, выстраивания отношений и самовыражения. Однако традиционные представления об эмоциях как автоматических реакциях на внешние стимулы всё чаще подвергаются критике. Современная психология предлагает рассматривать эмоции как осознанные, гибкие и творческие процессы, в которых человек может выступать активным создателем.

На этом фоне возникает понятие эмоциональной креативности — способности создавать уникальные, оригинальные эмоциональные реакции, которые не только соответствуют контексту ситуации, но и помогают решать задачи более эффективно. Эта концепция выходит за рамки традиционного понимания эмоционального интеллекта, делая акцент на творческом аспекте управления эмоциями.

Интерес к эмоциональной креативности обусловлен её важностью в современном обществе, где успех во многом зависит от гибкости мышления, умения справляться со сложностями и находить нестандартные подходы к взаимодействию с окружающими. Развитие эмоциональной креативности становится особенно актуальным в условиях постоянных изменений, роста конкуренции и необходимости построения гармоничных социальных связей.

Цель данной статьи — рассмотреть сущность понятия "эмоциональная креативность", её теоретические основы, основные компоненты и значимость для личностного и профессионального развития. Особое внимание будет уделено подходам различных учёных к изучению этого феномена и практическим аспектам его применения в жизни.

Понятие «эмоциональная креативность» было введено в психологию Дж. Эйвериллом в 1991 г. Этот феномен был охарактеризован ученым как способность переживать и выражать новые оригинальные эмоции посредством модификации обычных, стандартных эмоций в соответствии с влиянием различных ситуаций (повседневных или стрессовых) [4]. То есть эмоциональная креативность – это набор известных всем эмоций и чувств (печаль, гнев, надежда, разочарование и др.), которые ощущаются в комплексе,

в результате чего появляется глубокое эмоциональное переживание. Он утверждал, что эмоции — это не инстинктивные реакции, а осмысленные и креативные действия, которые можно совершенствовать. Согласно его взглядам, эмоции являются неотъемлемой частью культурного и социального контекста, а их вариативность зависит от когнитивных и мотивационных процессов.

Р.Эверилл, любая эмоция представляет собой синдром – сложный паттерн реакций, представленный такими компонентами, как физиологическое возбуждение, экспрессия, субъективные переживания. Целостные эмоциональные синдромы не запрограммированы генетически, а организованы в соответствии с социальными нормами.

Эмоциональная креативность (ЭК) определяется как способность личности осознанно создавать оригинальные, новые и эффективные эмоции, которые соответствуют контексту ситуации. Это не просто проявление эмоций в необычных формах, а способность применять эмоции как инструмент решения проблем и достижения целей.

В той или иной степени люди обладают способностью изменять и улучшать эмоциональные синдромы благодаря своей собственной творческой активности. Наиболее эмоционально креативные люди могут самостоятельно создавать новые формы эмоций, изменяя представления и нормы, на которых эти эмоции основаны; они обладают глубокими знаниями о своем собственном эмоциональном опыте и опыте других людей; они склонны к содержательному анализу чувств. Поведение таких людей более гибкое.

Эмоциональная креативность в эпоху торжества рациональности и прагматизма и подавления мира человеческих эмоций может стать одним из малоактуализированных, но очень важных ресурсов психологического благополучия, жизнестойкости и эффективных межличностных отношений.

На наш взгляд, эмоциональная креативность способна обеспечить гибкость реагирования в субъективно и объективно сложных стрессовых ситуациях, способствовать трансформации одних, привычных и стереотипно возникающих эмоций в другие, служащие для поиска смыслов возникающих жизненных событий.

На основании теоретического и эмпирического анализа Дж. Эйверилл выделил следующие структурные компоненты эмоциональной креативности:

- подготовленность (preparedness) – обучение размену эмоциональных переживаний на основании предыдущего эмоционального опыта.
- новизна (novelty) – способность испытывать необычные эмоции, которые трудно описать;
- эффективность/аутентичность (effectiveness/authenticity) – умение выражать эмоции откровенно;
- эмоции рассматриваются как подлинные, если они искренни и совместимы с важнейшими интересами личности, способствуют ее благополучию.

Уровни эмоциональной креативности:

- 1) низкий уровень (наиболее эффективное использование эмоций, созданных в культуре);
- 2) комплексный уровень (модификация стандартных эмоций для лучшего удовлетворения потребностей человека и группы);
- 3) высокий уровень (развитие новых форм эмоций, основанных на изменениях в убеждениях и правилах, на которых основаны эмоции).

И.М.Андреева на основании эмпирических исследований продемонстрировала наличие гендерных различий в сфере эмоциональной креативности. Как показывают результаты исследования, женщины достигают более высокого уровня физической подготовки и эффективности / подлинности по сравнению с мужчинами. Новизна в большей степени преобладает у мужчин. Корреляционное исследование эмоциональной креативности со составляющими Большой пятерки продемонстрировали наиболее тесную ее связь с открытостью новому опыту и доброжелательностью.

В профессиональной деятельности роль эмоциональной креативности исследована на теоретико-методологическом уровне. В частности В. Рыжов, А. Архипова определили духовный потенциал эмоциональной креативности в артистической деятельности [3], Н.Угрюмова констатировала творческую направленность эмоциональной креативности и ее значимость для деятельности педагога [1]. Однако исследований эмпирического характера проводится мало, особенно по проявлению эмоциональной креативности в отдельных профессиональных группах. Анализ литературы по указанной проблематике дает возможность сделать обобщение, что эмоциональная креативность способствует успешной профессиональной деятельности психолога, в то же время мы можем предположить: эмоциональная креативность по-разному проявляется в структуре деятельности будущего и опытного специалиста психолога.

М.Кузнецов и Н.Диомидова считают, что конкретная структура эмоциональной креативности определяется ее уровнем (высоким или низким) и типом ситуации, с которой она взаимодействует (повседневная или стрессовая). Березин отмечает, что структура эмоциональной креативности содержит компоненты, близкие по содержанию к элементам дивергентного мышления Торренса [2].

Эмоциональная креативность — это многокомпонентное явление, включающее три взаимосвязанных аспекта:

1. Когнитивный компонент. Когнитивный аспект эмоциональной креативности связан с осмыслением эмоциональных процессов, а также с гибкостью и оригинальностью мышления. Индивид, обладающий развитым когнитивным компонентом ЭК, способен анализировать свои эмоции, выделять их причины и находить нестандартные способы их выражения.

Например, в стрессовой ситуации вместо подавления гнева человек может осознанно трансформировать это чувство в мотивацию для решения проблемы. Это требует не только понимания своих эмоций, но и умения найти

креативный способ их выражения.

2. Аффективный компонент. Аффективный аспект ЭК включает в себя способность глубоко переживать эмоции, проявлять эмпатию и осознавать эмоциональные нюансы. Человек с развитым аффективным компонентом способен чувствовать тонкости эмоционального контекста и использовать их для создания новых эмоциональных состояний.

Например, в отношениях с другими людьми он может не только реагировать на эмоциональные сигналы, но и предлагать оригинальные формы эмоциональной поддержки, способствующие укреплению взаимопонимания.

3. Мотивационный компонент. Мотивация к поиску новых эмоций и их созданию играет ключевую роль в развитии ЭК. Этот компонент связан с внутренней потребностью личности в саморазвитии, самовыражении и достижении эмоциональной гармонии [5].

Например, мотивация может побуждать человека исследовать новые способы управления эмоциями, чтобы улучшить свое состояние или помочь другим людям.

И.М. Андреева приводит следующие характеристики личности с высоким уровнем эмоциональной креативности:

- обладают высокой способностью к интеграции и выражению собственных эмоций в символической форме;
- способны комплексно оценивать ситуацию, учитывать большое количество стимулов; они не склонны делать преждевременных выводы;
- глубоко погруженные в исследование значения собственного эмоционального опыта, искренние в собственных чувствах, склонные к размышлениям относительно последствий своего поведения;
- склонны к содержательному анализу чувств и поведения окружающих, способны приспосабливаться к потребностям других людей;
- в меньшей степени ограничивают себя личными и социальными стандартами;
- испытывают меньше прототипов, даже в стандартных ситуациях;
- находят вызов в ситуациях, где другие видят угрозу.

ЭИ и эмоциональная креативность, как отмечает И.М.Андреева в определенной степени перекрывают друг друга, поскольку предполагают сенситивность к знаниям об эмоциях (подготовленности), а также способности реагировать эффективно и аутентично. Главное отличие состоит в уровне новизны эмоциональной реакции, характерной для эмоциональной креативности. Высокому уровню эмоциональной креативности соответствует высокий уровень ЭИ, однако индивиды с высоким уровнем ЭИ не всегда обладают высоким уровнем эмоциональной креативности.

По мнению Дж. Эйврилл, ЭИ может быть связан с эмоциональной креативностью двумя путями:

- 1) эмоциональная информация может способствовать более эффективному мышлению и креативности;
- 2) ЭИ акцентирует внимание на соблюдении групповых стандартов в

большой степени, чем на новизне и подлинности реакций.

Факторы, способствующие развитию эмоциональной креативности

Развитие эмоциональной креативности возможно благодаря сочетанию внутренних и внешних факторов:

Личностные качества: высокий уровень эмоционального интеллекта, открытость новому опыту, эмпатия и рефлексивность.

Среда: поддерживающая обстановка, поощрение креативного мышления и эмоциональной открытости.

Образование: обучение навыкам эмоциональной регуляции, развитие творческого мышления и работа с эмоциональными установками.

An'anaviy ta'limda o'quv topshiriqlari, ularning turlari va didaktik imkoniyatlari psixologik nuqtai nazardan samarali o'rganilgan. Xususan, 1981 yilda chexialik pedagog-olima D.A.Tollingerova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot natijasida o'quv topshiriqlari taksonomiyasi [17, 69] shakllantirilgan. Taksonomiya quyidagicha shakllantirilgan:

O'quv topshiriqlarining taksonomiyasi (D.A.Tollingerovaga ko'ra)

	Turlari	Guruhlar
	Xotirada saqlash, qayta yodga olishni talab etuvchi topshiriqlar	1) xabardor bo'lishga oid topshiriqlar; 2) alohida dalil, son, tushunchalarni yodga olishga doir topshiriqlar; 3) ta'rif, me'yori, qoidalarni yodga olishga oid topshiriqlar; 4) katta hajmdagi matn, bo'lim, she'r, jadval va b.ni yodga olishga oid topshiriqlar
	Raqam va ma'lumotlar bilan ishlashda oddiy fikriy	1) dalillar (o'lchash, tortish, hisoblash va b.)ni aniqlashga oid topshiriqlar; 2) dalillarni keltirish va ta'riflashga (hisoblash, sanab o'tish va b.)ga doir topshiriqlar;

	operatsiyalarni taqozo etuvchi topshiriqlar	3) harakatlar jarayoni va usullarini tashkil etish va tavsiflashga oid topshiriqlar; 4) ajratish va yig'ish (tahlil va sintez)ga doir topshiriqlar; 5) qiyoslash va farqlash (taqqoslash va bo'lish)ga oid topshiriqlar; 6) taqsimlash (kategoriyalashtirish va tasniflash)ga doir topshiriqlar; 7) dalillar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik (sabab, oqibat, maqsad, vosita, ta'sir, foydalilik, vosita, usullar)ni aniqlashga oid topshiriqlar; 8) mavhumlashtirish, aniqlashtirish va umumlashtirishga doir topshiriqlar; murakkab bo'lmagan (kattalik, o'lchamlari noma'lum bo'lgan) misollarni yechish
	Raqamlar va ma'lumotlar bilan ishlashda murakkab fikriy operatsiyalarni taqozo etuvchi topshiriqlar	1) ko'chirish (biror joyga uzatish, shaklini o'zgartirish)ga oid topshiriqlar; 2) bayon qilish (sharhlash, ma'nosini tushuntirish, mohiyatini yoritish, asoslash)ga doir topshiriqlar; 3) induksiya (juz'iy xususiyatga tayanib, umumiy xulosa chiqarish)ga oid topshiriqlar; 4) deduksiya (umumiy holatga tayanib, xususiy xulosalar chiqarishga) doir topshiriqlar); 5) isbotlash (dalillash) va tekshirishga oid topshiriqlar; baholashga doir topshiriqlar
	Ma'lumotlarni e'lon qilishga	1) umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot, qoralama, mazmun va b.ni ishlab chiqishga doir topshiriqlar;
	Oid topshiriqlar	2) hisobot, ma'lum muammoga bag'ishlangan ilmiy asar, ma'ruzalarni tayyorlashga oid topshiriqlar; mustaqil ravishda yozma ishlar, chizmalar, loyihalar va b.ni bajarishga doir topshiriqlar
		1) amaliy takliflarni ishlab chiqarishga doir topshiriqlar; 2) muammoli masala va vaziyatlarni hal qilishga oid

Ijodiy fikrlashni talab etuvchi topshiriqlar	topshiriqlar; 3) savollarni qo'yish va masala yoki topshiriqlarni ifodalashga doir topshiriqlar; 4) shaxsiy kuzatishlarga asoslangan holda yechimni topishga oid topshiriqlar 5) shaxsiy mulohazaga asoslangan holda yechimni topishga doir (rasional yechimga asoslangan) topshiriqlar
--	---

Rossiyalik psixolog V.Ya.Lyaudis esa psixologik nuqtai nazardan o'quv topshiriqlarini quyidagi turlarga ajratish taklifini ilgari suradi:

1. Bilimlarni anglashni talab qiluvchi topshiriqlar.
2. Oddiy fikriy harakatlar (voqea, hodisa, jarayonlar mohiyatini bayon qilish va tizimlash)ni taqozo qiluvchi topshiriqlar.
3. Murakkab fikriy harakatlar (voqea, hodisa, jarayonlar mohiyatini to'laqonli yoritish uchun dalillarni keltirish, isbotlash, asoslash)ni taqozo qiluvchi topshiriqlar;
4. Muayyan nutqiy fikr bayonnining mahsuldor fikriy harakatlar uchun samarali bo'lganini taxmin qiluvchi topshiriqlar (referat, insho, boshqalarga o'xshamagan ilmiy matn).
5. Mahsuldor tafakkur (muammoni hal qilish)ni ifodalovchi topshiriqlar.
6. Refleksiv (o'zining bilim, ko'nikma, malakalarini namoyon qilishga qaratilgan) harakatlarni tahliliy o'rganishga oid topshiriqlar [11, 16].

V.Ya.Lyaudis tomonidan ko'rsatilgan muayyan nutqiy fikr bayonnining mahsuldor fikriy harakatlar uchun samarali bo'lganini taxmin qiluvchi topshiriqlar (referat, insho, boshqalarga o'xshamagan ilmiy matn) va mahsuldor tafakkur (muammoni hal qilish)ni ifodalovchi topshiriqlar

ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni tavsiflaydi. Bunday holat an'anaviy

Ta'limda ham ijodiy xarakterdagi o'quv topshiriqlaridan foydalanish dunyoqarashi boy, tasavvuri va tafakkuri keng shaxslarni tarbiyalashga e'tibor qaratilganini tasdiqlaydi. Qolaversa, pedagogik, psixologik, metodik hamda ijod bilan bog'liq sohalarida o'qitish jarayonini amalga oshirishda "ijodiy o'quv topshiriq" tushunchasi faol qo'llanilgan.

M.V.Korotkovaning e'tirofiga ko'ra, ijodiy topshiriq (yoki ijodiy xarakterdagi o'quv topshirig'i) tushunchasi "shaxsni yangi axborotlarni hamda avval ma'lum bo'lmagan faoliyat usullarini izlashga undaydigan, shuningdek, ushbu faoliyatning natijasi sifatida axborot, vizual, matnli va boshqalar ko'rinishida ma'lumotlarni olishni taqozo etadigan o'quv

sharoiti" [10, 10] ma'nosini anglatadi.

Bizning fikrimizcha, M.V.Korotkovaning "ijodiy topshiriq" bo'yicha talqini tushunchaning asl mohiyatini to'liq yoritma olmagan. Binobarin, zamonaviy ta'limda

shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning barcha turlari bo'yicha topshiriqlarni bajarishda yangi axborotlar izlanadi, avval ma'lum bo'lmagan faoliyat usullari qo'llaniladi, faoliyatning natijasi axborot, vizual, matnli va boshqalar ko'rinishidagi ma'lumotlarda aks etadi. Qolaversa, tushunchani izohlashda "ijodiy" atamasi tayanch, yadro sifatida tanlanib, talqin uning negiziga qurilishi zarur edi. Shunga ko'ra, "ijodiy topshiriq" tushunchasini shunday izohlash to'g'ri bo'ladi: **ijodiy topshiriq** –uni bajarish jarayonida shaxs ijodiy layoqatining namoyon bo'lishini, yechimning o'ziga xos g'oyalarga asoslanishini taqozo etuvchi o'quv vositasi.

"Ijodiy topshiriqlar ularni mustaqil, o'qituvchining "bosimidan holi" bajarish kerakligini anglatadi. Tarixni o'rganishga kirishishdan avval ta'lim oluvchilarga dastlab imkon qadar ko'proq ijobiy topshiriqlarni berish zarur, bu ularda tafakkur va tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi" [3,11].

O'zbek tili iste'molida "kreativ", "kreativlik" tushunchalari so'nggi o'n yillikda faol qo'llanila boshlaganiga qaramay, "kreativ o'quv topshirig'i" tushunchasi o'zining izohiga ega emas. Garchi rus tilidagi manbalarda "kreativ o'quv topshirig'i" ("kreativnoye uchebnoye zadaniye" yoki "kreativnoye zadaniye") qo'llanilgan bo'lsada, biroq, u mustaqil atama sifatida izohlanmagan. Shunga qaramay, rus sigmentida faol, o'zbek sigmentida nafaol tarzda shaxsda kreativlik qobiliyatini rivojlantirish mavzusida kontentlar mavjud. Shu sababli "kreativ o'quv topshirig'i" tushunchasini pedagogik atama sifatida izohlashga e'tibor qaratildi.

Har qanday tushunchani izohlashda tayanch atamaning ma'nosiga e'tibor qaratiladi. Ayni o'rinda ham tushunchani izohlashda "kreativ" (muammoni hal qilishga nostandart va dalil yondashish) [7], "kreativlik" (standart g'oya va qoidalarni inkor qilish, andoza (qolip)lardan foydalanmaslik, boshqalarga o'xshamaydigan, mutlaqo o'zgacha; muammoning yechimi sifatida ko'plab g'oyalarni ilgari surish va kutilmagan qarorni qabul qilish) atamasining ma'nosiga tayanildi.

Kreativ topshiriq (yoki kreativ xarakterdagi o'quv topshirig'i) – uni bajarish jarayonida shaxsda muammoni hal qilishga nostandart, dalil yondashish layoqatining namoyon bo'lishini, yechimning o'ziga xos, g'ayriodatiy g'oyalarga asoslanishini taqozo etuvchi o'quv vositasi.

Umumiy holda ijodiy va kreativ xarakterga ega o'quv topshiriqlari bir nechta turga ajratiladi. Xususan: o'rganilayotgan mavzu mazmuniga oid topshiriqlar; bilim olish va nostandart vazifalarga bajarishga oid topshiriqlar; o'quv materiali bo'yicha kichik tajriba-sinov ishini tashkil qilish hamda muayyan jarayonlarni konstruksiyalashga oid topshiriqlar; mantiqiy fikrlash hamda yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantiruvchi topshiriqlar; nostandart mantiqiy yechimlarni topishga qiziqtiruvchi topshiriqlar [1].

Shu bilan birga tegishli fan nuqtai nazarida ijodiy va kreativ xarakterdagi o'quv topshiriqlari bir necha turga ajratilishi mumkin. Masalan, S.S.Kisliskaya boshlang'ich sinflar misolida "Rus tili" fanini bo'yicha quyidagi turdagi ijodiy va kreativ xarakterdagi o'quv topshiriqlaridan foydalanish samarali ekanini ta'kidlaydi: matnning boshi berilgan holda yakuni ochiq qoldiriladigan o'quv topshirig'i; boshi ochiq qoldirilgan holda yakuni beriladigan o'quv topshirig'i; matnning ikkinchi

qismi tavsiya qilingan tayanch tushunchalar asosida shakllantiriladigan o'quv topshirig'i; tavsiya qilingan mavzu bo'yicha matndagi tashlab ketilgan o'rinlarni to'ldirishni taqozo qiluvchi o'quv topshirig'i; lug'atsiz, mantiqiy asosda matnni qayta tiklashga asoslangan o'quv topshirig'i; berilgan orfogramma bo'yicha matnni qismlarga ajratishga oid o'quv topshirig'i; tegishli mavzu bo'yicha berilgan so'zlar asosida matn tuzishga oid o'quv topshirig'i; matnning boshlang'ich qismini qisqartirgan holda uning yakunini tugallashga oid o'quv topshirig'i; matnni qayta shakllantirishga oid o'quv topshirig'i; jumboq asosida gapning yakuni bo'yicha matnni tuzishga oid o'quv topshirig'i; mavzuga taalluqli bo'lmagan gaplarni olib tashlashga oid o'quv topshirig'i; matnda muayyan gapning chegarasini belgilashga oid o'quv topshirig'i; predmet (buyum, jonzo, shaxs)ni ta'riflash bo'yicha matnni tuzishga oid o'quv topshirig'i; topishmoqning javobi sifatida savollar asosida mulohazali matnni tuzishga oid o'quv topshirig'i; tayanch iboralar asosida matnni qayta tiklashga oid o'quv topshirig'i [9, 409-411].

S.S.Kisliskaya tomonidan ko'rsatilgan o'quv topshiriqlardan boshlang'ich va o'rta ta'limning deyarli barcha bosqichlarida til fanlari bo'yicha matn bilan ishlash jarayonida maqsadli, samarali foydalanish mumkin.

N.Yu.Paxomova esa zamonaviy sharoitda o'qitish ishlarini olib borishda muammoli xarakterdagi o'quv topshiriqlarining didaktik ahamiyati yuqori ekanini ta'kidlaydi. Muallif, shuningdek, bu turdagi topshiriqlarni quyidagi guruhlariga ajratadi:

- 1) bir-biriga qarama-qarshi g'oyalarni ilgari suradigan topshiriqlar;
- 2) qarama-qarshi nuqtai nazar bilan baholangan topshiriqlar;
- 3) muayyan muammo bo'yicha muqobil nuqtai nazarlarning tanlanishini asoslovchi topshiriqlar;
- 4) voqea, hodisani turli rakurs (joylashgan nuqta) va nuqtai nazardan ko'rib chiqishga oid topshiriqlar [15,7].

Avval aytib o'tilganidek, yuqorida qayd qilingan topshiriqlar barcha o'quv fanlarining umumiy xususiyatlariga tayanib, umumiy holda guruhlangan topshiriqlar sanaladi. Shu bilan birga manbalarda bevosita tarix fanlarini o'qitish jarayonida qo'llaniladigan o'quv topshiriqlarining turlari xususida ham so'z yuritilgan. Jumladan, M.V.Korotkova hamda O.A.Goroxova tarix fanlarini o'qitishda samarali bo'lgan ijodiy o'quv topshiriqlarini quyidagi ikki turga ajratadi:

1. Obrazli o'yin xarakteridagi o'quv topshiriqlari.
2. Bu turdagi topshiriqlar ta'lim oluvchilar o'rtasida o'zaro empatiyani qaror toptirish, ya'ni, boshqa sub'yektning hissiy kechinmalarini anglashga imkon beradi. Obrazli o'yin xarakteridagi o'quv topshiriqlari qatoridan "O'zingizni rolda tasavvur qiling" mazmundagi esse yozish, dialogni shakllantirish, intervyu uyushtirish, kartina "jonlantirish", rasm chizish, maket va illyustratsiya (jurnal uchun mavzuli surat) yaratish kabi topshiriqlar o'rin oladi.

Bu guruhga kiruvchi topshiriqlar ta'lim oluvchilarning tasavvurini, assosiativ (tasavvur va his-tuyg'uni o'zaro bog'lanishini ifodalovchi) hamda obrazli tafakkurini rivojlantiradi.

Образли о‘yin xarakteridagi topshiriqlarning o‘zi ham:


- 1) matnli;
- 2) vizual;
- 3) aralash topshiriqlar tarzida kichik guruhlariga ajratiladi.

Bu turdagi o‘quv topshiriqlarining asosiy mantig‘ini matn tuzish, vizual mahsulot yaratish, shuningdek, bir vaqtning o‘zida ham matnli ham vizual mahsulotlarni yaratish orqali tarixiy voqea, hodisa, jarayonlarni “qayta tiklash” tashkil qiladi [3,12].

3. Evristik metodlar, ya’ni, mantiq, kashf etishga asoslangan mantiqiy topshiriqlar. Bu turdagi topshiriqlar harakatning aniq yo‘nalishi belgilanmagan, boshlang‘ich dalillar yetarlicha bo‘lmagan sharoitda bajariladi. O‘quv bashoratini ifodalovchi mini-loyihalar, kichik tadqiqotlar, intellektual mashqlar, viktorinalar evristik xarakterdagi mantiqiy topshiriqlar hisoblanadi. Mantiqiy topshiriqlarning o‘zi ham: 1) bahs-munozara; 2) ekspet baholash; 3) bashoratlovchi yechimlar tarzida guruhlanadi. Ularni bajarishda ta’lim oluvchilar o‘z qarashlarini ilgari surish, mushohadaning mantiqiy zanjirini topish, ekspert bahosini berish hamda bashoratni ilgari surish kabi amallarni bajaradi. Ijodiy topshiriqlarning mazkur turi ta’lim oluvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash, ixtirochilik, mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi [3,12].

M.V.Korotkova, O.A.Goroxova tomonidan qayd qilingan topshiriqlar, darhaqiqat, tarix fanlarini o‘qitish jarayonida ahamiyatli sanaladi. Biroq, bizning fikrimizcha, bu o‘rinda tarix fanlarini o‘qitishda samarali bo‘lgan topshiriqlarning turlari to‘liq keltirilmagan. Tarixiy bilimlarni o‘zlashtirishga tahliliy, tanqidiy, ijodiy va kreativ yondasha oladigan bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini samarali tayyorlash muammosi dolzarblik kasb etayotgan, axborot texnologiyalarining ta’lim tizimiga faol tatbiqi kuzatilayotgan sharoitda o‘quv topshiriqlarining turlarini belgilash mavjud omillarni to‘laqonli qamrab olishni taqozo qiladi.

Tadqiqot mavzusiga oid mavjud ilmiy izlanishlar bilan tanishish, tarix ta’limi amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish asosida zamonaviy sharoitda tarix fanlarini o‘qitishda foydalaniladigan ijodiy va kreativ o‘quv topshiriqlarni quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq deb topildi:



Ижодий ва креатив ўқув топшириқларнинг асосий турлари

I. Munozaraga asoslangan topshiriqlar. Bu turdagi topshiriqlar turli davrlardagi fikrlarni taqqoslab, ularning muhim jihatlarini yoritishga, tarixiy voqea, hodisa va jarayonlarning zamonaviy jamiyatga, keyingi taraqqiyot bosqichlariga

ta'siri, dolzarb ijtimoiy masalalar haqida bahs yuritishga asoslanadi.

II. Vizuallashtirishga oid topshiriqlar. Ushbu turdagi topshiriqlar matnli o'quv axborotlarini vizuallashtirishga xizmat qiladigan usullar, an'anaviy va elektron ta'lim vositalari yordamida bajariladi. Bu kabi topshiriqlarni shakllantirishda tarix fanlarida dars beradigan pedagoglarning matnli o'quv axborotlarini vizuallashtirishga xizmat qiladigan metodlar, an'anaviy va elektron ta'lim vositalaridan xabardor bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Jumladan:

A. Matnli o'quv axborotlarini vizuallashtiruvchi usul va metodlar:

1. Grafiklarni yaratish usullari – diagammalar (chiziqli, doirali, geografik, ko'pikli, ustunli va vaqtni ifodalovchi (vaqt shkalasi) diagrammalar, blok-sxemalar, matrisalar, xaritalar va kartogrammalar, infografikalar); gistogrammalar.

2. Kompyuter dizayneri yordamida vizuallashtirish usullari – diagramma, grafik va dashboard (interfaol tahlil qiluvchi panel, grafikli interfeys) kabilarni yaratish uchun interfaol-onlayn servislar (masalan, Google Data Studio, MySQL, Google, Yandeks Metriki, Google Analytics, Tableau, Power BI, Azure platformasi) [2].

3. “Davriy shkala”, “Dalillarga asoslangan tuzilma (Dalillar xaritasi), “Izchillik diagrammasi”, “Venn diagrammasi”, “Morfologik quti”, “Mental xarita” (“Idrok xaritasi”), “Qarorlar shajarasi”, (“Qarorlar qabul qilish”), “Toifalash”, “Konseptual jadval” [16] va boshqalar.

B. Matnli o'quv axborotlarini vizuallashtiruvchi onlayn vositalar: “Persuasion map” (“Ishonch tuzilmasi”), “Decision path” (“Qarorlar yo'li”), “Mind Map” (“Idrok xaritasi”; “Mental xarita”), “Flowchart” (“Blok-sxema”) kabi onlayn vositalar hamda Storyboard That platformasi.

III. Muammoli topshiriqlar. Mazkur turdagi topshiriqlar manba, matn va ma'lumotlarni tahlil qilish, muammoni qo'yish va uni hal qilinishini ta'minlovchi yechimni izlashga qaratilgan topshiriqlardan tarkib topadi. Bu kabi topshiriqlar yordamida muayyan tarixiy voqea yoki jarayonni tahlil qilib, uning sabab va oqibatlari aniqlanadi, talabalardan biror-bir tarixiy voqea, hodisa, jarayon yuzasidan mulohaza yuritish, muhokama uyushtirish hamda yechimni topish talab qiladi.

“Muammoli bayon; muammoli ma'ruza; evristik suhbat; muammoli namoyish; izlanishga asoslangan amaliy mashg'ulot; ijodiy topshiriq; xayoliy muammoli tajriba; muammo farazlarini shakllantirish; masalalarni muammoli yechishning optimal variantlarini tanlash; muammoli vazifa; muammoli o'yin” [5, 80], keyslar muammoli topshiriqlar tizimini tashkil qiladi.

Tarix fanlarini o'qitishda, ayniqsa, tarixiy mavzulardagi keyslardan foydalanish talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantiradi. Bu o'rinda

“O'rganish uchun talabalarga Mirkarim Osimning “Shiroq” [13] va “To'maris” [12]; Xurshid Davronning “Massagetlar malikasi va forslar podshohi” [4] kabi asarlar asosida tadqiqotchi M.U.Murodillayeva [14,72] tomonidan ishlab chiqilgan keyslarning taqdim qilinishi talabalarning o'quv-bilish faolligini oshiradi.

IV. Loyiha xarakteridagi topshiriqlar. Bu turdagi topshiriqlar loyiha (axborotli, amaliy va ilmiy-tadqiqot loyiha)ni tayyorlar hamda virtual ekskursiyalar

yaratishga asoslanadi. Tarix ta'limi jarayonida talabalarni loyiha xarakteridagi topshiriqlarni bajarishga yo'naltirish orqali muayyan tarixiy davr, voqea, hodisa, jarayon, shuningdek, tarixiy shaxs faoliyatiga oid mustaqil tadqiqotni amalga oshirish, tarixiy ob'ektlar yoki davrlar asosida multimedia loyihalarini ishlab chiqishga erishiladi. Qolaversa, pedagog talaba bilan individual yoki talabalar guruhi, jamoasi bilan guruhli, jamoaviy hamkorlikda tarix fanlari bo'yicha o'rganiladigan mavzularga oid vizual ishlanmalarni tayyorlash ham loyiha xarakteridagi topshiriqlarni bajarishda samarali bo'ladi.

V. O'yin xarakteridagi topshiriqlar. Ushbu turdagi o'quv topshiriqlari rolli o'yin, sahna ko'rinishi, ko'rgazma, muzey va tarixiy manzillarga ekskursiya shaklida bajariladi. Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar tarixiy shaxslarning obrazida ularning faoliyatini namoyon qiladi. O'yin jarayonida tarixiy voqea, hodisa, jarayonlarni "jonlantirish" imkoniyati yuzaga keladi. Shu bilan birga talabalarga tavsiya qilingan ma'lumotlar asosida tarixiy voqeani "tarixiy-maishiy, tarixiy-mifologik, tarixiy-portretli, tarixiy peyzaj, jang manzarasi" [6] janrlarida badiiy (she'r, esse, ocherk), tarixiy (xronologik jadvalni tuzish, tarixiy xaritani yaratish), ilmiy (maqola, risola,) uslubda bayon qilish, fantastik hikoya yozish, poster yaratish vazifalarini topshirish mumkin.

VI. AKTda bajariladigan topshiriqlar. Mazkur turdagi topshiriqlar tarixiy blog yoki videl blog (qisqarmasi vlog) yaratish, onlayn kviz (onlayn so'rov) va onlayn testlarni tashkil qilishga asoslanadi. Bunda tarix fanlarini o'qitish talabalarga o'tgan davr voqealari bo'yicha multimedia kontent yaratish, shuningdek, ta'limiy xarakterdagi onlayn platformalarda interfaol savol-javoblarni, testlarni tashkil qilishdan iborat topshiriqlarni berish ijobiy natijalarni qo'lga kiritish imkonini yaratadi.

VII. Ijtimoiy o'zgarishlarni ifodalovchi topshiriqlar. Bu turdagi topshiriqlar tarixiy mavzularni ilm-fan, texnologiya taraqqiyoti bilan bog'liq holda, shuningdek, tarix va madaniyat (san'at) uyg'unligini ta'minlash asosida yoritishga asoslanadi. Tarix fanlarini o'qitish jarayonida talabalarga ilm-fan, madaniyat, xususan, tasviriy san'at, badiiy adabiyot, ta'lim tizimi, milliy hunarmandchilikni jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ta'sirini ifodalovchi tarixiy voqealarni o'rganishga yo'naltiriladi. Natijada talabalar tarixiy davrlarning san'at asarlaridagi in'ikosini tahlil qilishni o'rganadi.

VIII. Ijodiy qayta tahlilni taqozo qiluvchi topshiriqlar. Ushbu turdagi topshiriqlar "Agar shunday bo'lganida..." savoli asosida bashoratlovchi, tahlil qiluvchi esse, insho yozish hamda qaror qabul qilish mashqlaridan iborat bo'lishi mumkin. Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar muayyan tarixiy voqea, hodisa hamda jarayonlarni yorituvchi ssenariylarni shakllantirish, biror-bir tarixiy shaxs sifatida qaror qabul qilish va uni himoyalash kabi vazifalarni bajarishi zarur.

Shunday qilib, o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ijodiy va kreativ xarakterdagi o'quv topshiriqlari o'zida umumiy xususiyatlarni namoyon qilish bilan birga tegishli fanning o'ziga xos jihatlarini ham ifodalaydi. Tabiiy ravishda, tegishli fanning o'ziga xosligi asosida ijodiy va kreativ xarakterga ega o'quv topshiriqlari ma'lum turlarga ajratiladi. Muayyan o'quv fani bo'yicha maqsadga muvofiq

shakllantirilgan ijodiy va kreativ xarakterdagi o'quv topshiriqlari didaktik imkoniyatiga ko'ra talabalarda fikrlash, tafakkur yuritish qobiliyatini rivojlantiradi. Tarix fanlarini o'qitishda o'quv topshiriqlarining muayyan turlaridan foydalanish talabalarda nafaqat shaxsiy sifatlarni rivojlantiradi, balki ular mutaxassis sifatida tarixiy, ijodiy va kreativ tafakkurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Agarda munozaraga asoslangan, o'yin xarakteridagi, ijtimoiy o'zgarishlarni ifodalovchi hamda ijodiy qayta tahlilni taqozo qiluvchi topshiriqlar talabalarda tahlil, qiyoslash, nutqiy kompetensiya, o'rganilayotgan mavzuga nisbatan ijodiy yondashish, ma'lum amaliy malakalarni rivojlantirishga xizmat qilsa, vizuallashtirishga oid, muammoli va loyiha xarakteridagi topshiriqlar esa bevosita talabalarni izlanishga, ijodiy, kreativ g'oyalarni ilgari surishga, o'z loyihalarini mazmunan asoslashga undaydi. AKTda bajariladigan topshiriqlar yordamida esa talabalar nafaqat kasbiy tayyorlanadi, balki zamonaviy texnologiyalarda samarali, maqsadli foydalana oladigan mutaxassis sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Виды творческих заданий // <https://multiurok.ru/files/vidy-tvorcheskikh-zadaniy.html>.
2. Визуализация данных: средства, способы, виды, примеры графического представления информации // <http://www.realto.ru/journal/articles/vizualizaciya-dannyh-sredstva-sposoby-vidy-primery-graficheskogo-predstavleniy-informacii>.
3. Горохова О.А. Использование творческих заданий на уроках практикующего учителя истории // Ж. Преподавание истории в школе. – М.: 2015. - № 3. – С. 11-12.
4. Davron, Xurshid. "Massagetlar malikasi va forslar podshohi" // <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-massagetlar-malikasi-va-forslar-podshohi.html>.
5. Innovasion ta'lim texnologiyalari / N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayev. – T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2015. – 80-b.
6. Исторический жанр // <https://ocau.uz/ru/istoricheskiy-janr>.
7. Как креатив работает на продажи, имидж, экспертизу и узнаваемость // <https://setters.education/blog/articles/kak-kreativ-rabotaet-na-prodazhi-imidzh-ekspertizu-i-uznavaemost>.
8. Камардина Н.В., Котова М.О. Творческие задания в современной школе и их классификации (на примере заданий по истории для учащихся 5-го класса) // Ж. Вестник Краунц серия "Гуманитарные науки". – с. Паратунка: 2018. - № 1 (31). – С. 76.
9. Кислицкая С.С. Основные виды творческих текстовых упражнений на уроках русского языка в начальных классах // Ж. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: 2018. - № 3(81). Часть 2. – С. 409-411.
10. Короткова М.В. Методика проектирования, разработки и использования творческих заданий по истории // Ж. Преподавание истории в школе. – М.: 2015. - № 3. – С. 4-10.

11. Ляудис В.Я. Методика преподавания психологии / Учеб.пособие. 3-е изд., испр. и доп. – М.: Изд-во УРАО, 2000. – С. 16.
12. Mirkarim Osim. To‘maris (qissa) // <http://ferlibrary.uz/elektron-kitoblar>.
13. Mirkarim Osim. “Shiroq” (hikoya) // <http://ferlibrary.uz/elektron-kitoblar>.
14. Murodullayeva M.U. Tarixiy-badiiy asarlar vositasida kursantlarida harbiy jasorat sifatlarini rivojlantirish (oliy harbiy ta’lim muassasalari misolida) / Uslub.qo‘ll. – T.: “Davr press” nashriyoti, 2021. – 72-b.
15. Пахомова Н.Ю. Метод учебного проекта в образовательном учреждении. – М.: АРКТИ, 2013. – С. 7.
16. Usmonboyeva M., Aripova M., Mo‘minova D. Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish / Met.qo‘ll. – T.: “Lesson Pres” nashriyoti, 2019. – 167 b.
- Usmonboyeva M.H. Kreativ pedagogika / O‘quv qo‘ll. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2020. – 69-b

08.00.00 - IQTISODIYOT FANLARI**BUXGALTERIYA HISOBI FANI PREDMETLARI VA VAZIFALARI**

Nabiyev Baxodirjon Murodjon o'g'li
University of Business and Science talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada buxgalteriya hisobi fanining predmeti va vazifalari atroflicha ko'rib chiqiladi. Maqolada buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tuzish usullari, hisob fanining nazariy asoslari hamda amaliyotga tadbqiq etish yo'nalishlari yoritilgan. Tadqiqotda buxgalteriya hisobining iqtisodiy boshqaruvdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinib, sohadagi zamonaviy muammolar va ularni hal qilish usullari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, hisob predmeti, metodologiya, iqtisodiy boshqaruv.

Annotation: This article examines the subject and tasks of accounting in detail. The article covers the methods of accounting and financial reporting, the theoretical foundations of accounting and areas of its application in practice. The study analyzes the role and importance of accounting in economic management, and identifies modern problems in the field and methods for solving them.

Keywords: accounting, financial reporting, subject of accounting, methodology, economic management.

Kirish.

Buxgalteriya hisobi - bu iqtisodiy axborotni yig'ish, tahlil qilish va tizimlashtirishni o'z ichiga oluvchi fan. Uning asosiy vazifasi iqtisodiy sub'ektlarning moliyaviy holatini aniqlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda zarur bo'lgan ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat. Bu fan nafaqat korxona darajasida, balki milliy va xalqaro darajalarda ham katta ahamiyatga ega. Mazkur maqolada biz buxgalteriya hisobi fanining asosiy predmeti, funksiyalari va zamonaviy talqinlarini tahlil qilamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida quyidagi manbalar asosiy o'rinni egallaydi:

- Mahalliy va xalqaro buxgalteriya standartlari bo'yicha qo'llanmalar.
- Buxgalteriya va moliyaviy hisobotga oid zamonaviy tadqiqotlar.
- O'zbekiston va MDH mamlakatlari tajribalarini tahlil qiluvchi ilmiy maqolalar.

Ushbu maqolada buxgalteriya hisobi fanining predmeti va vazifalarini ochib berish uchun muqobil tahlil metodlari, jumladan, qiyosiy tahlil, statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil va o'rganish ishlatilgan. Metodologik yondashuv sifatida moliyaviy axborotlarni raqamli texnologiyalar yordamida qayta ishlash va tahlil qilish metodlari qo'llandi.

Muhokama va natijalar.

Buxgalteriya hisobi buxgalteriya ma'lumotlarini to'plash, qayta ishlash va taqdim etish jarayonidir. Mazkur tadqiqot davomida buxgalteriya hisobi fanining predmeti va vazifalari, shuningdek, amaliyotdagi muhim tamoyillar atroflicha ko'rib

chiqildi. Quyidagi muhim natijalar aniqlandi:

Buxgalteriya hisobi fanining predmeti:

Buxgalteriya hisobi fani iqtisodiy resurslar (aktivlar), majburiyatlar (passivlar), xo‘jalik operatsiyalari va ularning natijalarini tizimli ravishda qayd etish, nazorat qilish va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Asosiy e’tibor korxonaning moliyaviy ahvolini belgilash va bu ahvol asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotni shakllantirishga qaratiladi.

Asosiy vazifalar:

- Moliyaviy hisobot tuzish: Korxonaning moliyaviy holati haqida ishonchli va to‘liq ma’lumotni taqdim etish⁴⁶.
- Moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish: Hisobot ma’lumotlari asosida foyda, zarar, likvidlik, to‘lovga qobiliyat va boshqa ko‘rsatkichlarni baholash.
- Normativ talablarni bajarish: Hisobotning xalqaro va milliy standartlarga muvofiq bo‘lishini ta’minlash.
- Iqtisodiy boshqaruvga yordam berish: Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda zaruriy asosni taqdim etish⁴⁷.

Zamonaviy buxgalteriya hisobi muammolari:

Tadqiqot davomida buxgalteriya hisobining amaliyotida bir qator muammolar aniqlangan:

- Moliyaviy ma’lumotlarning o‘z vaqtida taqdim etilmasligi.
- Hisobning xalqaro standartlarga to‘liq muvofiq emasligi.
- Raqamlashtirish darajasining pastligi va an’anaviy usullarga ortiqcha tayanish. Jadval natijalari:

Jadval 1. Buxgalteriya hisobi predmeti va funksiyalari

Predmet	Funksiyalar
Iqtisodiy resurslar	Ularning miqdorini va sifatini baholash
Operatsiyalar	Xarajatlar va daromadlarni hisoblash
Majburiyatlar	Qarz va majburiyatlarni tahlil qilish
Moliyaviy natijalar	Foyda va zararining aniq hisob-kitobini taqdim etish

Jadval 2. Moliyaviy hisobotlarning turlari va ularning maqsadi

Moliyaviy hisobot turi	Maqsadi
Balans hisoboti	Korxonaning aktivlari va passivlari holatini aniqlash
Foyda va zarar hisoboti	Korxonaning daromad va xarajatlari dinamikasini ko‘rsatish
Pul oqimlari hisoboti	Pul mablag‘larining kirimi va chiqimini kuzatish
Kapital o‘zgarishlari hisoboti	Aksiyadorlik kapitali o‘zgarishlarini tahlil qilish

Tadqiqot ko‘rsatdiki, buxgalteriya hisobi fanining predmeti nafaqat moliyaviy ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlashni, balki ularni boshqaruvda samarali qo‘llash uchun tizimlashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy metodlarning joriy etilishi buxgalteriya hisobining ishonchliligini oshiradi, boshqaruv qarorlarini qabul qilishni osonlashtiradi va iqtisodiy sub’ektlarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga moslashuv darajasini oshirish va axborotni tezkor qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish zarurati ham aniqlandi.

Xulosa.

Buxgalteriya hisobi, nafaqat korxonaning moliyaviy axborotlarini yig‘ish va taqdim etish vositasi, balki iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarish uchun muhim vosita sifatida ham ko‘riladi. Uning predmeti va vazifalarini aniq tushunish bu sohadagi har bir mutaxassis uchun juda muhimdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, buxgalteriya hisobi metodologiyalarining to‘g‘ri tanlanishi va ularning amaliyotga qo‘llanilishi iqtisodiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, xalqaro buxgalteriya standartlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish mahalliy korxonalarga raqobatbardoshlikni ta’minlashda katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abduqodirov A., Xaydarov R. Buxgalteriya hisobi. Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2019. – 320 b.
2. G‘ulomov S.S., Karimov A. Moliya va buxgalteriya hisobi asoslari. Toshkent: “Universitet”, 2020. – 280 b.
3. Norqobilov X.N., Jo‘rayev B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021. – 350 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonuni, 1996-yil 30-avgust, 2022-yilgi o‘zgarishlar bilan.
5. Salimov S., Mahkamov U. Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari. Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2018. – 290 b.
6. Usmonov B. Buxgalteriya va audit asoslari. Toshkent: “Noshir”, 2017. – 310 b.

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI**O‘LMAS UMARBEOV VA UNING “ODAM BO‘LISH QIYIN” –
OLIMLIK VA ODAMIYLIKNI FARQLOVCHI ASAR**

*Xabibullayeva Mushtariybonu Dilmurod qizi,
University of Business and Science talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada elimiz suygan san’at arbobi O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” asarini hayotimizdagi o‘rni, shoirning yuksak iste’dod ila hayot va uning haqiqatga to‘la g‘o‘yalari ilgari surilgan. Asar tilimizning soddaligi, voqealarning jonliligi bilan boshqa asarlardan farqli o‘laroq inson qalbida o‘zgacha bir xulosani yuzaga keltiradi. Sa’diy Sheroziyning xuddi shu asarga xos hikmati bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Lirikizm, ruhiy holat, Tursunali aka, G‘ofur aka, Gulchehra, Abdulla va Sayyora.

**УЛМАС УМАРБЕКОВ И ЕГО «ТРУДНО БЫТЬ ЧЕЛОВЕКОМ» – ДЕЛО,
РАЗЛИЧАЮЩЕЕ НАУКУ И ЧЕЛОВЕЧЕСТВИЕ**

Аннотация: В этой статье рассматривается роль любимого нами деятеля искусства Улмас Умарбекова “трудно быть человеком” в нашей жизни, жизнь поэта с высоким талантом и его полные истины идеи. Произведение с простотой нашего языка, живостью событий порождает в душе человека особый умозаключение, непохожее на другие произведения. В этом же произведении излагается мудрость Саади Ширази.

Ключевые слова: лиризм, душевное состояние, брат Турсунали, брат Гафур, Гюлчехра, Абдулла и Сайёра.

**OLMAS UMARBEOV AND HIS "IT IS DIFFICULT TO BE A MAN" - A
WORK THAT DISTINGUISHES SCIENCE AND HUMANITY**

Annotation: in this article, the place in our life of the eloquent art figure Ulmas Umarbekov's “it is difficult to be a man”, the life of the poet with high talent and his true guises are put forward. The work draws a special conclusion in the human soul, unlike other works, with the simplicity of our language, the vitality of events. Sa'di Sherozi's wisdom is set forth in the same work.

Keywords: lyricism, state of mind, Tursunali brother, Ghafur brother, Gulchehra, Abdullah and Sayyora.

XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan serqirra, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, televideniya va radioeshittirish davlat qo‘mitasining muharriri va O‘zbekiston Respublikasi bosh vazirining birinchi o‘rinbosari adibimiz – O‘lmas Umarbekov. O‘lmas Umarbekovning ko‘plab mashhur qissalari, romonlari va hikoyalari mavjud. Jumladan, “Xatingni kutaman”, “Yurak so‘zlari”, “Hayot abadiy”, “Qiyomat qarz”, “Bolgar qo‘shiqdari”, “Menga ishonmaysanmi?”, “Charos”, “Ko‘prik” kabi hikoyalar, “Sevgim, sevgilim”, “Yoz yomg‘iri”, “Urush farzandi”, “Kimning tashvishi yo‘q” singari qissalar, “Odam

bo‘lish qiyin”, “Fotima va Zuhra” romanlarining muallifidir. Adib hayotning qatlamlarini chuqur o‘rganish va tahlil etish, inson taqdirida ro‘y bergan ziddiyat va holatlarni, belgilarni umumlashtirish, badiiy tafakkur tarozisiga qo‘yish, lirizmga moyillik, insonning xarakterini va uning ruhiy holati, his-tuyg‘ulari orqali ochib berish uning ijodiy uslubiga xos xususiyatlardir.

“Odam bo‘lish qiyin” asarida ilmdan bahramand bo‘lish, uni hayotga tadbqiq eta olish insondan juda katta farosatni talab qilishini asarda Abdullajon orqali tasvirlaydi, ya’ni Abdullajon o‘qiganlarini tadbqiq qilishga kelganda biroz adashadi va odamiyligini boy berib qo‘yadi.

Abdulla chindan ham samimiy, insofli, tirishqoq edi. Uning shuhratparast bo‘lib qolishiga amalga intilishiga maktab paytida orttirgan ruhiy jarohati sabab bo‘ldi. Otasi “gipertoniya”ga chalingani bois amaldan ketishi buning natijasida unga nisbatan o‘qituvchilarning muomilasi o‘zgarishi, ayniqsa, otasining do‘sti Husan amakining ikkiyuzlamachiliklari Abdullani butkul o‘zgartirib yubordi. Uning xayolida bu dunyoda eng zo‘ri bo‘lsanggina seni hurmat qilishadi degan fikrga borgan edi. Shundan keyin Abdulla o‘z ustida ishlaydigan va eng zo‘ri bo‘lishga intiladigan bo‘lib qolgandi. Shu vaqtlarda otasini ko‘rgani Tursunali degan do‘sti keladi va u Abdullaning Moskvadagi yangi ochilgan institutda o‘qishi uchun yordam berishini aytdi. Tursunali aka bunday yordam berishining sababi shunda ediki, Abdullaning otasi G‘ofur aka bu odamga ilgari yordam berganligi uchun edi. Tursunali aka Abdullani o‘zining qizi Sayyoraga sherik qilmoqchi edi. Abdulla Sayyorani ko‘rgunga qadar Gulchehraga nisbatan bo‘lgan muhabbati haqiqiy edi. Aynan shu nuqta, ya’ni Gulchehraga uylangan holda qizni qiyin vaziyatdan qutqarish yoki Sayyoraga uylanib porloq kelajakni ta’minlashdan birini tanlash Abdullaning hayotida bir imtihon edi.

Afsuski, qanchadan qancha imtihonlarni a’lo baholarga topshirib, maktabni oltin medalga tugatgan, eng aqlli talaba, olimlikka davogar shaxs bo‘lgan Abdulla hayotning, odamiylikning shu sinovidan o‘ta olmadi. Hayotda yaxshi talaba bo‘la olmadi.

Asosiy qahramon bo‘lmish Gulchehra – oddiy qishloq qizi, chiroyli, aqlli qiz. U ham maktabni tamomlab, hamma qatori shaharga ketmasdan o‘z qishlog‘ini obodonlashtirishni va qayta qurishni orzu qiladi. U kelajakda me’mor bo‘lishni juda ham xohlardi. Gulchehra ilk bor sevib qoladi. Balki yoshlikdagi hoy-u havasdir. Abdulla va Gulchehra ikkisi ham bu sevgi hissini ilk bor tuyishadi va ilk bor dunyoda shunday tuyg‘ular borligini bilishadi.

Hamma ham odam bo‘lib tug‘iladi, lekin shu nomga loyiq bo‘lishni har kim ham uddasidan chiqqa olmaydi. Gulchehra bilan oralarida jiddiroq bir gap bo‘lmagan taqdirda ham insoniylik jihatdan Abdullaning nomardlik qilishga haqqi yo‘q edi. Gulchehrani ishontirib, dil rozini olib boshqaga uylanishga odamiylik huquqi mavjud emas edi.

Shuhratparastlik yomon xususiyatlar sirasiga kiritiladi. Sababi shundaki insonlar boylik uchun har qanday qabihlikka boradi. Qanchalab insonning baxtsizliklariga sabab bo‘ladi. Bulardan yorqin na’muna Abdulla va Gulchehra timsolida ko‘rilib turibdi. Inson, avvalo, olim bo‘lishdan-da oldin odam bo‘lmas ekan,

topgan dunyoviy obro‘-e’tibori, unvon amali befoyda. O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” romanida hayotning haqiqatga to‘la nafasi ufurib turadi. Asar tilining soddaligi, voqealarning jonliligi e’tiboriga arziydi. Asarda yoshlar hayoti, ma’naviy-axloqiy muammolar, insonlarning murakkab munosabatlari haqida yaratilgan va bugungi kunda ham ko‘p o‘qiladigan asarlar qatoriga kiradi. Asar real voqealarga asoslanib yozilgani sababli o‘ziga jalb etadi. Unda o‘zbek ayolini yaqqol namoyon etgan Hojar buvi (Zavod aya yoki “Otinbibi”) kuni faqat qora mehnatda o‘tadigan qo‘llaridan har doim benzin isi anqib turadigan Obid aka, o‘zining jonkuyar mehnati uchun “Qahramon” unvonini olgani va qishloqning oldi odami Yusuf aka hayotidan ham hikoya qilingan.

Qisqasi, asarda odamning ichki kurashlari jamiyatdagi o‘rni va axloqiy me’yorlariga rioya qilishdagi qiyinchiliklar haqida so‘z boradi. Bu asar bir tomondan insonning o‘z ichki dunyosini va atrofidagi borliqni yaxshiroq tushunishga harakat qilish jarayonida yuzaga keladigan murakkablikni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev Q, Qosimov B, Qodirov V, Yo‘ldashbekov J. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashr. – Toshkent:2017. – 368 b.
2. Umarbekov O‘. Tanlangan asarlar- Toshkent: “Sharq” 2005

Mundarija / Содержание / Contents**07.00.00-TARIX FANLARI**

Sarimsokov.A.A. “O‘RTA ASRLAR TARIXINI DAVRLASHTIRISH MUAMMO VA YECHIMLAR (Osiyo va Afrika mamlakatlari misolida)”.....3
Mirzayev B.N “YOZMA MANBALARDA SHAYBONIY ABDULAZIZXON FAOLIYATI XUSUSIDA”.....9
Absattorov B.M TARIXIY – NAZARIY MANBALARI, DINIY TA’LIMOTLARIDA NAFS TUSHUNCHASINING O‘ZIGA XOS TALQINI.....12

11.00.00-GEOGRAFIYAFANLARI

Boymirzayev K.M “FARG‘ONA VODIYSI VOHA LANDSHAFTLARI VA ULARNI TADQIQ ETISH MASALALARI”.....24
Mirzamahmudov O.T “FARG‘ONA VODIYSI ADIR MINTAQASI LANDSHAFT-EKOLOGIK SHAROITINI BAHOLASHNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLAR”.....31
Xakimov M.M “GEOAXBOROT TIZIMLARI TEXNOLOGIYALARINING FARG‘ONA VODIYSI LANDSHAFTLARINING TABIIY VA IQTISODIY MAVZULI KARTALARI TUZISHDAGI AHAMIYATI.....37

13.00.00-PEDAGOGIKAVA PSIXOLOGIYA FANLARI

Xashimova X. D. “TERMINOLOGIYAGA DOIR QARASHLAR TAHLILI”42
Nazarov A. T. Mamadaliyev K.K “ZAMONAVIY PSIXOLOG – PEDAGOGIK ADABIYOTLARDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTINING OILA BILAN O‘ZAROHAMKORLIGI TUSHUNCHASI”.....47
Ahmadaliyev. L. M. “KULFAT IJODINING O‘RGANILISHI”.....51
Avazbekova Sh. N “TA’LIM JARAYONIDA MULTIMEDIADAN FOYDALANIB DARS O‘TISHNING AFZALLIGI”.....57
Asqarov A. A. Turg‘unova G. B “7-8 YOSHLI BOLALARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN MAKTABDAGI O‘QISH JARAYONIGA TAYYORGARLIGI”.....62
Kodirov A. A “INGLIZ TILINI O‘QITISHDA DUCH KELADIGAN ASOSIY MUAMMOLAR”.....66
Asqarov A. Turg‘unova G “MEZOSIKLLARNI TAYYORLASHNING XUSUSIYATLARI VA TRENIROVKA JARAYONINI RATSIONLASH”.....71
Xusanov. A. A “INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNING XOZIRGI KUN MUAMMOLARI”.....74
З.Х. Камалова, Д.Э. Абдугадирова “ЭМОЦИОНАЛЬНАЯ КРЕАТИВНОСТЬ: ПОНЯТИЕ И КОМПОНЕНТЫ”.....79
Болтабоев Х.Х “ФОРМИРОВАНИЕ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ, СОХРАНЕНИЕ И УКРЕПЛЕНИЕ ЗДОРОВЬЯ УЧАЩИХСЯ”.....85
Ashurov A.U “BUGUNGI KUNDA INSONIYATNING EKOLOGIK TIZIMGA ONGLI MUNOSABATI: JAMOATCHILIK EKOLOGIK NAZORATI KONTEKSTIDA”.....91
Akbarov Z “THE LANGUAGE OF COMMUNITY: A SOCIOLINGUISTIC ANALYSI”.....97
Ziyavitdinova.G. “O‘SMIRLARDAGI TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISHGA



ТА’СИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК ТАҲЛИЛИ”.....	103
Рахимова, И.И. Назарова Д.Р. “ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ”	109
Sattarov K.F “TARIX FANLARI BO‘YICHA QO‘LLANILADIGAN IJODIY VA KREATIV O‘QUV TOPSHIRIQLARNING TURLAR”.....	113

08.00.00 IQTISODIYOT FANLARI

Nabiyev B. M “BUXGALTERIYA HISOBİ FANI PREDMETLARI VA VAZIFALARI”.....	125
---	-----

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

Xabibullayeva M. D “O‘LMAS UMARBEOV VA UNING “ODAM BO‘LISH QIYIN” – OLIMLIK VA ODAMIYLIKNI FARQLOVCHI ASAR”.....	128
---	-----

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA`LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

ILMIY

AXBOROTNOMA

№4/2024

*Yilda to`rt marta nashr etiladi. Bahosi kelishilgan narxda.
Jurnalga nashrning istalgan sonidan obuna bo`lish mumkin.
Obuna tahririyatda rasmiylashtiriladi.
Ayrim maqolalarni tayyorlashda Internet materiallaridan foydalanildi.*

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.
Nashr uchun mas`ul: A.R.Nurmatov

Bosishga ruxsat etildi.
Ofset usuli. Oq qog`oz.
Bichimi A4. Hajmi 22,25 bosma taboq.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № ____.